

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UDK 81'373.21

BERDIMURATOVA LAZZAT DUYSENOVNA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZILQUM HUDUDI TOPONIMLARINING
TARIXIY-LINGVISTIK TADQIQI

10.00.01 – O‘zbek tili

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun
tayyorlangan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori N.J.Mingbayev

Navoiy– 2024

MUNDARIJA

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)Ошибка!
Закладка не определена.

I BOB. QIZILQUM HUDUDI TOPONIMLARINING LEKSIK-SEMANTIK GURUHLARIОшибка! Закладка не определена.2

1.1-§. Oykonimlarning yaralishida tabiiy-geografik belgi-xususiyatlar..... 133

1.2-§. Gidronimlar va antropogidronimlarning etimologik tahlili..... 130

1.3-§. Oronimlar tadqiqi va oronimiyadagi anatomik atamalar..... 47

Birinchi bob bo'yicha xulosa 59

II BOB. TOPONIMLAR SHAKLLANISHINING TARKIBIY VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI 611

2.1-§. Qizilqum hududi onomastik birliklarining transonimizatsiyasiОшибка! Закладка не определена.1

2.2-§.Qizilqum hududi toponimlari shakllanishining morfologik usullariОшибка! Закладка не определена.0

2.3-§. Hudud onomastik birliklari shakllanishining sintaktik usuli...Ошибка!
Закладка не определена.

2.4-§. Qizilqum hududi toponimlari tarkibiy tuzilishida rang-tus ifodalovchi sifatlar 89

Ikkinchi bob bo'yicha xulosaОшибка! Закладка не определена.8

III BOB. QIZILQUM HUDUDI TOPONIMIK TIZIMIDA TOPONIM SHAKLLANISHINING UMUMTURKIY MODELI 100

3.1-§. Toponim yaratilish umumturkiy modelining o'ziga xos xususiyatlari 100

3.2-§. Qizilqum hududi toponimlari yaralishi jarayonida xalqona geografik atamalari qo'llanilishining o'ziga xos xususiyati108

3.3-§. Qizilqum hududi arealida qozoq etnotoponimlari nomlanishi xususiyatlari.....123

Uchinchi bob bo'yicha xulosa..... 130

UMUMIY XULOSALAR..... 132

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI..... 134

SHARTLI QISQARTMALAR	148
ILOVALAR.....	150

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ilm-fanida toponimlar masalasi tilshunoslik, geografiya, tarix, etnografiya, sotsiologiya, lingvokulturologiya fanlarining noyob, boy tarixiy, milliy-madaniy, ijtimoiy axborotlarni tashuvchi lisoniy birlik sifatida qaralmoqda. Toponimika sohasida toponimlarning polisonim, komonim, gidronim, agronim kabi turlarining lug‘aviy ma‘noviy, nomlanish, yasalish va tuzilish xususiyatlari borasida muhim amaliy ishlar olib borilmoqda va onomastika doirasidagi tajribalar to‘planmoqda. Bugungi globallashuv, fanlar integratsiyasi toponimik birliklarning barcha tiplarini to‘plash va ularni nominatsion-motivatsion, etimologik, struktural, areal, qiyosiy-tarixiy, tipologik-tasnifiy, sotsiolingvistik, lingvokulturologik aspektlarda ko‘rib chiqish onomastikaning dolzarb masalasiga aylanmoqda.

Dunyoda bugungi toponimika taraqqiyoti kam o‘rganilgan makro va mikrotoponimik ko‘lam birliklari tarixiy va lingvistik, zamonaviy aspektlarda tadqiq etilmoqda. Toponimlarning oykonim, gidronim, oronim kabi tarkibiy qismlarini lingvistik paradigmalar asosida o‘rganish, xalqning ijtimoiy hayoti, milliy, etnik, madaniy tarixiy taraqqiyotini yoritishda ahamiyatli ekanligi tilshunoslar tomonidan qayta-qayta ta‘kidlanmoqda. Toponimlarning tadqiqi tilning va uning toponimik, jumladan, oronimik tizimining taraqqiyoti hamda lisoniy takomilini, oronimlarning boshqa toponimik birliklar bilan munosabatini, ular mansub hudud dialekti, geografiyasi, tarixi, etnografiyasi, geodeziyasi, flora va faunasi, tog‘ turizmiga xos tabiati va boshqa imkoniyatlarini o‘rganish dolzarblik kasb etadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda til, xususan, toponimik siyosatni izchil, mukammal amalga oshirishga yo‘naltirilgan, zamonaviy taraqqiyot tamoyillari va tilshunoslikning zamonaviy ilmiy paradigmalariga asoslangan yangi tadqiqotlar yaratish

ustuvor vazifa etib belgilanganki, bu millatimiz ravnaqi uchun muhim omillardandir. “Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim”¹. Bu borada Navoiy viloyati Qizilqum hududi toponimlarining tarixiy-lingvistik, nominatsion-motivatsion, etimologik, derivatsion xususiyatlarini tadqiq etish va tasniflash hamda tavsiflash, shu asosida o‘zbek toponimikasini ilmiy-nazariy qarashlar va amaliy talqinlar bilan boyitish ayni kun zaruratidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi qarorlari, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ilmiy natijalari ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish”ning ustuvor yo‘nalishi bilan bog‘liq.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida H.A.Smit, A.L.Dauzat, G.J.Kopley, G.V.Lemon, V.Pizani kabilarning ilmiy izlanishlari

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B. 22.

toponimikaning fan sifatida shakllanishi tamoyillari yuzasidan alohida o'ziga xos ko'rsatkichga ega.

Toponimik tadqiqotlarga qiziqish rus ilm-fanida XIX asrda paydo bo'ldi va V.A.Vostokov, N.N.Nadejdina, V.V.Radlov, N.Y.Danilevskiy, Y.K.Grot va boshqalarning ishlarida namoyon etildi. Sobiq Sovet hukumatining dastlabki yillarida bu qiziqish A.I.Sobolevskiy, V.P.Semyonov Tyan-Shanskiy, V.B.Shostakovich, P.L.Mashtakova, N.Ya.Marr, A.M.Selisev ishlarining dunyoga kelishiga sababchi bo'ldi. Ikkinchi jahon urushidan keyin tarixiy va toponimik tavsifdagi yirik asarlar nashr etildi. Bu davrda toponimika fan sifatida shakllandi, uni tadqiq qilish usullari belgilandi, nazariy muammolar ishlab chiqildi. Ushbu olimlar asarlari turkiy toponimiyasi bo'yicha ham bir qator tadqiqotlarning asosiga, jumladan, Sh.K.Qonkashbayev, A.A.Abduraxmanov, S.Ataniyazov, Sh.I.Yuzbashev, S.M.Mollazade, S.Umurzakov asarlari diqqatga sazovor.

Mamlakatimizda onomastik birliklarni tadqiq etish, ularni tarixiy-lisoniy, leksik-semantik, etnogeografik, sotsiopragmatik, grammatik va lingvokulturologik, paradigmatic va sintagmatik yondashuvlar uyg'unligida o'rganish ommalashmoqda. XX asrning ikkinchi yarmi hamda mustaqillik yillarida toponimlarning lisoniy tizimdagi funksional-semantik taraqqiyoti, shakllanishi, qo'llanish jarayonidagi ahamiyati, nom yasalishi bilan bog'liq xususiyatlarini aniqlash borasida tilshunoslik, tarix, geografiya fanlari uyg'unligida ko'plab ilmiy fundamental tadqiqotlar amalga oshirildi, lug'atlar yaratildi, nomzodlik va doktorlik ishlari himoya qilindi. Jumladan, o'zbek toponimikasi ilmiy nazariy asoslarining ishlab chiqilishida E.Begmatov, T.Nafasov, Sh.Qodirova, Ya.Xujamberdiyev, O.S.Gubayeva, T.Rahmatov, J.Latipov, N.Oxunov, Q.Xurramov, L.Karimova, S.N.Nayimov, Z.Do'simov, X.Xolmo'minov, B.O'rinboyev, A.Muhammadjonov, A.Otajonova, T.D.Enazarov, S.N.Ahmedov, Sh.A.Temirov, I.Xolmurotov, N.Ganiyev, U.S.Turdimurodov² va boshqa olimlarning xizmatlari katta

² Begmatov Э. Ўзбек тили антропонимикаси: Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1965.; Нафасов Т. Қашқадарё область топонимлари: Филол.фан. номз...дисс.. – Тошкент, 1968.; Кадырова Ш. М. Микротопонимы Ташкента: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1970.; Хужамбердиев Я. Историко-этимологическое исследование топонимики Сурхандарьинской области Узбекской ССР: Автореф.дисс. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 1973.;

bo'ldi. Ularning nazariy, tarixiy-lingvistik hamda lingvonomastik, lingvokulturologik, etimologik tahlil masalalarida olib borgan ko'lamli tadqiqot ishlariga bag'ishlangan maqola, monografiya va dissertatsiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda toponimlarning tilshunoslik, tarix, geografiya fanlari nuqtayi nazaridan tadqiqi borasida bir qator ilmiy ishlar amalga oshirildi va bir qancha nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Ularda o'zbek onomastik terminlari, toponimlari lingvistik aspektda tahlil etildi. Hozirgi kunda o'zbek toponimikasining taraqqiyoti me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tizimlashtirilgan³.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Navoiy davlat pedagogika institutining "O'zbek tili birliklarining funksional pragmatik va semantik-

Губаева О.С. Этнонимы в топонимии Ферганской долины: Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – М., 1973.; Рахматов Т. Топонимия города Самарканда и его окрестностей: Автореф.дисс.... канд.филол.наук. –М., 1973; Латипов Ж. Марғилон шаҳри ва унинг атрофи топонимияси: Филол.фан. номз...дисс.. –Тошкент, 1975.; Охунов Н. Топонимия Кокандской группы районов: Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Ташкент, 1978; Хуррамов К. Узбекские географические термины, обозначающие рельеф Южного Узбекистана: Автореф.дисс....канд.филол.наук. – Ташкент, 1981; Каримова Л. Ўзбек тилида топонимларнинг ўрганилиши. – Тошкент: Фан, 1982.; Найимов С.Н. Ойконимы Бухарской области: автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 1984.; Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985.; Холмўминов Х. Бойсун район микротопонимларининг лексик-семантик хусусиятлари. Ўзбек тилининг лексик-грамматик хусусиятлари. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 1988. – Б.73-75.; Ўринбоев Б. Жиззах вилояти топонимлари. – Жиззах, 1992.; Ўринбоев Б.Самарқанд вилояти топонимларининг изохи. – Самарқанд, 1997.; Муҳаммаджонов А. Жой номлари – тарихий манбадир. Илмий-амалий конференция докладлари тезислари. – Тошкент, 1994. –Б.15-17.; Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари. – Тошкент: Фан, 1997.; Эназаров Т.Д. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари. Филол.фан. д-ри...дисс. автореф. - Тошкент, 2006.; Ахмедов С.Н. Жиззах вилояти топонимларининг семантик хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Самарқанд, 2019.; Темиров Ш.А. Самарқанд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Самарқанд, 2019.; Холмуратов И.О. Жанубий Қорақалпоғистон ойконимларининг лисоний тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Бухоро, 2020. – 20 б.; Ганиев Н.У. Навоий вилояти Қизилтепа тумани топонимларининг этимологик ва когнитив тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Жиззах, 2022.; Turdimurodov U.S. Xatirchi tumani toponimlarining leksik-grammatik va etimologik tadqiqi. Filol.fan.b.fals.dok... diss. avtoref. – Samarqand, 2023.

³ 1996 йил 31 майдаги "Ўзбекистон Республикасидаги маъмурий-худудий birlikлар, аҳоли пунктлари, ташкилотлар ва бошқа топонимик объектларининг номларини тартибга солиш тўғрисида"ги 203-сонли қарор; 1996 йил 30 августдаги "Ўзбекистон Республикасидаги маъмурий-худудий тузилиш, топонимик объектларга ном бериш ва уларнинг номларини ўзгартириш масалаларини ҳал этиш тартиби тўғрисида"ги қонун; 2004 йил 11 августдаги "Ўзбекистон Республикасидаги маъмурий-худудий birlikлар, аҳоли пунктлари, ташкилотларга ва бошқа топонимик объектларига ном бериш ишларини тартибга солиш тўғрисида"ги 383-сонли қарор; Ўзбекистон Республикасининг "Географик объектларнинг номлари тўғрисида"ги қонуни / Халқ сўзи, 2011, 13 октябрь, № 198. – Б.1

uslubiy tahlili (sinxron va diaxron aspektida)” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Qizilqum hududi onomastik birliklari tizimini tasvirlash va tadqiq etish, ya’ni hududning umumturkiy toponimlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Qizilqum hududida mavjud bo‘lgan barcha toponimik birliklarni yig‘ish va yaxlit bir tizimga keltirib, ularni leksik-semantik guruhlariga ajratish hamda nomlarning grammatik tuzilishi va struktural modellarini aniqlash;

hudud toponimlarining yasalish usullarini o‘rganish, ularning yuzaga kelishi, shakllanishi uchun asos bo‘lgan lisoniy va nolisoniy omillarini asoslash;

hudud toponimlarining yuzaga kelishida toponimik aniqlagichlarning o‘rnini aniqlash va ularning funksional-semantik xususiyatlarini ochib berish;

hudud toponimlarini qiyosiy tahlil qilish va ularning umumiy hamda xususiy jihatlarni aniqlash;

hudud toponimlari doirasida o‘ziga xos tavsifga ega nomlarning etimologik xususiyatlarini ochib berish.

Tadqiqot obyekti sifatida tarixiy, geografik asarlar, toponimik lug‘atlardan hamda ekspeditsiyalar jarayonida to‘plangan O‘zbekiston Respublikasi Qizilqum hududining 1136 ta toponimik birliklari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini O‘zbekiston Respublikasi Qizilqum hududi toponimlarining nominatsion-motivatsion, lug‘aviy-ma’noviy xususiyatlari, tuzilish va yasalish modellari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda lingvistik tavsiflash, nominatsion-motivatsion, lug‘aviy-ma’noviy, qiyosiy-tarixiy, etimologik, struktural, areal, tipologik-tasnifiy, sotsiolingvistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Qizilqum hududi toponimlarining oykonim, gidronim, oronim, nekronim, agroonim, dromonim kabi semantik guruhlariga mansub obyektlarning atalishida urug‘, antroponim, fitotoponim, zoonim kabi nomlarining motivlanishi *Oyko‘nek, Teleu, Keneges* (urug‘ nomlari), *Jing‘ildi, Shengeldi, Ajiriqli* (o‘simlik nomlari), *Qulanqoq, Ot quduq, Oqbo‘ta* (hayvon nomlari) *Xolmurodqazg‘on, Utamurod, Eltoy* (antroponim nomlari) kabi toponimlar misolida asoslangan;

Qizilqum hududi toponimlarining yasashida kompozitsiya, onomastik konversiya usullarining faolligi hamda affiksatsiya usuli nafaolligi *Ajiriqli+li, Qog‘a+li, Tuya+chi* (affiksatsiya usuli), *Yassi+kechuv, Kampir+soy, Ming+bulaq* (kompozitsiya usuli), *Tepa, Koriz* (onomastik konversiya usuli) kabi toponimlar asosida isbotlangan;

Qizilqum hududi toponimlarining nomlanishida qishloq, ovul, rabot, quduq, buloq, soy, tog‘, tepa, jar, bel kabi toponimik aniqlagichlarning semantik vazifalari *Xo‘jaovul* (ovul), *Qumrabot* (rabot), *Qoraquduq* (quduq) *Oydinbuloq* (buloq), *Oqsoy* (soy), *Bo‘kantov* (tog‘), *Uchtepa* (tepa), *Oqjar* (jar), *Saribel* (bel) singari nomlar asosida dalillangan;

Qizilqum hududi toponimlarining lingvistik strukturasi tub, affiksli, qo‘shma, toponimik aniqlagichli, murakkab tarkibli toponimlarga ajratilgan va ular orasidan Konimex, Ko‘kcha, Kengsoy, Qumrabot, Chordara kabi nomlarning etimologiyasi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

hudud etnonimlarining semantik tabiati va tarixiy-lingvistik tahlili etnonimlarning til va milliy ma‘naviy birlik sifatida o‘rganilishi uchun ilmiy-nazariy asos vazifasini bajarishi, etnolingvistika, onomastika, dialektologiya, toponimika kabi fanlar bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanmalarining yaratilishiga muhim manba bo‘lishi asoslangan;

tadqiqot davomida olib borilgan toponimik ekspeditsiyalar natijasida to‘plangan materiallar asosida “Qizilqum hududidagi joy nomlari”ning lingvistik bazasi yaratilgan;

toponimlar tadqiqi asosida chiqarilgan xulosalar o‘zbek tilining hududiy lug‘aviy birliklari tahlili asosidagi yangi tadqiqotlarning yaratilishi uchun xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi chiqarilgan xulosalarning qat'iyliigi, ularni dalillovchi ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, to'plangan materiallar tahlilining ilmiy va metodologik jihatdan asoslanganligi, nazariy xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining miqdor va sifat jihatidan ta'minlanganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, dissertatsiyada o'zbek tili onomastikasini mikrotoponimiya haqidagi ilmiy qarashlar bilan boyitib, toponomik arealdagi ijtimoiy, lisoniy, tarixiy, geografik o'zgarishlarni kuzatish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot materiallari, natija va xulosalari onomastika, geografiya fanlarini o'qitishda, o'zbek tili onomastikasi, leksikologiyasi bo'yicha darsliklar, metodik qo'llanmalar yozishda, o'zbek tilining milliy va geografik ensiklopedik lug'atlarini boyitishda, bakalavriat va magistratura ta'lim yo'nalishlarida maxsus kurs, maxsus seminarlar o'tishda manba vazifasini bajarishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston Respublikasi Qizilqum hududi toponimlarining tarixiy-lingvistik tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

O'zbekiston Respublikasi Qizilqum hududi toponimlarining oykonim, gidronim, oronim, nekronim, agroonim, dromonim kabi semantik guruhlariga mansub obektlarning atalishida urug', antroponim, fitotoponim, zoonim kabi nomlarining motivlanishi Oyko'nek, Teleu, KeneGES (urug' nomlari), Jing'ildi, Shengeldi, Ajiriqli (o'simlik nomlari), Qulanqoq, Ot quduq, Oqbo'ta (hayvon nomlari) Xolmurodqazg'on, Utamurod, Eltoy (antroponim nomlari) kabi toponimlar tahlili asosida olingan xulosalardan 2017-2020-yillardagi 2016-09081165532 raqamli "Qoraqolpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi" mavzusidagi fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston pedagogika Fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpogiston filialining

2024-yil 8-maydagi 181-son ma'lumotnomasi). Natijada fundamental ilmiy loyihaning nazariy qismining yangi ilmiy fikrlar, g'oyalar bilan boyitilishiga erishilgan;

Qizilqum hududi toponimlarining yasallishida kompozisiya, onomastik konversiya usullarining faolligi hamda affiksatsiya usuli nafaolligi Ajiriq+li, Qog'a+li, Tuya+chi (affiksatsiya usuli), Yassi+kechuv, Kampir+soy, Ming+bulaq (kompozisiya usuli), Tapa, Koriz (onomastik konversiya usuli) kabi toponimlar asosida chiqarilgan xulosalardan 2022-2024-yillarda bajarilgan IL-402104209. "Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o'zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish" mavzusidagi amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 1-maydagi 04/1-1142-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy xulosalar, dalillar bilan boyitilishiga erishilgan;

Qizilqum hududi toponimlarining nomlanishida qishloq, ovul, rabot, quduq, buloq, soy, tog', tepa, jar, bel kabi toponimik aniqlagichlarning semantik vazifalari Xo'jaovul (ovul), Qumrabot (rabot), Qoraquduq (quduq) Oydinbuloq (buloq), Oqsoy (soy), Bo'kantov (tog'), Uchtepa (tepa), Oqjar (jar), Saribel (bel) singari nomlar asosida dalillanganligi to'g'risidagi xulosalardan 2017-2020-yillardagi 2016-09081165532 raqamli "Qoraqolpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi" mavzusidagi fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston pedagogika Fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpogiston filialining 2024-yil 8-maydagi 181-son ma'lumotnomasi). Natijada fundamental loyihaning ilmiy-nazariy faktlar bilan boyitilishiga erishilgan;

Qizilqum hududi toponimlarining lingvistik strukturasi tub, affiksli, qo'shma, toponimik aniqlagichli, murakkab tarkibli toponimlarga ajratilgan va ular orasidan Konimex, Ko'kcha, Kengsoy, Qumrabot, Chordara kabi nomlarning etimologiyasi to'g'risidagi xulosalardan 2022-2024-yillarda bajarilgan IL-402104209. "Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o'zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini

yaratish” mavzusidagi amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 1-maydagi 04/1-1142-son ma’lumotnomasi). Natijada amaliy loyiha Qizilqum hududi toponimlarining lingvistik strukturasi borasidagi mulohazalar bilan boyitilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta, jumladan, 4 ta respublika hamda 4 ta xorijiy jurnallarda maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 135 betni tashkil etdi.

I BOB. QIZILQUM HUDUDI TOPONIMLARINING LEKSIK-SEMANTIK GURUHLARI

Bugungi kunda tariximizni, qadriyatlarimizni, boy milliy madaniyatimiz va ma'naviyatimizni, ilmiy merosimizni xolisona, haqqoniy yoritish uchun obyektiv shart-sharoitlar yaratildi. O'zbek milliy tilshunosligida onomastik tadqiqotlar, asosan, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Hozirda o'zbek tili toponimlari bo'yicha salmoqli fundamental tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, atoqli nomlarning izohli, imloviy lug'atlari ishlab chiqilganligini qayd etish mumkin. Mamlakatimiz toponimikasini ilmiy asosda tadqiq etishda E.Begmatov, T.Nafasov, Sh.Qodirova, Ya.Xujamberdiyev, O.Gubayeva, T.Rahmatov, J.Latipov, N.Oxunov, Q.Xurramov, L.Karimova, S.Nayimov, Z.Do'simov, X.Xolmo'minov, B.O'rinboyev, A.Muhammadjonov, A.Otajonova, T.Enazarov, S.Ahmedov, Sh.Temirov, N.Adizova, I.Xolmuratov, N.Ganiyev, U.Turdimurodov⁴ va boshqa olimlarning xizmatlari katta bo'ldi.

⁴ Begmatov Э. Ўзбек тили антропонимикаси: фил. фан. ном.. дисс. – Тошкент, 1965.; Нафасов Т. Қашқадарё область топонимлари: фил. фан. ном.. дисс. – Тошкент, 1968.; Кадырова Ш. М. Микротопонимы Ташкента: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1970; Хужамбердиев Я. Историко-этимологическое исследование топонимики Сурхандарьинской области Узбекской ССР: Автореф.дисс. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 1973; Губаева О.С. Этнонимы в топонимии Ферганской долины: Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – М., 1973; Рахматов Т. Топонимия города Самарканда и его окрестностей: Автореф.дисс.... канд.филол.наук. – М., 1973; Латипов Ж. Маргилон шаҳри ва унинг атрофи топонимияси: фил.фан.ном. дисс. – Тошкент, 1975; Охун Н. Топонимия Кокандской группы районов: Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Ташкент, 1978; Хуррамов К. Узбекские географические термины, обозначающие рельеф Южного Узбекистана: Автореф.дисс....канд.филол.наук. – Ташкент, 1981; Каримова Л. Ўзбек тилида топонимларнинг ўрганилиши. – Тошкент: Фан, 1982; Найимов С.Н. Ойконимы Бухарской области: автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 1984; Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985; Холмўминов Х. Бойсун район микротопонимларининг лексик-семантик хусусиятлари. Ўзбек тилининг лексик-грамматик хусусиятлари. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 1988. – Б.73-75; Ўринбоев Б. Жиззах вилояти топонимлари. – Жиззах, 1992; Ўринбоев Б.Самарқанд вилояти топонимларининг изоҳи. – Самарқанд, 1997; Муҳаммаджонов А. Жой номлари – тарихий манбадир. Илмий-амалий конференция докладлари тезислари. – Тошкент, 1994. –Б.15-17; Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари. – Тошкент: Фан, 1997; Эназаров Т.Д. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари. Фил.фан.док.дисс.автореф. – Тошкент, 2006; Ахмедов С.Н. Жиззах вилояти топонимларининг семантик хусусиятлари. Фил.фан.фал.док.(PhD) дисс.автореф. – Самарқанд, 2019; Темиров Ш.А. Самарқанд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи. Фил.фан.фал.док.(PhD) дисс.автореф. – Самарқанд, 2019; Адизова Н. Бухоро тумани микротопонимларининг лексик-семантик тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.автореф. – Бухоро, 2021; Холмуратов И.О. Жанубий Қорақалпоғистон ойконимларининг лисоний тадқиқи. Фил.фан.фал.док.(PhD) дисс.автореф. – Бухоро, 2020. – 20 б; Ганиев Н.У. Навоий вилояти Қизилтепа тумани топонимларининг этимологик ва когнитив тадқиқи. Фил.фан.фал.док.(PhD) дисс.автореф. – Жиззах, 2022; Turdimurodov U.S. Xatirchi tumani toponimlarining leksik-grammatik va etimologik tadqiqi. Fil.fan.fal.dok.(PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2023.

Qizilqum hududi mikrotoponimiyasi etnomuloqot hududi hisoblanib, bu hududda etnoslar orasidagi aloqalar birmuncha qizg'in kechgan bo'lib, etnik xilma-xillikni tashkil etadi, odatda, bunday muloqot maydoni "etnomuloqot maydoni" kabi iboralar bilan ifodalanadi. Mazkur masala yuzasidan jahon nomshunosligi (onomastikasi)da e'tiborli va teran ilmiy ildizli tadqiqotlar yaratilgan⁵.

1.1.8. Oykonimlarning yaralishida tabiiy-geografik belgi-xususiyatlar

O'zbekiston Respublikasi Qizilqum hududining umumturkiy toponimlari leksik-semantik jihatdan, asosan, quyidagi yirik uchta sinfdan tasniflanadi: oykonimlar – aholi punktlari nomlari, gidronimlar – daryolar va suv obyektlarining nomlari, oronimlar – atrofdagi relyef nomlari. Bobning ushbu qismida o'rganilayotgan hududdagi toponimlarning boshqa guruhlarini ham ko'rib chiqamiz.

Toponimik tizimlarni o'rganish jarayonida ayrim tadqiqotchilar tadqiqot obyekti sifatida faqat bitta turdagi geografik nomlarni oladilar. Bu yerda professor A.V.Superanskaya: "...shunday qilib, tor toponimik sektorni shu tarzda ajratib ko'rsatish orqali biz doimiy ravishda "jonlidan jonsizga o'tamiz", chunki har xil turdagi toponimlar o'zaro hamda atoqli otlarning boshqa sinflari uzviy bog'liq",– deya ta'kidlaydi⁶.

Qizilqum hududi umumturkiy toponimlarining leksik-semantik tahlili turli xildagi geografik nomlarning o'zaro bog'liqligi, toponim yaratish usullarining birligi, barcha turlar uchun ma'lum toponim yaratuvchi elementlarning o'ziga xosligi to'g'risidagi fikrni to'liq tasdiqlaydi. Tadqiq etilgan hududda aholi punktlarining paydo bo'lishi qadim davrlardan suv havzalarining mavjudligi bilan bog'liq hisoblanadi. Qadimiy sug'orish tizimlarining mavjudligi ushbu hududda qadimdan aholi punktlari

⁵Попов А.И. Об историческом методе в топонимических исследованиях // Развитие методов топонимических исследований. Москва: Наука, 1970. – С. 25-38; Поспелов Е. М. Математико-статистические методы в топонимике // Вопросы географии. Сборник 70. Москва: Наука, 1966. – С. 38-46; Поспелов Е. М. Топонимика в школьной географии. Москва: Просвещение, 1981. – С. 142; Поспелов Е.М. Школьный топонимический словарь. Москва, 1988. – С. 224.; Принципы топонимики. Москва: Наука, 1964. – С. 151; Проблемы этимологии тюркских языков. – Алма-Ата, Гылым, 1990. – С. 400; Проблемы Азербайджанской ономастики. II. – Баку, 1988. – С. 308 с.

⁶ Суперанская А.В. Групповые обозначения людей в лексической системе языка // Имя нарицательное и собственное. – М., 1978. – С. 75.

bo'lganligidan dalolat beradi. Buni Sarmishsoydagi va boshqa hududlardagi arxeologik tadqiqotlar ham tasdiqlaydi.

Qizilqum hududidagi hozirgi zamon joy nomlarining asosiy qismi etimologik muvofiqlikka ega, ya'ni ular etimologik jihatdan shaffof, nominativ nuqtayi nazardan tadqiq-tahlil jarayoni o'ziga xos murakkablikni talab qilmaydi. Ammo hududda kelib chiqish tarixi yo'qolgan va semantikasi noaniq bo'lgan qadimgi toponimlarning yirik qatlami mavjud. Bu qatlam etimologik va semantik tahlil jihatidan alohida e'tiborni talab qiladi. Bunday toponimlarga quyidagi nomlarni kiritish mumkin: Bo'kantov, Quljuqtov, Yassikeshu // Yassikechuv, Konimex (Kenimex) va boshqalar.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan Qizilqum hududi toponimlarining kelib chiqishi asosan turkiy bo'lsa-da, shuningdek, kam miqdorda kelib chiqishi fors-tojik tiliga oid oykonimlar ham uchrab turadi.

Tarkibiy jihatdan Qizilqum hududi toponimlari etnonim va antroponimlarga asoslanadi. Etnotoponimlar (etnooykonimlar) va antropotoponimlar shu tarzda paydo bo'ladi. Bu tabiiy hol, chunki turkiy toponimikada miqdor jihatdan asosiy o'rinni etnotoponimlar egallab, antropotoponimlar esa qadim davrda paydo bo'lgan. Bundan tashqari o'rganilayotgan hudud oykonimlari orasida apellyativ leksikadan vujudga kelgan shakllanishlar ham uchraydi. Bular, asosan, rus yoki internatsional so'zlardan kelib chiqqan toponimlardir. Masalan, Rudniy, Kommunizm, Avangard va h.k. V.A.Juchkevich ta'rifiga ko'ra, bu jarayon geografik nomning abstraksiyasi, individuallasuvi va umumlashtirilishi tufayli kuzatiladi⁷.

Elatlar tomonidan ma'lum bir hududga egalik qilish ba'zi geografik nomlarda o'z aksini topgan. Demak, etnik nomlar muayyan joy, aholi punktining geografik-fizik obyektining ifodasi sifatida qaralishi kerak. Toponimist olim E.M.Pospelov fikricha, ko'chmanchi chorvachilikda qishki va yozgi yaylovlar ma'lum bir urug' nomiga berilgan, keyinchalik o'sha urug'ning nomi o'sha joylar nomiga aylangan. Masalan, Qizilqumdagi Sarbastepa, Qorasaqal qudug'i, Shobanqazg'an qudug'i, Qoratoqa qudug'i, Ko'nek qudug'i, Ayuteren, Navoiy shahri atrofida Nayman, Jaloyir, Uyrot,

⁷ Жучкевич В.А. Общая топонимика, – Минск: «Вышэйш. школа», 1968., – 432 с.

Do‘rman, Arg‘in, Muyten qishloqlarini keltirish mumkin. Muyten “Aqsholpan” nomli qoraqalpoq urug‘idir. Navoiy-Toshkent yo‘nalishida, Mirbozordan o‘tib, “Qorasiraq” degan joy bor. “Qorasiraq” Mang‘itning Qoraxitoydan keyingi 2-farzandi. Jizzaxda “Qiriq” degan atama, Xitoyning 12-farzandi. Samarqanddan o‘taverishda “Toqsaba” degan joy bo‘lib, bu qoraqalpoq qipchoqlarida o‘ziga xos mavqeni ifoda efgan. Qiyq urug‘ining turar joylari Azinek, Qamisli, Murunquduq, Manamjan, Auilbek, Amantay-Sugurali, Jilman Achchi, Talqanbay qudug‘i, Ko‘nekbay qudug‘i edi. Qishki qishlovlari Aristantovning quyoshli qiyaliklari Saribetda, Qiyq-Qaltan Balqi Qalmenbay Besachchi bilan Azinekdagi yashagan”⁸.

Qorasiraq – etnooykonim (Juvonsiraq va Dusvansiraq ham uchraydi). Bir ko‘rinishda Qorasiraq etnotoponimi qora va sirak komponentlaridan iborat. U o‘zbek tilining ayrim shevalarida, xususan, qipchoq hamda boshqa turkiy tillarida “oyoq qismi, boldir”ni bildiradi.

Juvonsiroq etnotoponimini ko‘rib chiqib, S.Qorayev: – qishloqlar va etnonim, asl ma‘nosi “semiz boldir”⁹. Xuddi shu ma‘noda S.Qorayev Qopasiyroq, ya‘ni “qora boldir” etnonimini beradi deb izohlaydi¹⁰.

Siroq so‘zining lug‘aviy ma‘nosiga kelsak, L.S.Tolstov turli tizimli tillarda ko‘plikni (sak, derbik, mushk, qipchoq) bildiruvchi *-oq* affiksini *sir* asosidan juda to‘g‘ri ajratadi¹¹. Afsuski, muallif *sir* asosining leksik ma‘nosiga to‘xtalib o‘tmaydi. A.N.Bershtam “xitoy manbalarida tilga olingan danlar, shubhasiz, xumlar bo‘lib, ularning o‘rtacha hajmi haqiqatdan ham 100 kg gacha yetadi. Bu katta idishlar antik mualliflarning e‘tiborini tortgan. Aslida ular mahalliy “sir” nomini keltiradi”, – degan fikri e‘tiborga loyiq¹². Bu fakt qaysidir ma‘noda siroq so‘zidagi *sir* asosi “*suv*”, “*suv manbayi, idish*” ma‘nosida ekanligi taxmin qilishga asos bo‘ladi, buni *-ir* birikmasi isbotlashi mumkin. Bunda siroq^ “voha odamlari”, “qirg‘oq bo‘yi odamlari”, “suv

⁸ Мингбаев Н. Ж. Мирзачўл гидронимлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1987. №2. – Б 50-54

⁹ Qoraev S. Ko‘rsatilgan asar. – B.56.

¹⁰ Qoraev S. Ko‘rsatilgan asar.– B.56.

¹¹ Qarang: Толстова Л.С. Отголоски ранних этапов этногенеза народов Средней Азии в ее исторической ономастике // Ономастика Средней Азии. – М., 1978. – С.9-10.

¹² Берншам А.Н. Древняя Фергана. – Ташкент, 1951. – С.11.

qabilalari” degan ma’noni beradi. Shunga o’xshash nomlar O’rta Osiyoning tarixiy onomastikasi bilan ifodalangan. Masalan, Apasiakilar – “suv saklari”. Shuningdek, Siroq etnonimi Sirdaryo nomi bilan bog’liqdir. Bu holatda sir//syr//shyr so’zining tovush taqlidiy kelib chiqishining varianti bor.

O’zbekiston hududida kelib chiqishi etnik bo’lgan oykonimlar juda ko’p. Masalan, S.Qorayevning toponimik lug’atida berilgan 1250 ta nomdan 452 tasi¹³, Y.Koychubayevning¹⁴ etnonimlar lug’atida sezilarli darajada kam berilgan 2093 ta etnonimlardan atiga 52 tasi qayd etilgan. Bunday hodisani zamonaviy O’zbekiston hududida ko’chmanchi qabilalarning bir joyga o’rnashuvining intensivroq o’tishi bilan izohlash mumkin. Qozog’iston hududida esa bunday jarayon ko’chmanchi hayot tarzi saqlanishi sababli sekinlashgan edi.

Bu hodisa alohida e’tiborga loyiq. Ma’lumki, etnik nomlar, ayniqsa, ko’chmanchi xalqlarda rivojlangan. Odatda, ma’lum bir urug’ va qabilaga tegishli bo’lgan yaylovlar, o’tloqlar, yerlar, qishki kulbalar, yozgi uylar aniq chegaralarga ega bo’lib, egalarining etnik nomi bilan atalgan. Bu to’g’risida A.V.Superanskaya: “Tirikchilik vositalariga ega bo’lishning o’ziga xos xususiyatlari ko’chmanchi qabilaning o’z hududini puxta bilishiga yordam beradi, kichik traktlargacha va rivojlangan toponimik tizimga ega bo’lib, unda barcha tabiiy nomlar ifodalanadi, lekin oykonimlar (aholi punktlar nomlari), deyarli, uchramaydi”¹⁵.

Ammo u yoki bu siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sabablarga ko’ra, ma’lum bir tarixiy davrda o’zbek ko’chmanchi qabilalar ajdodlari asta-sekin dehqonchilik va chorvachilikka, so’ngra xo’jalik yuritishning dehqonchilik usuliga o’tadilar. Dehqonchilikka to’liq o’tishi bilan sobiq qishloqlar, deyarli, yirik aholi punktlariga aylanadi, ularning ortidan esa qishloq aholisining etnik nomlari, ko’pincha, saqlanib qoladi. Aynan shu sababdan boshqa Markaziy Osiyo respublikalariga qaraganda O’zbekistonda etnooykonimlar ko’proq.

¹³ Qorayev S. Ko’rsatilgan asar. – B. 320.

¹⁴ Койчубаев Е. Краткий толковый словарь топонимов Казахстана / отв. ред. А.Т. Кайдаров. Алма-Ата : изд-во Наука, 1974. – С.200.

¹⁵ Суперанская А.В. Ko’rsatilgan asar. – М., 1978. – С.74.

Etnooykonimlar. Etnooykonimlar maxsus leksik qatlam bo'lib, o'z tarkibida eng qadimgi etnik nomlarni saqlab qolgan va shuning uchun bu leksik qatlamni o'rganish alohida qiziqish uyg'otadi.

Elatlarning biron-bir joyda yashashi to'g'risida geografik nomlardan biz ma'lumot olamiz. Shuning uchun etnik nomlar ba'zi bir joylarning geografik, fizik obyektining joy nomi ko'rinishi sifatida qarashimiz kerak. Toponimist olim E.M.Pospelovning bu masala bo'yicha fikriga ko'ra, elat nomi ko'chmanchi xalqlarning qishki va yozgi chorvachiligi bilan bog'liq. Keyinchalik qishloqlarga ham shunday nom berishgan. Jumladan, Qizilqum mintaqasidagi Qoratoqa qudug'i, Ko'nek quduq, Ayuteren nomlari hamda Navoiy shahri atrofidagi Nayman, Jaloyir, Uyrot, Arg'in, Muyten kabi qishloq va ovullarning nomlari bunga misol bo'ladi. Shu qatorda Aristantovning kun chiqish tomonidagi Sirimbet qochgan, Toyloqti, Besachchy deb atalgan ovullardan Azinekda Qiyq-Qaltan Balqi Qalmanbay urug'lari yashagan. Bu misollar orqali shu narsa ma'lum bo'ladiki, patronimlar, genonimlar qishloqlar nomiga aylanib etnotoponimlar hosil bo'lgan. Quyida xuddi shunday Qizilqum hududida uchraydigan bir necha etnotoponimlarni keltirib o'tamiz:

Oyko 'nek ovuli. Pastlikda qazilgan quduq, Ko'nek urug'ining nomi bilan atalib, shu urug' nomiga qo'yilgan. Bu quduq Uzunquduq ovuliga boradigan tosh yo'l bilan yurganda, Navoiy temiryo'lini kesib o'tadigan 8 km narida joylashgan qishloq nomi.

Oyko 'nek ovuli – qaratqich-qaralmish, aniqlovchili birikma, tobelanish moslashuv: to'liq moslashuv, ot+ot, vositasi – formal-grammatik vosita: belgisiz kelishik va belgili egalik, otli birikma, sodda birikma.

Teleu ovuli. Konimexdan Sho'rko'lga boradigan yo'lning o'ng tarafida joylashgan ovul. Bu qishloqda Teleu urug'ining avlodlari yashaydi.

Teleu ovuli – qaratqich-qaralmish, aniqlovchili birikma, tobelanish moslashuv: to'liq moslashuv, ot+ot, vositasi – formal-grammatik vosita: belgisiz kelishik va belgili egalik, otli birikma, sodda birikma.

Keneges ovuli. Konimex tumanidan kun botishdagi Sho'rko'lga boradigan yo'ning 8-chaqirimida joylashgan qishloq. Navoiy-Uchquduq temiryo'lining Konimex bekatidan sharq tomonidagi ovul. Keneges urug'i Qoraqalpoq elatining biri hisoblanadi.

Keneges ovuli – qaratqich-qaralmish, aniqlovchili birikma, tobelanish moslashuv: to'liq moslashuv, ot+ot, vositasi – formal-grammatik vosita: belgisiz kelishik va belgili egalik, otli birikma, sodda birikma.

Sho'rko'l ovuli. Sho'rko'l avval Qatag'on ovuli deb atalgan. Bu ovul Konimexdan yigirma besh chaqirim, kunbotar tarafda joylashgan. Qatag'onlar O'rta Osiyoda makon etgan qadimgi elatlarning biri. Rashididdinning "Jome at-tavorix" kitobida Qatag'onlar "Xatakin" deb atalgan. Ular Alungoaning katta o'g'li Bugun Xatakindan tarqalgan. Qatag'onlar Afg'oniston, Tojikiston va O'zbekiston Respublikasining janubida Surxondaryoda ham yashaydi.

Sho'rko'l – ushbu toponim *sho'r+ko'l* shaklida sifat+ot so'zlarining birikmasidan yasalgan bo'lib, *sho'r* – tobe so'z, *ko'l* – hokim so'z, atributiv munosabat: aniqlovchi+aniqlanmish – sifatlovchi+sifatlanmish, aniqlovchili birikma, tobelanish, bitishuv, sifat+ot, pozitsion vosita, otli birikma.

Konimex tumanida Qatag'onlar bilan birga Arg'in, Qipchoq, Jaloyir, Nayman, Qangli elatlari yashaydi. Qizilqumning Navoiy viloyatida etnonimlardan paydo bo'lgan qishloq nomlari qatorida oronimlardan, gidronimlardan va yana boshqa nomlardan paydo bo'lgan qishloq nomlari ko'p uchraydi. Masalan, Sarbastepa, Qorasaqal, Shobanqazg'an qudug'i, Qora to'qa qudug'i, Ko'nek quduq, Ushquduq, Keregetov, O'kiztov, Ko'kcha va yana boshqalar.

Ilmiy izlanish borasida mintaqada kishi ismlaridan paydo bo'lgan bir guruh qishloq nomlari ma'lum bo'ldi. Onomastikada bu nomlar antropotoponimlar termini bilan belgilanadi. Biz Qulquduqning atrofini egallagan Qiyat urug'ining Dauylbay ismli, elga hurmatli, boy kishining avlodlari ismlariga bog'liq holda paydo bo'lgan antropotoponimlarni aniqladik. Bu Dauylbayning o'g'illari Qora botir, Qora bura degan ismlardan paydo bo'lgan antropotoponimlardir. Ular ham ota izidan hurmatga ega bo'lgan, shuning uchun Dauylbay shobdar, Qazan at, Sauytbay Alimbet balqi

laqablariga ega bo'lgan. Dauylbayning Qora botir, Qora bura degan o'g'illari ularga qarshi bo'lgan turkmanlar va qo'qonlik qo'ng'irotlar bosqinchiligiga qarshi kurashgan. Shu bilan birga, Rossiya va Buxoro xonligi orasidagi savdo-sotiq shartnomasini belgilab, karvonlarni tunovchi bosqinchilardan himoya qilgan. Bu odamlarning nomlari antropotoponim sifatida saqlangan. Masalan, "Qora botirning yeri" degan hujjatga ega bo'lgan. Qora botirning avlodi Abiltay xo'ja Qizilqumning janubida Buzaubay, Musirep, Qulanqaq, Uzunquduq, To'rtko'l degan joylarni egallab, Amudaryo yoqasida tirikchilik qilgan.

Qizilqum hududida uchraydigan antropotoponimlar: Baymurot ovuli, Utamurod ovuli, Qulynbet ovuli, O'razjan ovuli, Sugurali ovuli, Taspən ovuli, Shontibay ovuli, Eltoy ovuli shular jumlasiga kiradi. Demak, izlanishlar borasida mazkur hududda antropotoponimlar // antropooykonimlarning mavjudligi aniqlandi: Baymurot ovuli, Utamurod ovuli, Qulynbet ovuli, O'razjan ovuli, Sugurali ovuli, Taspən ovuli, Shontibay ovuli, Eltoy ovuli, Fazilbek ovuli va hokazolar. Bu yerda bir masalaga antropotoponimlar va etnotoponimlarning bir-biriga yaqinlik sifatiga e'tibor berish kerak.

Etnotoponimlarga e'tibor bersak, Zarafshon shahriga kiraverishda Shumekey Qiyq-Qaltang urug'idan bo'lgan Sugurali botir ziyoratgohi bor. Bu nom etnotoponim va agitoponimlar qatoriga kiradi.

Botirlarga xalq orasida alohida e'tibor bo'lgan. Jumladan, Qizilqum hududida Batiro'y degan joy nomi bor. Xalq og'zaki afsonalarida ismi noma'lum botirning qabriga otliqlar otlaridan tushib, Qur'on tilovat qilib piyoda o'tishgan. Natijada toponim antropotoponim sifatiga ega bo'lgan.

Fitotoponimlar. Fitonim (yunoncha fitos – o'simlik) – har qanday o'simlikning atoqli oti: *Yolg'iztol, Do'lanaota, Yakkatut*¹⁶. Qizilqum hududi toponimik tizimining bo'laklaridan biri fitotoponim bo'lib hisoblanadi. Bu nomlar hududning florasi bilan chambarchas bog'liq. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, Qizilqumda 200 dan 500 gacha

¹⁶ Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2005. – 220 б.

o'simliklar o'sar ekan. Shu sababli fitotoponimlarning turli xil bo'lishi shundan dalolat beradi. Biologik jihatdan bu yerda o'sadigan o'simliklar efemerlar va efemeroitlar deb nomlanadi.

Qizilqum hududida vaqti-vaqti bilan tabiat o'zgarib turgan. Masalan, Qizilqumda suvli joylar ko'p bo'lgan. Shu sababli hudud kengliklarida katta to'qaylar bo'lgan bo'lib, bu to'g'risida joy nomlari dalolat beradi. Masalan, *Jing'ildi* degan joyning *Dobal* degan yerida *Qora saksovul* o'sgan. Shuning uchun bu joyni *Saksavul o'rmon* deb atashgan. Shuningdek, suv bor joyda qamishlar o'sgan. Shuning uchun, *Qamishli* degan joy ham bor. Yana shuni aytish mumkinki, Uzunquduqdan 30 chaqirim oraliqda *Shoban tog'ay* degan qalin to'qay, *Madeli to'qay*, *Qaldibek to'qay*, *Qora tuqanin to'qayi* degan joylar saqlangan.

Jing'ildi nomi cho'l joylarda o'sadigan *Jing'il* o'simligiga bog'liq holda paydo bo'lgan joy nomi. *Jing'ildi* qishlog'i 1925-yildan boshlab Konimex tumaniga qaragan. 1970-yildan boshlab mazkur hudud Romitonga qaragan. Bugungi kunda Navoiy viloyatining Konimex tumaniga qarashli *Jing'ildi* qishlog'i Quljiq tog'ning kunbotar tomonida joylashgan. *Jing'ildi* bilan Uzunquduqning orasida Qaroq ota buloqli ziyoratgoh bor. Shu qatorda To'sbuloqdan Madaniyat hududiga boradigan yo'lning chap tomonida *Jing'ildi soy* va *Jing'ildi uran koni* xaritaga tushgan.

Jing'ildi, ya'ni *jing'il + li* – o'simlik nomini bildiruvchi so'zga -li sifat yasovchi qo'shimcha birikishi natijasida joyga nisbatan xususiyatni ifodalovchi toponim hosil qilingan, hudud dialektidan kelib chiqib -li yasovchi qoshimcha -di tarzida talaffuz etilgan, natijada *jing'il + li >+di // Jing'ildi* nomi hosil bo'lgan hamda *Jing'ildi* toponimi vujudga kelgan.

Shengeldi – bu joy nomi Qizilqumning qum, balchiq, tuproqli joylarida, ba'zan mayda toshli joylarida ham o'sadigan o'simlik nomi bilan bog'liq. Changalning Oq changal degan turi ham bor. Changalli ovuli Qaroq ota temiryo'l bekatining janubiy kunbotar tomonida 8-10 chaqirim joyda joylashgan.

Ajiriqli ovuli sho‘ro davrida shu joyda Balimanov nomli sovxoz bo‘lgan. Zarafshon – Tomdi yo‘nalishida joylashgan ovul. Geografik jihatdan Oqtovning etagida joylashgan.

Gujimditov Zarafshondan Besapanga qarab tushgan yo‘ldan 20 chaqirim chap tomonda joylashgan tog‘. *Gujimditov* nomi Gujim degan qora yog‘och (qayrag‘och)ning nomi bilan bog‘liq, ya‘ni gujum + li – o‘simlik nomini bildiruvchi so‘zga -li sifat yasovchi qo‘shimcha birikishi natijasida joyga nisbatan xususiyatni ifodalovchi toponim hosil qilingan, hudud dialektidan kelib chiqib -li yasovchi qoshimcha -di tarzida talaffuz etilgan, natijada gujum + li >+di // gujumdi nomi hosil bo‘lgan, joyga nisbatan tog‘>tov (bunda ham fonetik o‘zgarish yuz bergan: g‘>v) aniqlagichi asosida Gujumditov toponimi vujudga kelgan.

Bosh Gujimditov Quljiqtovning sharq tomonidagi Og‘itma ko‘lining kunbotar tomonida turgan tog‘ning nomi. Bu nom ham Qora yog‘och nomidan paydo bo‘lgan.

O‘rta Osiyoda **tol** daraxti keng tarqalgan daraxt turi. Shu daraxtning nomiga bog‘liq Qizilqumda bir necha ovul uchraydi, masalan, Toldi quduq. Bu joy Qizil quduq va Urazjon qudug‘i oralig‘ida joylashgan. Yana bir Toldi quduq Navoiy-Uchquduq yo‘lining yoqasida Ko‘kcha ovuliga 7-8 chaqirim oraliqda joylashgan. Shu qatorda Toldi quduq degan joy Yangiqazg‘on qudug‘idan Qo‘shquduqqa qaragan yo‘lining chap tomonida joylashgan. Bu qatorda yana bir quduq bor.

O‘rta Osiyoda **terak** daraxti ham keng tarqalgan. Shuning uchun bu daraxt ko‘p o‘sgan hududlarda Terak nomidan paydo bo‘lgan bir necha ovullar bor: Keskanterak ovuli – bu qishloq Konimexning sharqiy tomonida 20 chaqirim masofada joylashgan. Hozirgi Beshrabortning o‘rta yo‘lida Keskanterak ovulida dunyoga mashhur vinoning sorti ham Keskanterak deb ataladi. Vино zavodi ham shu nom bilan ataladi. Bu vino Yevropaga eksport qilinadi.

Zootoponimlar. Zoonim (yunoncha zoo - hayvon) – atoqli otning bir turi, hayvonlarning, jumladan, uy hayvoni, hayvonot bog‘idagi hayvon, sirkda “ishlaydigan” hayvon, tajriba ostidagi hayvon yoki yovvoyi hayvonning atoqli oti, nomi, laqabi: 4-xalifa Hazrat Alining afsonaviy qanotli Duldul oti, pahlavon Alpomishning Boychibor

oti, Jiyrangashqa (ot), Bo‘ribosar (it). Zoonimlar joy nomlariga ham aylanishi mumkin: Duldul, Duldulatlagan degan qishloqlar, Buzg‘alaxona, Takasekirdi va boshqa joy nomlari uchraydi. Bular zootoponimlardir¹⁷.

Qizilqum hududining toponimiyasida zootoponimlar ham ko‘p uchraydi. Ularning kelib chiqish tarkibini ikki guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin: 1) yovvoyi hayvonlar nomlari bilan atalgan zootoponimlar (Qasqirtov, Tulkitov, Jilandi, Qulanqoq, Bo‘kenay, Qora qarg‘a dovoni); 2) uy hayvonlari nomlari bilan atalgan zootoponimlar (O‘kiztov, To‘qtitov, Ot quduq, Oqbaytal, Oqbo‘ta, Tuya ovul).

Yovvoyi hayvonlar nomi bilan atalgan zootoponimlarga quyidagilarni keltirish mumkin:

Jylandi Jylandi Uchquduq shahridagi “GMZ-3” zavodiga qarama-qarshi joyda joylashgan. Bu joyning tarixidan shu narsa ma’lumki, bir vaqtlar shu yerdan ko‘chmanchi xalqlar Tog‘ eli boy degan joyda to‘xtaganda shu joydan Jylandi quduq qazishadi. Quduq qazilib suv chiqqan paytda u yerdan ilon chiqib, shu sabab shunday deb atashgan.

Qoyan tuley ovuli (Qoyan tülei auyly) Qoyan tuley ovuli Oqbaytalning shimol tomonida Ko‘kayaz qishlog‘iga boradigan yo‘lning yoqasida joylashgan. Bu joyda yovvoyi quyonlar ko‘pligidan shu nom berilgan.

Qora qarg‘a dovoni (Qara qarg‘a qyrqasy) Navoiy-Nurota tosh yo‘lining Qoratog‘dan o‘tadigan dovoni (pereval). Rivoyatlarga qaraganda qora qarg‘a ko‘p bo‘lganligi sababli shu nom berilgan. Ikkinchi rivoyatga ko‘ra Qoraqarg‘a ismli yigit qaroqchilarning ayg‘oqchisi bo‘lgani uchun shu laqab qo‘yilgan. U odam tog‘ning baland joyidan karvonlarni kuzatib, qaroqchilarga ma’lumot yetkazib turgan.

Qasqirtov (Qasqyr tau) Uchquduq shahrining shimoliy sharq tomonida joylashgan. Tog‘ning chotqollarida bo‘rilarning ko‘pligidan tog‘ni Qasqir tog‘i deb atashgan.

¹⁷ Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2005. – 213 б.

Tulkitov (Tülki tau) Uchquduq shahrining sharqida joylashgan. Uning janubiy tomonida Qaqqatas tog‘i bor. Bu joylarda tulkilar ko‘p bo‘lganligi uchun Tulki tog‘ deb atashgan.

Qulanqoq (Qūlanqaaq) Cho‘lda qulonlar ko‘p bo‘lib, ular chanqaganda qor va yomg‘irdan yig‘ilgan ko‘lmak suvlarni ichadi. Qulanqoq nomi shu ikki so‘zdan paydo bo‘lgan. Qulanqoq Uzunquduqning kunbotar tomonida joylashgan. Qulanqoqda shu nom bilan ataluvchi quduq va yaqin joyda Mo‘min ota ziyoratgohi joylashgan.

Bo‘kenay ovuli Navoiy va Zarafshon tosh yo‘lining bo‘yida, Zafaroboddan 18 km chap tomonda joylashgan. Bu ovul o‘z vaqtida G‘ijduvon tumani Ko‘kcha shirkatiga qarashli bo‘lgan.

Uy hayvonlariga bog‘liq zootoponimlar quyidagilar:

Tuya ovul Navoiy viloyatidagi Pireke va Paxtakor ovullarining janubidagi ovul. Sho‘ro davrida shu joyda tuya fermasi tuzilgan va bu ovul Tuya ovul deb atalgan.

Ot quduq R-57 avtomobil tosh yo‘lining yoqasida Uchtepa – Beshquduq oralig‘ida joylashgan. Sho‘ro davrida bu joyda ot fermasi bo‘lgan, shuning uchun Otquduq nomi berilgan.

O‘kiztov ovuli O‘kiztov tog‘ining etagida joylashgan. Oxirgi vaqtlarda bu tog‘ni Keregetov deb atay boshlashdi. Shu joyda 1973-yili Lenin nomidagi sovxoz va qishloq soveti bo‘lgan (hoz. Keregetov MFI). Fizik-geografik jihatdan O‘kiztov katta tog‘ bo‘lib, Keregetov shu tog‘ning bir bo‘lagi hisoblanadi. O‘kiztovning qo‘ynida O‘kizquduq degan joy bor. Bu joyning paydo bo‘lishiga bog‘liq xalq og‘zida shunday afsona bor. Hikoyada aytilishicha, ko‘chib yurgan bir urug‘ odamlari ko‘p qiyinchilikka duch keladi. Tog‘ning etagiga kelgan vaqtda bir oqsoqol ho‘kizlarni qo‘yib yuboringlar, ular o‘zi suvni topadilar, – deydi. Ho‘kizlar qo‘yib yuborilishi bilan hozirgi O‘kizquduq turgan joyga borib, tuyoqlari bilan yerni tirmalay boshlaydi, shunda oqsoqol shu yerni qazishni buyuradi. Yigitlar qayla bilan qazishni boshlaydi va shu yerdan suv otilib chiqq boshlaydi. Natijada quduq nomi O‘kizquduq va tog‘ nomi ham O‘kiz (Ho‘kiz) nomi bilan ataladi. Vaqt o‘tishi bilan qishloq ham shu nom bilan ataladi.

Yuqoridagi zootoponimlar nomlaridan tashqari yana Buzauboy ovuli degan joy nomi ham bor. Bu ovulning nomi temiryo‘l bekatiga berilgan. Uchquduq mis konining temiryo‘l yoqasida joylashgan. Bu ovulning nomi uy jonivori yoki odam ismini anglatishi hozirda noma‘lumligicha qolmoqda.

Ekklezionimlar Qizilqum hududi toponimiyasida yig‘ilgan toponimik materiallarning ichida ekklezionim, agionim va nekronimlar o‘z o‘rnini topgan va dissertatsiyada bu nomlar o‘rganilgan. Ekklezionimga asoslangan tarixiy nomlarning qaytish davri XX asrning 90-yillaridan boshlandi. Bu davrda diniy e‘tiqod masalalari, uning lug‘at boyligi bilan bog‘liq bo‘lgan, semantikasida obyekt haqidagi ekstralingvistik axborot kodlangan toponimlar borasida aytib o‘tish mumkin. Ekklezionimlarga e‘tibor bersak, bu termin biror-bir dinga bog‘liq xosiyatli va shu joyga odamlar ziyorat qiladigan joy deb belgilanadi.

Turkiy xalqlar mifologiyasida Cho‘pon ota, Qo‘chqor ota, Zangi ota, Qambar ota, Oysilqara deb nomlangan joylar qo‘yning piri, qora mol piri, otning piri, tuyaning piri deb topilgan. Odamlar shu joyda mol so‘yib qurbonlik qiladilar. Bu nomlar ekklezionimlar hisoblanadi. Demak, xalq biror bir kishini avliyo deb, u kishining qabrini ziyorat qilsa, ushbu joyni ham ekklezionim qatoriga kiritsak bo‘ladi. Bunga misol qilib islom dinida Arslonbob, Xo‘ja Ahmad Yassaviy, Imom Buxoriy, Naqshbandiy, Nurota kabi tarixiy shaxslar va ularning qabrlari bilan bog‘liq ziyoratgohlarni keltirish mumkin. Tadqiqot davomida Qizilqum hududida bir nechta ekklezionimlar mavjudligi aniqlandi. Ular Nurota, Qaroq ota, Azanur avliyo, Erler ota, Beder ota, Qanarbay ota, Mo‘min ota, Qilish ota va boshqalar. Bu nomlarning paydo bo‘lishi yuqorida aytilgan avliyolarning xosiyatiga bog‘liq qo‘yilgan. Bu fikrimizning dalili sifatida xalq og‘zaki ijodida saqlangan afsonalarni e‘tirof etish mumkin. Biz buni quyidagicha keltiramiz:

Azanur otaning ziyoratgohi Og‘itma suvi shimolida Qoljiq tog‘ning baland cho‘qqisida joylashgan. Azanur so‘zi ismi fors tilida Xazaming, ya‘ni “ming nur” degan ma‘noni bildiradi. Jamol ota, Abduraim xo‘ja kitoblaridan olingan ma‘lumotlarga qaraganda, Azanur otaning asl ismi Malik Qojdar Xaris o‘g‘li bo‘lgan ekan. Bu

ma'lumotni tarixchi Domat Ma'mirov ham tasdiqlaydi¹⁸. 1981-yili Og'itma ovulida yashaydigan Jamol ota Azanur otaning boshiga qabr toshini o'rnatadi. Azanur ziyoratgohidan 6 chaqirim narida Sho'rbuloq degan buloq bor. Alloh karomati bilan buloqdan chiqqan suv shirin ekan. U joylar to'g'risida har xil afsonalar bor.

Nurota xalq orasida Nur ota yirik avliyo bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Shu avliyoning nomi bilan tog'ning nomi ham atalgan. Avliyoning karomati bilan buloq chiqqan katta qoyada odamning besh panja izi bor. Shuning uchun bu joy Besh panja deb ataladi. Yana bir karomati shuki, buloqdan tungi paytda yorug' nur osmonga ko'tarilar ekan.

Tarixchi Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kitobida Nur deb ataladigan tuman bor. Bu joyda azaldan jamoat masjidi bo'lgan. Buxoro xalqi har yili shu joyni ziyorat qilishadi, dindorlar bu ziyoratni yuqori baholagan. Nurga ziyoratga borganning savobini hajga borgan bilan tenglashtirgan. Bu yorug'likni odamlar Buxoro nuri deb atashgan.

Agionimlar. Ekklezionimlar va agionimlar diniy e'tiqod, uning lug'at boyligi bilan bog'liq bo'lgan ma'nosi yaqin terminlar hisoblanadi. Bunda, asosan, odamlar bir obyektini avliyo joy deb tanib, ziyoratgoh sifatida qarab, shu joyga qurbonlik atab, ziyorat etishgan. Shunga bog'liq agionim termini agiotoponim formasida qo'llanadi. Bu degani avliyolar ko'milgan qabrison. Odatda, shu joyga ko'pchilik ziyorat qilib boradi. Turkiy xalqlar tarixida ota-bobo ajdodlari katta hurmatga ega bo'lganligidan bu xalqlar yashaydigan joylarda agionimlar nihoyatda ko'p.

Qilich ota buyuk zotlar izidan borib, o'zining butun umrini ilmga madaniy-ma'naviy hayotga baxshida etgan ulug' zotlardan biri Yassaviyda tariqati piri Qilich ota tasavvufning ilm-u hikmat donishlaridan bo'lib, ulug'lar da'vati bilan islom tarbiyachisi sifatida bu yerlarni makon tutgan va shu yerda vafot etgan. Bu zot shijoatlari "qilichdek keskir" valiy, ya'ni "Qilich" nisbasini olgan Yassaviya tariqati pirlaridandir. "Ota" – Yassaviya taraqqiyotiga ko'ra turkona "shayx" ma'nosini beradi. Hazrati Qilichota pir

¹⁸ Мамыров Д. Кенимех (Кенимех қысқаша тарихи очерк және деректер). Кенимех: 2003. – Б.19.

va ruhoni tarbiyachi, muridlarning ixlos va hurmatini qozongan¹⁹. Konemex tumanining Sho'rko'l qishlog'ida Qilich ota ziyoratgohi bor. Bu zot xususida mahalliy o'lkashunoslar tomonidan to'plangan dalillarga ko'ra, ismlari "Sayyid Burhoniddin" deb ko'rsatilgan Sayyid avlodidan bo'lganligi va hazrati Abu Siddiq shajarasiga mansubligi ham qayd etiladi. Qilich ota XII asrda yashagan. Qilich otaning karomatlari, hollari xususida og'zaki bayonlar mahalliy aholi o'rtasida mashhur bo'lib ketgan²⁰. Ayrim manbalarda, jumladan, Alisher Navoiyning "Nasoyim-ul-muhabbat" asarida Qilich ota xususida: "azim qurbatlig' kishi ekandur va sayoflik (qilichbozlik) san'atiga mashg'ul ekandir", –deyiladi.

Qaroq ota Qizilqumning tarixiy manzillaridan biri bo'lib, o'rta asrlardayoq bu yerlarda Buyuk Ipak yo'lining bir hududi o'tganligi uchun aholi manzilgohi mavjud bo'lgan. Qizilqum sahrosining turli aholi manzillarida Yassaviya tariqatining Qaroq ota, Mix ota, Qilich ota, Qo'chqor ota, Beder ota, Qanarboy ota, Erler ota kabi yirik namoyandalari islom dinini mustahkamlashda katta hissa qo'shishgan. Ahmad Yassaviy va uning izdoshlari bo'lgan tasavvuf vakillarining ko'p sonli muridlari turkiy xalqlar orasida yurib tasavvuf g'oyalarini yoyganlar. Yassaviya tariqatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu ovoz chiqarib zikr aytish (zikri jahria) va karomatlar ko'rsatib murid tarbiyalash, xilvatda suhbat qilish²¹.

Bugungi Navoiy viloyati hududi, xususan, Qizilqum sahrosidagi manzillarda ham Yassaviya tariqati vakillari yashab, faoliyat yuritishgan. Tadqiqotchi A.Qandaharov Yassaviya tariqati vakillari, asosan, bu hududlarga Xorazm va Buxoro tomonlardan kelib o'rnashgan, degan fikrni bildiradi. Bugungi Navoiy viloyati hududida ham "ota" nomi bilan bog'liq joylar ko'plab uchraydi. Ana shunday joy nomlaridan biri Qaroqotadir. Yassaviya tariqatining yetuk namoyandalariidan biri Qaroq ota bo'lib, uning haqiqiy ismi-sharifi va yashagan vaqti aniqlanmagan, tarixiy manbalar orqali

¹⁹ Мустафаев Ж., Нарзуллаев У., Бердимуратова Л., Сафаров З. Конимех тумани кеча ва бугун. "SAHHOF", 2021. – 200 б.

²⁰ Мустафаев Ж., Нарзуллаев У., Бердимуратова Л., Сафаров З. Ко'rsatilgan asar. 2021. – 202 б.

²¹ Мустафаев Ж., Нарзуллаев У., Бердимуратова Л., Сафаров З. Ко'rsatilgan asar. 2021. – 203 б.

yetib kelmagan. Avliyo kunyasidagi “Qarog” so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “ko‘z qorachig‘i” ma’nosida keladi²².

Qulog‘om Xoja Qizilqum sahrosida Islom dinini mustahkamlashda, insonlarni komillik bilan hidoyat yo‘liga yetaklagan valiylardan biri Qulog‘om (Quloqan) Xo‘ja avliyodir Qizilqum cho‘lidagi Beshquduqda Qulog‘om (Quloqan) Xo‘ja avliyoning Qabri bor Uchtepalik Abdiquil Saymanovning Qulog‘om Xo‘janing avlodlaridan Shayxi Xo‘jadan eshitib aytishicha, Iskandardan Quloqan, Quloqondan Xo‘jaxmet, Xo‘jaxmetdan Naxan, undan Shayxi, Abu, Nug‘man tug‘ulgan²³. Boshqa bir bayonlardan Qulog‘on Xo‘ja XIX asr oxiri XX asrning birinchi choragida yashab o‘tganligi taxminlanadi. Mahalliy xalqning aytishicha, bu zot shariat va tariqat ilmida peshqadam, karomatli inson bo‘lgan ekanlar²⁴.

Jalauliy avliyo atalmish avliyo Esquduq va Otquduqning o‘rtasida joylashgan. Afsonalarga ko‘ra, Makkadan qaytayotgan ikki yosh yigit shu yerda vafot etadi. Ular o‘zlarini kutib olgan odamlarga “biz bugun kechasi vafot etamiz, bizni shu yerga dafn qilinglar” deb aytishadi. Ularning vasiyatini Oltin urug‘i yigitlari bajo etadi. Vafot etgan yo‘lovchilar Qizilo‘rdalik xo‘jalar ekan.

Erler ota Erler ota ziyoratgohi Erler ota tog‘ida joylashgan. Uchquduq shahrining 50-55 chaqirim shimol tarafida, Qulquduq ovulining sharq tomonida joylashgan. Erler otaning Qizilqumga kelish tarixi Azanur otaning tarixi bilan o‘xshash.

Qo‘chqor ota ziyoratgohi Uchquduq shahrining kunbotar tomonida Aytimtov etagida joylashgan. Qo‘chqor ota islom dinini targ‘ib qiluvchilaridan biri bo‘lib, Aytim bulog‘ining ko‘zini ochib, atrofga mevali daraxtlar ekib obodonlashtirgan. Qo‘chqor otaga ziyorat uchun kelganlarning aytishicha, ularning tilagan tilaklari ijobat bo‘lib, sog‘liklari yaxshi bo‘lishgan. Ziyoratgohning pastki tomonida eski qabriston bor. Xalq orasida bu joyga bog‘liq rivoyatlarga ko‘ra, peshobga chiqq olmay qolgan odam, shu qabristonni ikki marta aylansa, davosini topgan.

²² Ўзбек тилининг изохли луғати. А.Мадваалиев тахрири остида. 2008. – Т.:”УзМЭ”, 2008. – Б.58.

²³ Серик Шўқын “Қўт дарыған Қызылқўм”. – Т.: Абдулла Қадыри атындағы халық мұрасы баспасы. 2004. – Б. 8.

²⁴ Серик Шўқын. Ко‘рсатилган асар. 2004. – Б. 8-9.

Nekronimlar Nekronim – ajdodlar qo‘yilgan mozorlarning nomi va joyiga tegishli termin. Biz tadqiqotimiz davomida mazkur joylar bilan bog‘liq nomlarga ham to‘xtalib o‘tamiz:

Ayuning mozori. Ayuning mozori nomli nekronim shu joyda yashaydigan Ayu elatining nomiga bog‘liq. Ular bir vaqtlar Uzunquduqdan Momiqchi ovuliga ko‘chib kelishgan ekan.

To‘qmang‘it qabristoni Navoiy shahridan Konimex markaziga boradigan yo‘lning o‘ng tomonida joylashgan qabristonni “To‘qmang‘it qabristoni” deb atashgan. Bir vaqtlar bu joyga Qoraqalpoq elining To‘qmang‘it elati vakillari dafn etilgan. Shu bilan birga, bu joyni Keneges qabristoni, Balqi tepa qabristoni ham deb atashgan.

Mix ota qabristoni Konimex tumani markazidagi ziyoratgoh Mix ota nomi bilan qayta nomlana boshladi. Sovet tuzumi davrida Mix ota yodgorligi butunlay buzib tashlanadi.

Mix otaning etimologiyasi to‘g‘risida turlicha qarashlar mavjud. Ba‘zi qarashlarga ko‘ra bu nom Mug‘ (Mig‘), ya‘ni “otashparast” so‘zining xalq talaffuzida buzilgan shakli, deb talqin qilinadi. Chunonchi, taniqli toponomist Suyun Qorayevning fikricha, Zomin tumanidagi Miq deb nomlanuvchi joyning etimologiyasini Mug‘, ya‘ni otashparast, deb talqin qiladi²⁵. Akademik A.Muhammadjonovning fikricha, “Mux” so‘zi islom dini kirib kelishidan oldin O‘rta Osiyoda qo‘llanilgan “mug‘” so‘zining o‘zgargan variantidir²⁶.

Mo‘min ota Mo‘min ota ziyoratgohi Qulanqoq va Uzunquduq ovullarining g‘arbida, Uchquduq qora yo‘l yoqasida joylashgan. Mo‘min ota 1802-1804 yillarda dunyoga kelgan degan ma‘lumotlar bor.

Dromonimlar hududning umumturkiy xalq geografik atamalari ishtirokida yaratilgan toponimlarning ma‘lum bir guruhini dromonimlar tashkil etadi, ya‘ni aloqa yo‘llari nomlari. Ushbu guruhning mazkur hududda mavjudligi shundan dalolat beradiki, o‘rganilayotgan hududning murakkab tabiiy-iqlim sharoitlariga qaramasdan,

²⁵ Қораев С. Географик номлар маъноси –Т.: “Ўзбекистон”. 1978. – Б. 80

²⁶ Муҳаммаджонов А. Сехрли, тилсимли жойлар // “Фан ва турмуш” журнали, 1993. №1. – Б. 10.

bu yerda turli davrlarda hayot qizg'in kechganligini ko'rsatadi. Mazkur holda dromonimlar yo'l xalq geografik atamasi ishtirokida yaratilgan. Birinchi navbatda "Buyuk ipak yo'li" ni aytib o'tish lozim. Katta ehtimol bilan "Buyuk ipak yo'li" Qizilqum orqali taxminan bir kunlik yo'l hisobiga to'xtalishlar bilan o'tgan: Samarqand – Nurota – Chordara – Ars daryosi – Farab (Otrar) – Yassi (Turkiston). Bunday fikrga o'rganilayotgan hududda Yassikeshu//Yassikechuv dromonimining (kechuv) mavjudligi asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shubhasiz, u aynan Yassi (Turkiston) karvon yo'lida joylashgan.

Yassikechuv dromonimi. Kechuv nomi (Yassykeshu) alohida qiziqish tug'dirgan, nafaqat keshu//kechuv umumturkiy xalq geografik atamaga ega bo'lgani tufayli, balki qadimiy tarixiy shahar – Yassi nomining mavjudligi sababli alohida qiziqish uyg'otadi. Mazkur fakt savdo yo'li tarixidan ma'lum – Buyuk ipak yo'li u qurilayotgan hududdan o'tgan. Yassi (hozirgi Turkiston shahri – Qozog'iston Respublikasi Turkiston viloyatining ma'muriy markazi) yuklarni tushirish va ortish yirik punkti edi.

Ipak yo'lining ko'rsatilgani asosiy tranzit liniyasidan tashqari yana ikki yirik savdo yo'llari hamda boshqa karvon yo'llari mavjud bo'lgan. Aytib o'tilganiday yana boshqa yirik savdo yo'llari ham bor edi: Ko'mir to'kken – asl. "ko'mir to'kilgan"; Jau joli – asl. "dushman yo'li"; Maya joli – asl. "moyya, tuya (urg'ochi) yo'li"; Qashqin joli – asl. "qochoqlar yo'li". Mazkur karvon yo'llari nafaqat Qizilqum hududida qizg'in savdo-sotiq bo'lganligi haqida ma'lumot beradi, balki bu yo'llarda ma'lum bir infrastruktura mavjudligi to'g'risida ham dalolat beradi. Mazkur hududlarda uchraydigan suv to'siqlarining kesilgan joylarini belgilovchi obyektlar nomlari muhim ahamiyatga ega. Bu kechuvlar, ko'priklar, daryo joylarini belgilovchi atamalar ishtirokida paydo bo'lgan dromonimlar. Masalan: keshu – kechuv – *Yassikeshuv* (Yassykechu), *qaiyq* – qayyq – *Ayimqizning qayig'i* (Ayimqiz ismli qizning qayig'i, *ko'prik* mahaliy aholining ma'lumotlariga ko'ra, bir vaqtlar ayol ariq ustidan ko'prik quradi va u *Qatinko'pir* – "ayol ko'prigi" nomini oladi. Inqilobdan oldin Chimkentdan Turkistonga o'tgan avtomobil yo'lida Badam daryodan qizil bo'yoq bilan bo'yalgan

temir ko‘prik qurilgan, shuning uchun xalq orasida u *Qizil ko‘pir* – “qizil ko‘prik” deb ataladi.

N.Podolskayaning onomastik atamalar lug‘atida aytilishicha, dromonim atamasi – har bir aloqa yo‘llarning belgisi: yer usti, suv, hatto havoning belgisidir. Qizilqum hududining janubiy qismida Sirdaryodan boshlanadigan karvon yo‘li (Turkistonning shimolida) nuqta chiziqlar bilan ko‘rsatilgan. Keyinchalik u cho‘lning janubiy-sharqiy qismidan o‘tib, bu yerda o‘rnatilgan quduqlar To‘rtquduq va O‘g‘risoy Tomdibuloqning janubiy-sharqiy qismida joylashgan ikki quduqning “O‘g‘ri” va “soy” biriga to‘g‘ri kelishi kerak. Qizilqumning janubiy g‘arbiy qismida joylashgan ikki quduq ko‘rsatilgan – “Qaliqti” va “Ag‘itti”. Ikkinchisi, shubhasiz, Og‘itma bo‘lishi kerak. Qizilqumdan o‘tgan karvon yo‘llari cho‘lning bu qismida qadim zamonlardan beri mavjud.

1.2.§. Gidronimlar va antropogidronimlarning etimologik tahlili

Ilm-fan mavjud ekanki, borliq va jamiyat hodisalarini muayyan ilmiy me‘yor, mezonlar asosida tasniflaydi, talqin etadi hamda ilmiy tahlilga tortadi. Biz bu bobda ilmiy tadqiqot mavzuyimizga daxldor, umuman, etimologiya to‘g‘risida qisqa fikr yuritish hamda onomastik etimologiya to‘g‘risida to‘xtalishni o‘rinli, deb hisobladik. Tilshunos olim A.Hojiyev etimologiya va etimologik tahlil haqida shunday deydi: “Etimologiya tilshunoslikning bir bo‘limi, etimologik tahlil esa so‘z hamda toponimlarning kelib chiqishini tarixiy taraqqiyotda ko‘rsatadi”²⁷.

Toponimlarning bir turi bo‘lgan gidronimlar xalq tarixi bilan bog‘liq bo‘lib, milliy tilning, xalq ijtimoiy hayoti, madaniyati va ma‘naviyatining o‘ziga xos qirralarini ifoda etuvchi lisoniy qatlam hamda xazinadir. Joy nomlari singari gidronimlar ham ajdodlarimizdan hozirga qadar yetib kelgan ulkan madaniy-ma‘naviy meros, milliy qadriyatlarning bebaho namunasi.

Toponimikaga oid ilmiy manbalarda gidronimlar sirasi turlicha qayd etiladi. N.Oxunov gidronimlarni “Suv obyektlarining, ya‘ni dengiz, daryo, ko‘l, soy, ariq,

²⁷Хожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 136 б.

buloq, quduq singlarining atoqli otlaridir”, deb izohlaydi²⁸. Ba’zi manbalarda gidronimlar majmuyi to’la qayd etilmagan, balki gidronimlarga “Daryo, suv havzalari kabilarning nomi”²⁹ degan izoh berish bilan kifoyalanilgan. Gidronimlar terminini N.Begaliyevgina birmuncha mukammalroq izohlagan: “Gidronimlar – o’zida suv mavjudligi bilan yaqin bo’lgan, ya’ni akvatoriyaga tegishli obyektlar, okean, dengiz, qo’ltiq, bo’g’oz, ko’l, botqoq, daryo, irmoq, ariq, sharshara, quduq va boshqalarning nomlari”³⁰.

Toponimshunoslar gidronimlarni eng qadimiy nomlar deb baholaydilar. Haqiqatan, S.Qorayev to’g’ri ta’kidlaganidek, Amudaryo, Sirdaryoning qadimiy nomlari har qanday osori atiqalar yoshi bilan bellasha oladi³¹. Hamma yurtlardagi kabi O’zbekistonda ham qadimdan suv va suv obyektlari muqaddas bilingan hamda qadrlangan.

Tarixiy ma’lumotlarga ko’ra, qadimgi davlatlarning nomlariga odatda daryo, qabila, xalq va markaziy shaharlar nomlari asos qilib olingan. Markaziy Osiyo xalqlarining tarixida daryolar hayotning muhim manbayi vazifasini bajargan³². Hozir ham O’zbekistonning viloyatlari, tumanlari, shaharlari, asosan, daryo nomlari bilan ataladi: Sirdaryo viloyati, Surxondaryo viloyati, Qashqadaryo viloyati, Norin tumani (Nam.v.), Oqdaryo tumani (Sam.v.), Sirdaryo tumani, Sayhun shaharchasi, Sirdaryo shahri (Sir.v.), Yuqori Chirchiq, O’rta Chirchiq, Quyi Chirchiq tumanlari (Tosh.v.), Qashqadaryo (Qashqa.v.) kabilar. Shuningdek, qadimgi tarixchilar xalqlarning joylashuv chegaralarini daryolar bo’yicha ajratganlar³³. Turkiy xalqlar adabiyotida mashhur bo’lgan “O’g’uznoma” dostonida keltirilishicha, O’g’uz olti farzand ko’radi va ularni kosmogonik hamda tabiatdagi ulug’ narsalarning nomlari bilan ataydi: Kun, Oy, Yulduz, Ko’k, Tog’, Dengiz³⁴.

28 Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989. – Б.5.

29 Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 10.

30 Бегалиев Н. Самарканд вилояти гидронимлари (лисоний таҳлил): Филол фанлари номзод. ...дис. автореф. – Самарканд, 1994. – Б. 3.

31 Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – B. 58

32 Сағдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 43.

33 Qorayev S. Ko’rsatilgan asar. 2006. –B .58

34 Сағдуллаев А. Ko’rsatilgan asar. 1996 – Б. 43.

Markaziy Osiyo gidronimiyasi, jumladan, O‘zbekiston gidronimiyasi qadimiy manbalarga ega. “Avesto”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘ot-it-turk”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Abu Tohirxo‘ja ibn Abu Sa‘idxo‘janing “Samariya”, Abu Rayhon Beruniy, Yoqut al- Hamaviy, Sharofuddin Ali Yazdiy, Hofizi Abru, Hofiz Tanish al-Buxoriy, Mahmud ibn Vali, Is‘hoqxon Ibratning tarixiy asarlari vatanimiz toponimiyasini, jumladan, gidronimiyasini o‘rganishda muhim tarixiy manba bo‘la oladi.

Eramizdan avvalgi VIII-VII asrlarda yaratilgan diniy va afsonaviy matnlarni tashkil qiluvchi asar “Avesto” Markaziy Osiyo va unga yondosh viloyatlarning ko‘hna topografiyasi va toponimiyasi haqida ma‘lumot beruvchi dastlabki manbadir. Toponimlarning asosiy qismi “Yasht” va “Videvdot”da to‘plangan. Bular viloyatlar, tog‘lar, tog‘ cho‘qqilari, daryo va ko‘llarning nomlaridir. “Avesto” tilidagi atoqli otlar, ularning Xorazm hududi onomastikasi bilan o‘xshashliklari, munosabati M.B.Tillayeva tomonidan maxsus tadqiq etilgan. Tadqiqotchi “Avesto” tilida uchraydigan atoqli otlarning lug‘at ko‘rsatkichini ham tuzgan³⁵.

“Avesto”da uchraydigan Xorazm shevalariga xos *yop*, *arna* gidronimik aniqlagichlari bilan bog‘liq onomastika masalalari va ayrim mifologik nomlar, kultlar Z.Dusimov³⁶, M.Jo‘rayevlar³⁷ tomonidan o‘rganilgan. Ularning tadqiqotlari “Avesto” tiliga xos gidronimlarni o‘rganishda alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, ayrim antik mualliflarning, chunonchi, Strabonning “Geografiya”si (eramizdan oldingi I asr), Kvint Epiy Flaviy Arrianning “Anabasis Aleksandr” –“Aleksandr yurishlari” II asr), Kvint Kurtsiy Rufning “Aleksandr Makedonskiy tarixi” (I asr) asarlari toponimik manba sifatida xizmat qiladi.

Antik mualliflar kitoblarida uchraydigan toponimik materiallar viloyatlar, daryo va shaharlarning nomlaridir. Bir qism toponimlar yunon tili negizida yasalgan bo‘lib,

35 Тиллаева М.Б. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий - лисоний тадқиқи. (“Авесто” ономастикасига қиёслаш асосида):Фил.фан.номзод. дис. ...автореф. – Тошкент, 2006, – 266 б.

36 Дўсимов З. Хоразм ономастик тизимида авестовий элементлар // Филологик тадқиқотлар / Илмий ишлар тўплами. – Тошкент, 2002. – Б. 39-42.

37 Жўраев М. Аранжибобо култининг қадимий илдизларига доир // Филологик тадқиқотлар / Илмий ишлар тўплами. – Тошкент, 2002. –Б. 20.

ayrimlari mahalliy nomlarning kalkasi, boshqalari mahalliy nomlarning yunoncha talaffuzdagi shakli hisoblanadi. Tarixchi va geograf Hofizi Abru – Shahobuddin Abdulloh ibn Lutfilloh ibn Abdurrashid al-Havofiyning “Tarixi Hofizi Abru” nomli mashhur tarixiy-geografik asarida yer yuzidagi suvlar, tog‘- Toshlar, mamlakatlar va ulardagi aholi manzillari, shuningdek, *Samarqand*, *Buxoro*, *Kesh*, *Naxshab*, *Termiz* kabi shaharlar hamda *Jayhun*, *Sayhun*, *Murg‘ob* va boshqa daryolar, mamlakatlar, viloyatlarning kenglik va uzunliklari ko‘rsatib o‘tilgan³⁸.

Muallifi noma‘lum “Kitob hudud ul-olam min al-mashriq, ila-l-mag‘rib” (“Olam (Yer)ning mashriqdan mag‘ribgacha bo‘lgan chegaralari haqida kitob”) nomli fanda qisqacha “Hudud ul-olam” shaklida tanilgan tarixiy-geografik asarida hozirgi Tojikiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, O‘zbekiston va g‘arbiy Xitoy hududi ancha mukammal tasvirlangan. Unda dengiz, daryo va boshqa joy nomlari batafsil keltirilgan³⁹. Jumladan, asarning “Dengizlar va qo‘ltiqlar haqida so‘z” nomli bobida *Xazar dengizi* (hozirgi Kaspiy dengizi), *Xorazm dengizi* (Orol dengizi), “Daryolar haqida so‘z” bobida *Jayhun* (Amudaryo), *Xarnob* (Panj daryosi irmog‘i bo‘lishi mumkin), *Chag‘onrud* (Surxondaryo), *O‘zgand* (Qoradaryo), *Xirsob* (Kurshob), *O‘sh daryosi* (Oqburga), *Qubo daryosi* (Quvasoy), *Xatlom* (Norin), *Parak* (Chirchiq), *Buxoro daryosi* (Zarafshon) kabi tarixiy gidronimlarning oqim yo‘nalishi, hududlari, quyilish manbayi, irmoqlari, ayrimlarining nomlanishi haqida batafsil ma‘lumot berilgan⁴⁰.

1960-yillarning oxiri va 1970-yillarda o‘zbek toponimikasida ayrim yirik hamda kichik gidronimlar xususida tadqiqotlar yuzaga keldi. A.Ishayevning Qashqa⁴¹, T.Nafasovning Norin⁴² H.Sharipovning Itoqar⁴³, N.Begaliyevning Samarqand⁴⁴ gidronimlari, A.Nabiyevning Toshkent ariqlari⁴⁵ haqidagi tadqiqotlari shular

³⁸ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2005. – 11-ж. – Б. 381.

³⁹ Ҳасанов Ҳ. Сайёҳ олимлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1981. – 266 б.

⁴⁰ Худуд ул-олам / Масъул муҳаррир Мирсодиқ Исҳоқов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – 10 б.

⁴¹ Ишаев А. «Қашқа» гидроними // Ўзбек тили ва адабиёти, 1967. №3. – Б. 42.

⁴² Нафасов Т. Норин гидроними // Ўзбек тили ва адабиёти, 1968. № 6. – Б. 43

⁴³ Шарипов Х. Итокар гидроними // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972. №1. – Б. 6. 18 Нафасов Т. Ширкент топоними // Ўзбек тили ва адабиёти, 1968. № 2. – Б. 6.

⁴⁴ Бегалиев Н. Самарқанд вилояти гидронимлари (лисоний таҳлил): Филол фанлари номзод. ...дис. автореф. – Самарқанд, 1994. – Б. 3.

⁴⁵ Набиев А. Тошкент ариқлари // Фан ва турмуш, 1970. №11. – Б.27.

jumlasidandir. Ma'lum hududlar gidronimiyasi va ayrim yirik suv obyektlarining lisoniy tadqiqi 1980-yillarda ham davom etdi. I.Karimov Xorazm, N.Y.Mingboyev Mirzacho'l gidronimlarini, Y.Xo'jamberdiyev Amudaryo gidronimini o'rgangan⁴⁶.

Gidronimlar ham toponimlarning boshqa turlari kabi uzoq tarix mahsuli. Har bir gidronimda insoniyat tarixining kichik bir qirrasini, zarrasi o'z aksini topgan. O'zbek tili gidronimlari o'zbek xalqi tarixi, etnik tarkibi va taraqqiyoti, yoyilishi, turmush tarzi, kasb-kori, etnografiyasi hamda boshqalar haqida ma'lumot beradi. "Avesto"da tilga olingan *Ranxa* (Sirdaryo bo'lishi mumkin), *Voruxash*⁴⁷ qadimgi turkiy yodgorliklardagi *Yinchuo 'guz*⁴⁸, "Abdullanoma"dagi *Kalas suvi*, *Chir suvi*, *Farak (Parak) suvi*, *Ko 'hak*, *Karki kechuvi*, *Qarnob*, *Yettiquduk*, *Sayhun*, *Jayhun*, *Furot*⁴⁹, "Boburnoma"dagi *Sayhun // Sirdaryo*, *Ars suyi*, *Sang suyi*, *Koson suyi*, *Xohon arig 'i*⁵⁰ kabi yuzlab gidronimlar fikrimizning yorqin dalilidir.

Dissertatsiya ishimizning bu qismida biz qadim zamonlardan Qizilqum hududida aholi punktlarining paydo bo'lishi va cho'lning ayrim hududlarida kariz sug'orish tizimi mavjudligi to'g'risida so'z yuritiladi. Cho'lning fizik-geografik xususiyatlari toponimik tizimning shakllanish jarayonida muhim ahamiyatga ega edi. Masalan, suvsiz cho'l koriz va quduqlar kabi katta miqdorda sun'iy suv manbalarini talab qilgan. Shuning uchun o'rganilgan hududning tabiiy-iqlim sharoitlari keskin kontinental iqlim o'zgartirish uchun o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirgan.

Undan tashqari cho'lda yashovchi odamlarning asosiy xo'jaligini chorvachilik faoliyati tashkil etgan bo'lib, bu ko'plab quduqlar vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Shu omil sababli bu yerda *quduq* komponenti bilan ko'plab gidronimlarni kuzatamiz. Ushbu fakt xo'jalik hayot faoliyati uchun sun'iy suv obyektlarining birinchi darajali ahamiyatligi to'g'risida dalolat beradi. Ushbu holda gidronim-oykonim transonimizatsiya faktiga alohida e'tiborni qaratish lozim. Sun'iy kelib chiqqan suv

⁴⁶ Каримов И. Гидронимы Южного Хорезма // Вестник Каракалп. фил. АН УзССР – Нукус, 1983. №3. – С.38-61; Мингбоев Н Я. Мирзачул гидронимлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1987. №2. – Б.50-54; Хўжамбердиева Ё Гоҳида шўх, гоҳида сокин (Амударё) // Фан ва турмуш. 1985. №12. – Б 13

⁴⁷ Каранг. Авесто (Асқар Маҳкам таржимаси) – Тошкент: "Шарқ", 2001

⁴⁸ Абдурахманов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б. 77

⁴⁹ Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома ("Шарафномаи шоҳий"). – Тошкент: "Шарқ", 1999. 1 к. – 416 б

⁵⁰ Бобур, Захириддин Мухаммад. Бобурнома. – Тошкент: "Шарқ", 2002. – 336 б. –32 б Зарварак.

obyekti odam mehnatini talab etganligi sababli, quduq vaqtincha yoki doimiy yashash punkti paydo bo'lishining asosiy omili bo'lgan. Ushbu aholi punktini odatda quduq nomi bilan nomlashgan, quduqning o'zi esa ko'pincha quduq qazuvchining nomi bilan atalgan.

Qizilqum gidronimlari ushbu hudud toponimiyasida muhim o'rin egallaydi.

Daryo. Bu eron tilidan olingan bo'lib, “dengiz, katta daryo” ma'nosini bildiradi. E.M.Murzayev ushbu atamani Osiyo va Indoneziyaning ko'pgina gidronimlari tarkibida qayd etgan. Turkiy tillarda “daryo, katta daryo” ma'nosida qo'llaniladi. Qizilqum hududi toponimiyasida ikkita gidronim – Sirdaryo va Qizildaryo komponenti mavjud.

Sirdaryo. U o'rganilayotgan hududning va butun O'rta Osiyoning asosiy suv arteriyasi hisoblanadi. Hududning barcha kanallar va sug'orish inshootlari suvni ushbu daryodan oladi. Ma'lumki, Sirdaryo haqidagi ma'lumotlar ko'plab sayyoh va mahalliy tarixchi mualliflarning asarida uchraydi. Sirdaryo gidronimi dastlab Rim tarixchisi Pliniy asarida (milodning I asri) “Silis” shaklida uchraydi⁵¹. E.Safoyeva va I.Shoyimardonovlarning ko'rsatishicha⁵², Silis “sarmat”, “sar”, “sir” so'zlari bilan asosdosh (o'zakdosh) bo'lib, hammasi shu daryo bo'ylarida istiqomat qilgan sart nomli qabilaga aloqador. Sir va Silis nomlari bir-biriga monanddir. Sir – Sirdaryoning qadimiy sak tilidagi nomi. Bunday fikr P.Baratov ishlarida ham kuzatiladi. U: “Silis” yoki “Sir” so'zlari daryo qirg'oqlarida yashagan qabila nomidan olingan bo'lsa kerak degan taxminlar bor⁵³, – deb yozadi. V.V.Bartold, S.G.Klyashtorniy, H.Hasanovlar ham Silis, Sir aynan bir so'z deb biladilar. Demak, Silis, Sir bir so'zning fonetik variantlaridir.

XIII-XIV asrlarda Sirdaryo etagida Jand shahri yaqinida Jo'ji xonning o'g'illari va nabiralarining o'rdasi Siro'rda deb atalgan. Qadimgi turkiy yodgorliklarida Sir etnonimi uchraydi: “Qapag'on xoqon Turk sir xalqi yerida urug' ham, xalq ham, kishi

⁵¹ Плиний Старший Естественная история Книга II Вып.3.Сборник статей. Наука, Москва, 2007. С. – 287-366.

⁵² Сафаева Э., Шойимордонов И. Ўзбекистон халқлари тарихини ўқитишда ўлкашунослик материалларидан фойдаланиш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – Б. 24.

⁵³ Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasidan amaliy mashg'ulotlar: (O'quv qo'llanma) – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. – 144 b.

ham [yerga] ega ham bo‘lmas edi”⁵⁴. Bu dalillar Sir etnonim ekanligini, asrlar davomida daryo nomiga aylanganligini va hozirga qadar yetib kelganligini ko‘rsatadi.

S.Qorayev o‘zining toponimik lug‘atida daryoning o‘ndan ortiq nomlarini keltiradi. U qadimiy daryoni yunonlar Yaxartes (Yaksart) deb nomlagan. “Avesto”da Danu, Yaosha nomi bilan tilga olingan⁵⁵. Muallifi noma’lum bo‘lgan “Hudud-al-olam” asarida – Xashart, runiy turkiy yodgorliklarda esa Gulzariyun, Seyxun, Xishart, Qanqar, Obi-Fargona, O‘zgand, Obi Xo‘jand, Naxri ash-shosh, Banokat daryo va h.k nomlari tilga olingan⁵⁶.

Sirdaryo gidronimining etimologiyasi masalasida hozirgi kunga qadar bahs-munozaralar mavjud bo‘lib, tadqiqotchilar bir fikrga kelganlari yo‘q. V.A.Nikonov yozadi: “Zamonaviy nomi faqat XIX asrdan hujjatlashtirilgan; O‘rta Osiyoni eron tillarida darya “daryo”, sir (syr) turkiy sariq (sary) bilan xato bog‘laydilar, aftidan, uni eron tillaridan izlash lozim; mumkin bo‘lgan ma’nolar: “ko‘p, mo‘l, yaxshi”. Bu yerda agar daryo nomi “ko‘p, mo‘l, yaxshi” ma’nolar bilan bog‘lansa⁵⁷, bunda turkiy sarqi to‘g‘ri keladi. Uning turkiy toponimiyada “keng, erkin, bosh, asosiy” yaqin ma’nolariga ega ekanligini ta’kidlash joiz. Bunga quyidagi misollarni keltirish mumkin: Saribel (Sarybel), Sarioqqa (Saryarqa), Saridala (Sarydala), Sarkan, Sartog‘ (Sartau) va boshqalar⁵⁸.

Sir – syr so‘zidan kelib chiqqanligini ham taxmin qilish mumkin. Masalan, Sirdaryo – (Sirlidaryo) “sirli, qudratli daryo”, “ulkan, cheksiz” kabi ma’nolarni bildiradi. Bu ma’no qaysidir darajada geografik voqelikka javob beradi, chunki Sirdaryo suv osti oqimiga ega edi. Vaholanki, u sersuv bo‘lib, ko‘plab kilometrlarga yoyilgan va buni eski qirg‘oq chiziqlari (qiyotlar) hamda gidronimiya ma’lumotlari tasdiqlaydi. Hozirgi vaqtda daryoning hozirgi o‘zagidan uzoqroq joylarda Qolgansir (“qolgan Sirdaryo”) nomidagi ko‘llar ham ko‘p. Masalan, Qolgansir – Jizzax viloyatining Forish

⁵⁴ Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. –Б. 9

⁵⁵ Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – Б.III.

⁵⁶ Максимова А.Г., Мершиев М.С., Вайнберг Б.И., Левина Л.И. Древности Чардары. (Археологические исследования в зоне Чардаринского водохранилища). Алма-Ата: Наука, – С.7.

⁵⁷ Никонов В.А. Краткий топонимический словарь. – Москва: Мысль, 1966. – С.402

⁵⁸ Койчубаев Е. Краткий толковый словарь топонимов Казахстана / отв. ред. А.Т. Кайдаров. Алма-Ата : изд-во Наука, 1974. – С.9.

tumanida joylashgan Aydarko‘l sho‘r suvi, ikkinchi nomi; geologlar to‘rtlamchi geologik davr oxirida bu yerdan Sirdaryoning o‘zani o‘tganligini aniqlagan. Qolgansir – “daryoning eski o‘zani” degan tushunchani anglatadi⁵⁹.

X.Xasanovning Sir//Syr (sarmat//sirmat) komponenti haqidagi taklifi ham diqqatga sazovordir⁶⁰. Bu yerda agar komponent etnik otdan kelib chiqqan bo‘lsa, unda “sirmatlar” (adabiyotda umumiy qabul qilingan shakl – sarmat. – M.N.)dan kim qayerda yashagan “sirlar”, “silislardan” emas, balki O‘rta Osiyo toponimiyasida ko‘p marotaba qayd etilgan siraq etnonimidan ekanligiga aniqlik kiritish lozim. Ma‘lum bo‘lgan siraqlarning sarmat qabilasi bilan ko‘p sonli etnonim va toponimlari bog‘liq holda o‘rganilgan. Ular ko‘pincha qora-siraq shaklida ko‘rinadi⁶¹. Masalan, Juvonsiraq etnotoponimi (Samarqand vil. Samarqand tuman hududida) qayd etilgan. Sirdaryo viloyatida bir qancha Qopasiraq va Dusvonsiraq nomlari uchraydi, bu esa o‘rganiladigan hududda turkiy tilli xalqlar tarkibiga kirgan va umuman, Sirdaryo oldi hududida fors tilli sarmat qabilalarining qadimdan yashab kelganligi to‘g‘risida dalolat beradi.

Sir//syr so‘zining rangli ma‘nosi to‘g‘risida fikr yuritish hojati yo‘qligi sababli bu yerda mazkur sir komponentining taqlidiy paydo bo‘lish varianti ham bo‘lishi mumkin. Y.Koychubayev ushbu atamani qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqishga urinib ko‘rdi. Xususan, u: “...Zamonaviy nom XIII asrdan beri tilga olinadi. Ushbu o‘lkalarga XII asrda kelgan sayyohlar Plano Karpini va Asselin Sirdaryo nomini turk-eron tilidan Sarydarya, ya‘ni “sariq daryo” haqidagi ma‘lumotlarini yozib o‘tadi. Ammo bu Sirdaryo nomining aynan XIII asrdayoq paydo bo‘lganligini anglatmaydi. Ayrim mualliflar esa Sir atamasini turkiy nomlar bilan bog‘laydilar”.

Sir, syrym, syrymbet – etnotoponimlar. S.E.Malov qadimiy turkiy yozma yodgorliklaridagi “turk-syrlar xalqi...” iborasini keltirgan. Sirdaryo nomini “sirlar daryosi”, ya‘ni etnotoponim ma‘nosida – sir (syr) xalqining daryosi, “ravon daryo”.

⁵⁹ Кораев С. Ко‘rsatilgan asar. – Б. 174.

⁶⁰ Хасанов Х. Ко‘rsatilgan asar. – Б. 65.

⁶¹ Толстова Л.С.Отголоски ранних этапов этногенеза народов Средней Азии // Ономастика Средней Азии. – М., 1978. – С.10.

Ikki holatda ham asosda “tezkor” turkiy so‘zi yotibdi. Masalan, qoz. shyr ainalu (tez aynalish)⁶². Lekin bu farazni faqat qozoq tili asosida ko‘rib chiqish mumkin emas. Mazkur so‘zning boshqa turkiy tillardagi barcha fonetik variantlari va semantik xususiyatlarini, shuningdek, turli tizimli ma’lumotlarga asoslanib tahlil qilish zarur bo‘ladi.

M.A.Mamedovning yozishicha, Ozarbayjon gidronomiyasida chir//shir komponentli Shirmut (oykonim) turidagi geografik nom (oykonim) mavjud bo‘lib, “qoya ostidan oqib chiqayotgan suv, tog‘li hududdagi toshlar” degan ma’nomlarni bildiradi⁶³.

S.Ataniyozovda Turkmaniston geografik nomlarning toponimik lug‘atida sun‘iy va tabiiy kelib chiqadigan turli gidroobyektlarni bildiruvchi shar komponentli bir qancha gidronimlar mavjudligini keltirib o‘tadi. Masalan, Qizilterek va Qazanjik tumanlarida Sharavluk aholi punktlari, Sharav – kanal nomi; Sharavyap –gidronim. Ushbu yashash manzillari atrofida suv bilan bog‘liq joylar nomlari belgilangan: Shaglavuq, Sharlavigan, Sharkiravuq, Sharxi – Kirov tumanidagi quduq, Sharshar – Charqin tumandagi, Chirliguyi⁶⁴ tumandagi quduq.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida qayd etilgan: “Shar – tez, keskin oqimli, suv quyilishida *shar* tovushidan paydo bo‘ladigan ikkinchi tovush”⁶⁵. Bu so‘zdan o‘zbek tilida *sharshara* so‘zi paydo bo‘lgan.

E.B.Murzayev aytib o‘tgan shar // shor // shur // shir // char // chor // chir // sor // sar // sir // tor // lor⁶⁶ fonetik variantlarining barchasi “suv”, “suvli obyekt” ma’nosiga ega hamda alohida qiziqishni uyg‘otadi. S.Qorayev Chirchiq daryo nomini Sirchiq – “kichik daryo” deb hisoblaydi⁶⁷.

⁶² Койчубаев Е. Краткий толковый словарь топонимов Казахстана / отв. ред. А.Т. Кайдаров. Алма-Ата : изд-во Наука, 1974. – С.200.

⁶³ Мамедов М.А. Лингвистический анализ географических названий в смешанных ареалах. АДД, Баку, 1982. – С.53-56.

⁶⁴ Атаниязов С.М. Толковый словарь географических названий Туркменистана. Ашхабад: Илым, 1980. 303 с.

⁶⁵ Ўзбек тили изоҳли луғати. – М.: Рус тили, 1981. – Б.153.

⁶⁶ Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. – Москва: Мысль, 1974. – С.112.

⁶⁷ Qorayev S. Ko‘rsatilgan asar. –B. 148.

Qizildaryo – bu Sirdaryoning qurub qolgan tarmoqlardan birining o‘zani. Hozirgi vaqtda Arnasoy ko‘llarining suvlari bilan to‘lgan. V.Sh.Qarabayev fikriga ko‘ra, “Qizilqum qumlari oldidan yirik qurigan o‘zanga taqalishiga to‘g‘ri keldi (kengligi ikki chaqirimdan ortiq), u Qargali darasi yaqinida joylashgan. Sirdaryoning boshlanishi (ya’ni Chordaradan 10-15 chaqirim yuqori – Sir oqimi bo‘ylab) va janubga qarab qariyb 20 chaqirim masofaga cho‘ziladi. Ayrim hududlarda torayib, keyin esa yana kengayib Nurota tog‘ tizmasiga qarab janubiy g‘arbgaga buriladi”⁶⁸.

Qizildaryo – so‘zma-so‘z “qizil daryo”, aniqlovchi qismi – qizil sifati. Aftidan, nomi Qizilqum makrotoponim analogiyasi bo‘yicha – “qizil qumlar” – paydo bo‘lgan.

Ko‘l. Ko‘l – kelib chiqishi turkiy so‘z. Yozma manbalarning ma’lumotlariga ko‘ra, turkiy tillarda u qadim zamonlardan qo‘llaniladi. Hidronimik atama sifatida mo‘g‘ul, hind-eron va kavkaz tillarida ham qo‘llaniladi⁶⁹.

Soy. Soy atamasi – O‘rta Osiyo gidronimlarining tarkibidagi eng unumdorlardan biri. Soylar, ko‘pincha, tog‘tagi hududlarida joylashadi. Tadqiq etiladigan hududda soy atamali gidronimlar ancha kamroq. Bu, asosan, tekislik hududi ulkanligi bilan tushuntiriladi. Jumladan, Sarmishsoy, Kampirsoy, Oqsoy, Yelsoy, Qayroqlisoy.

O‘rta Osiyo gidronimiyasida ichimlik suvi bilan bog‘liq nomlar muhim ahamiyatga ega. Chunki iste‘molga yaroqli bo‘lgan suv manbalari boshqa tabiiy obyektlardan keskin ajralib turgan va ko‘pincha aniq differensiyalangan. Masalan, Jizzax viloyatining Zomin tumani va boshqa yaqin tog‘ etagi hududidagi soylar nomlari orasida birorta ham son bilan birikmali nom uchramaydi, eron tilidan paydo bo‘lgan Duxoba nomidan tashqari – eron tilida du – ikki va ob – “suv”, -a – tugallanma, protez -x – turkiy tillar ta’siridagi eski ulanma. Lekin bu holda nom suv bilan bog‘liq bo‘lsa ham, (ikki soy) buloq qo‘shilgan joyni anglatadi.

Jetisoy Mirzacho‘l hududi bo‘ylab cho‘zilgan yirik jarning nomi. S.Qorayevning⁷⁰ toponimik lug‘atida sonlardan yaralgan 18 nom orasida birorta

⁶⁸ Древнетюркский словарь / ред. В.М. Наделяев, Д.М. Насилов, Э.Р. Тенишев, А.М. Щербак. Ленинград: Наука, 1969, – С.313.

⁶⁹ Узбекско-русский словарь. – М.: Госиздат иностранных и национальных словарей, 1959. – С.299; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т.І. – М.: Русский язык, 1981. – С.527.

⁷⁰ Qorayev S. Ko‘rsatilgan asar. –B. 126.

gidronim yo‘q. Turkmaniston toponimlarining izohli lug‘atida sonlar yordamida yaratilgan 57 ta nomdan faqat 4 ta gidronim uchraydi⁷¹: Yediarik, Yedigol, Yediodek, Yekesuv⁷². Ularning barchasi u yoki bu joyning ma‘nosida qo‘llaniladi. Demak, Jetisoy Qozog‘istondagi Jetisu va Qirg‘izistondagi Jeti Oguz kabi ko‘p soylar bo‘lgan joyni anglatadi.

Mazkur nom mo‘g‘ulchadan djete – “battol” yoki “jete/jata” kelib chiqishidan “mo‘g‘ullar” yaratganligi to‘g‘risida fikrlar mavjud. Ma‘lumki, ushbu nom ostida Chig‘atoy xonligining sharqiy qismini mo‘g‘ullar egallagan edi. Unda “jagatay” va “jete” bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan. Ko‘chmanchi xalqlar o‘zlarini faqat “jagatoylar” deb atashgan va o‘zlarining sharqiy qo‘shnilariga “jete”⁷³ qaroqchilari sifatida qaragan. Bu taxmin bo‘yicha Jetisoy “battol soy” ma‘nosini bildirgan bo‘lar edi. Ammo ushbu hududning gidronimlari tarkibida mo‘g‘ul etnonimlari, deyarli, to‘liq yo‘qligi, ushbu fikrning asossiz ekanligini ko‘rsatadi. Undan tashqari, geografik voqelik bunday taxminga javob bermaydi, chunki Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumanidagi To‘polonsoy (to‘polon – “battol, quturgan soy”, Sirdaryoning irmog‘i), Tentaksoy (tentak – “battol”) kabi bu turdagi nomlar suv oqimi xarakteridan kelib chiqilgan holda berilgan.

Y.Koychubayev: “Jetisoy – Chimkent viloyatidagi shahar tipidagi aholi punkti. Ma‘nosi jihatidan “ko‘p” va “say” – “log”, “kanal”, ya‘ni quruq soylari ko‘p bo‘lgan hududdir”⁷⁴, – deb yozadi.

Arnasoy. Jizzax viloyati hududida joylashgan. Arnasoy gidronimidan yangi nomlar hosil bo‘lgan: Arnasoy ko‘llari, Arnasoy tumani, Arnasoy qishlog‘i, Arnasoy qo‘rg‘oni va boshqalar.

Arnasoy – Qizilqum cho‘llarida tutashgan Murzacho‘lning shimoli-g‘arbiy qismidagi pastliklar, hozirda suv bilan to‘ldirilgan. *Arna* – “jarlik”, “kanal”, “soylik”,

⁷¹ Атаниязов С.М. Ко‘rsatilgan lug‘at. – С. 148.

⁷² Атаниязов С.М. Ко‘rsatilgan lug‘at. – С. 155-156.

⁷³ Номинханов Ц.Д. Монгольские элементы в этнонимике и топонимике Узбекской ССР/ Записки: Калмыцкий научно-исслед. ин-т языка, литературы и истории при Совете Министров Калм.АССР. – Элиста, 1962. – С.270.

⁷⁴ Койчубаев Е. Ко‘rsatilgan lug‘at. – С.78.

“jar”, “arna” so‘zi juda qadimgi. *Arna* – daryodan hosil bo‘lgan kanal⁷⁵. V.V.Bartoldning so‘zlari bo‘yicha quyidagi sitata keltiriladi: “xorazmiy tili o‘zbek tili leksikasining Xorazm shevalarida o‘z izini qoldirgan (masalan, sug‘orishda xorazmiy terminlari saqlanilgan: *arna* – “katta kanal”, *yop* – “kichkina kanal, ariq”⁷⁶. Shuningdek, “arna” atamasining etimologiyasi to‘g‘risida E.V.Sevortyan quyidagilarni yozgan: 1. ariq – (ko‘plab turkiy tillarda) sug‘orish kanali. ariq – umumiy ma‘nosi oqib chiqmoq, singmoq (suv to‘g‘risida)... arna- (/ - (aftidan, -ar dan – iga medial shakldan, ya‘ni arin+a). “Kanal”, “daryo irmog‘i”⁷⁷.

Oqsoy – Qizilqum hududidagi Nurmaxan qishlog‘ining sharqida joylashgan, Oqsoyda bir metr balandlikda o‘svuchi Aqbas nomli o‘simlik ko‘p o‘sganligi sababli bu soyning nomi “Oqsoy” deb nomlangan.

Yelsoy – Uchquduq shahrining shimoliy sharqida joylashgan, Bu soyda doimiy kuchli shamol bo‘lib turgani uchun mahalliy aholi bu soy nomini “Jelsoy” deb atashgan.

Qayroqlisoy – Uzunquduq ovulining sharqida joylashgan. Soy tubi qayroqtoshli bo‘lganligi uchun “Qayroqtisoy” deb atalgan.

Kampirsoy– Konimex tumani, Balaqaroq qishlog‘ida joylashgan soy nomi

Kengsoy –Konimex tumanidagi soy. Og‘itma ko‘lining janubida joylashgan katta soy.

Qudug – xalq geografik atamasi sifatida butun Markaziy Osiyo gidronimlari tarkibida keng tarqalgan. Gidronimlarning aksariyat qatori mazkur gidronimik atamalar yordamida yaratilgan. E.Murzayev bu haqida shunday deb yozadi: “...atama Ukraina janubidan Sharqiy Sibirgacha bo‘lgan kengliklarga yoyiladi. Povolje, Qrim, Shimoliy Kavkazning rus lahjalarida ma‘lum”⁷⁸. “Qudug” atamasining kelib chiqishi turkiy

⁷⁵ В.В.Радлов, Опыт словаря тюркских наречий. Т.І. – Санкт-Петербург: Императорской Академии Наук, 1893. – С.303.

⁷⁶ Xudoyberganov R.Y. va boshq. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – B.31.

⁷⁷ Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. – М.: Наука, 1974. – С.188.

⁷⁸ Мурзаев Э.М. Ко‘rsatilgan asar. – С.308.

qatlamga mansub⁷⁹. Kuzatishlarimizga ko‘ra, quduq atamasi Qizilqum hududi gidronimlari tarkibida eng ko‘p ifodalangan bo‘lib, hozirgi vaqtda sun‘iy 316 ta suv havzalarini va ushbu obyektlarning 316 ta til belgilarini aniqladik.

Oyko‘nek quduq Ko‘nek urug‘ining nomi bilan atalgan. Quduq Zarafshon shahridan Uzunquduq ovuliga boradigan yo‘l bilan harakatlanayotgan Navoiy-Uchquduq temiryo‘lini kesib o‘tishda joylashgan. Hozirgi paytda u yerda aholi yashamaydi.

Oq murt quduq – Alim urug‘ining Izbosar degan oq mo‘ylovli odami qazdirgani uchun “Oq murt quduq” deb atalgan.

Oq quduq – suvi muborak quduq degan ma‘noni anglatadi.

Oydinbuloq – musaffo, toza buloq degan ma‘noni bildiradi. Bu so‘z ma‘no jihatidan “oq” so‘ziga qarama-qarshi “qora” so‘zi Qizilqum toponimlarini yaratish jarayonida ko‘p qo‘llaniladi. Masalan, Boshiqora qudug‘i, Qora cho‘qqi, Qora bo‘get suv ombori, Qora tepa, Qorao‘y va boshqalar.

Ayrim viloyatlar toponimiyasida gidronimik atamalarsiz shakllangan gidronimlar mavjud. Ularga o‘rganilayotgan obyektga tutash suvlar nomlaridagi gidronimik atamalar ishtirokisiz hosil bo‘lgan suv nomlari kiradi. Masalan, sun‘iy sug‘oriladigan hududlardagi Ko‘tarma, Tuya tortar ariqlarini aytishimiz mumkin.

Qolgansir Turkiston viloyati Jetisoy tumanida uchraydigan ko‘l. Ko‘rib chiqiladigan gidronim qolgan//qalg‘an – fe‘l shaklidan va daryoni Sir > qolgan//qal g‘an + sir – so‘zma-so‘z “qolgan Sirdaryo” – kesik shakldan yaratilgan. Shunga o‘xshash nom O‘zbekistonning Toshkent viloyatida uchraydi. Masalan, Qolgan Chirchiq – “qolgan Chirchiq”. Bu holatda u ko‘l emas, Chirchiq daryosining eski o‘zanidir. O‘rganiladigan hududda bunday nomli ko‘llar mavjudligi o‘zanning tez-tez o‘zgarishi va Sirdaryo daryosida suv sathi pasayishi to‘g‘risida dalolat beradi. Mazkur nom Qizilqumning janubiy qismida kuzatiladi.

⁷⁹ Qarang: ДТС, 1969.

Qizilqum hududining gidronimlari ushbu hudud toponimiyasida ahamiyatli o'rinni egallaydi. Bu bir qator sabablar bilan asoslangan.

Birinchi, odamlar qadimdan suvsiz dashtning bepoyon bo'm-bo'sh yerlarini o'zlashtirishga intilganlar. Qadimgi sug'orish inshootlari qoldiqlari dashtning ba'zi qismlarida, ya'ni karizli sug'orish tizimi mavjudligi to'g'risida Qizilqumda kariz toponim-gidronim saqlanganligidan dalolat beradi.

Ikkinchi, suvsiz cho'l hududida hattoki kichik suv havzasi ham hayot uchun muhim qiymatga ega. Chunki Qizilqumda (har bir cho'lda) suv havzalarining mavjudligi juda ham muhim rol o'ynaydi. Cho'l hududida ko'chma chorvachilik uchun ichimlik suv manbalarisiz mumkin emas. Suv havzalarining xususiyatlari to'g'risida mahalliy aholi avloddan avlodga ma'lumotlarni yetkazgan. Masalan: *qoq yoki achchiq (sho'r)*.

Qoq qozoq tilining izohli lug'atida: Qoq – kuchli yog'ingarchilikdan keyin paydo bo'ladigan suv⁸⁰.

Qulanqoq. Qoq – qish va bahor oylarida suv to'planadigan taqir joy. Qulanqoq – Uzunquduq ovulining g'arbiy qismida Uzunquduq-Uchquduq asfalt yo'lidan chap tomonda joylashgan. Qulanqoq qudug'idan 5 kilometr narida Mo'min ota (xo'ja) maqbarasi bor.

Toyloqqoq. Jalgasbay va Qalmenbay degan odamlar tomonidan qazdirgan. Ko'priknig uzunligi 200 metrni tashkil qiladi. Qoqning boshiga toyloq so'yilgani uchun nomini shunday atagan.

Asauqoq. Qaraq ota aholi punktiga qarashli joy nomi. Asovqoq “jilovlanmagan suvli joy” ma'nosida keladi. Ushbu toponim *asov+qoq* shaklida sifat+ot so'zlarining birikmasidan yasalgan bo'lib, *asov* – tobe so'z, *qoq* – hokim so'z, atributiv munosabat: aniqlovchi+aniqlanmish – sifatlovchi+sifatlanmish, aniqlovchili birikma, tobelanish, bitishuv, sifat+ot, pozitsion vosita, o'tli birikma. Ushbu yasama toponim mavjud oykonimik asosga (*asov-asau*, hudud dialektidan kelib chiqib –*asov* so'zi *asau* tarzida

⁸⁰Қазақ тілінің түсіндірме сөздігі.т. 2, – Алматы: Ғылым, 1961. – Б. 22

talaffuz etilgan) oykonimik aniqlagich (qoq)ning qo‘shilish jarayonidan oykonim yasalishi ro‘y bergan, keyinchalik onomastik leksika sathida toponimlashuv hodisasi natijasida (Asauqoq) toponimlar sathiga ko‘chganligini inobatga olishimiz lozim.

Belto‘v tashqarisidagi u joy besh qismdan iborat. Bir boy yerning bir qismiga egalik qiladi. Yozda suv taqchil bo‘lgani uchun o‘sha boy: “Suvning bir tomchisi ham suv”, – deb suv ichsa, soqoli suvga botib, isrof bo‘ladi, deb echkilarining soqollarini kesib tashlagan.

Mektepqoq. Mektep ismli kishi tomonidan qurilgan to‘g‘on.

Ta’kidlanganidek, termin *qoq va achchiq* xalq geografik atamalarida kam uchrayotgani qayd etildi va bu haqiqiy fakt, chunki Markaziy Osiyo toponimiyasida qoq kam uchraydigan atama. E.Murzayev turli turkiy tillarda, shuningdek, mo‘g‘ul tilida bu mashhur geografik atamani qayd etadi: Qoq – atmosfera suvi – yomg‘ir yoki erigan qor to‘planadigan chuqur. Uning chuqurligi 1 metrgacha, kengligi esa 2-3 metrgacha, kamdan-kam hollarda ko‘proq bo‘ladi. O‘lchovda to‘plangan suv ba’zan taxminan 1,5 – 2 oyni tashkil qiladi; yozda u quriydi va ingichka tuz qatlamini hosil qiladi⁸¹. Qirg‘iz. qoq – “chuqurlik”, yomg‘irli suv to‘xtaydigan chuqur, “pastdagi botqoqlik”, olt. – “quruqlik”, “qattiq yer”, “quruq yer”; qozoq. “sayoz, kichik, tekis ko‘l, odatda quriydi”; Qalm. xag – “loy”; xalxa-mong. xag, xaq – “sho‘r botqoq”, “qurugan sho‘rxok botqoq”, “sho‘rlangan loy”, qoq “ko‘lmak”, “ko‘lmak suv”. Mintaqaviy geografiyada, O‘rta Osiyoga oid adabiyotlarda, qoq – gil tuproqda joylashgan va atmosfera yog‘inlari bilan oziqlanadigan sirti ochiq suv ombori. Bunday suv havzalari vaqtinchalik qiymatga ega va yoz boshlanishi bilan suv, asosan, quriydi.

Shunday qilib, biz o‘rganayotgan geografik hudud keng ko‘lamda ifodalangan va tili jihatdan chiroyli, fizik-geografik obyektning joylashish hududi aniq qayd etilgan. Milliy geografik atama tarkibida qoq komponentli gidronimlar cho‘l hududining og‘ir sharoitlarida hayotiy ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli Qizilqum hududi toponimik tizimida muhim ma’noga ega.

⁸¹ Мурзаев Э.М. Ko‘rsatilgan asar. – С. 301.

Faqatgina Qizilqum hududi toponimiyasida biz asosiy tuzilish komponenti sifatida mazkur xalq geografik atama gidronimlarini yaratish jarayonidagi chastotalikni kuzatamiz. Misol sifatida Toyloqqoq, Qizilqoq, Asauqoq, Beshqoq, Nurmuratqoq, Qoqota, Mektepqoq, Yulduzqoq, Boqayqoq, Qoqqush, O'risqoq, Borqoq, Buyanqoq, Qulanqoq toponimlarini keltiramiz.

Tadqiq etilayotgan hudud gidronimlarining nominatsiya xususiyatlarini hisobga olgan holda, ular, asosan, kelib chiqishi antroponimik, fitogidronimlar va zoogidronimlar ham borligini ko'rsatadi. Qolgan gidronimlar nominatsiyasi boshqa sabablar bilan bog'liq edi.

Qizilqum hududida maxsus ko'rib chiqilmagan *achchiq* (achchy), aslida *sho'r* xalq geografik atamasi (ichishga yaramaydigan, sho'r, sho'rxok suv manbasi) kuzatilgan gidronimlar aniqlandi. Ammo shunday suv havzalaridan ham Qizilqum hududining fizik-geografik sharoitlari sababli mahalliy aholi tomonidan foydalanilgan. A.E.Jartibayevning ta'kidlashicha, qozoq xalqi suv manbalarining yaroqli va yaroqsizligini hisobga olgan, qaysi o'simlik qaysi o'simlikka mos kelishini qadimdan tushunib kelgan. "Achchiq" atamasi, ko'pincha, yaylovning xususiyatlarini va suvining sho'rlanish darajasini tavsiflovchi gidronimlarda uchraydi. Masalan: Achchilisoy va Achchio'zak toponimlaridagi soy va o'zak ko'rsatkich atamalari soyga nisbatan o'zakda suvning ko'proq, o'zakka nisbatan soyning chuqur va undagi o'simliklarning ko'pligini bildiradi. Achchiqqorasuv limnonimi (yunoncha λίμνή – "ko'l", ονομά – "nom") esa tekis, sho'r suvli, yoz yoki bahorgi vaqtincha chorva yaylovi tushunchasida ishlatiladi.⁸² Bu to'g'risida achchiq (achchy), (sho'r) komponentli gidronimlarning, deyarli, katta soni dalolat beradi: *Beshachchiq*, *Achchiq quduq*, *Jilmanachchiq*, *Itachchiq*, *Achchiqbuzon* (antonim juftlik *Tuchchibuzon* (chuchuk), *Muytenbayachchiq*, *Qospanachchiq qudug'i*, *Sadirachchiq qudug'i*, *Sultonachchiq qudug'i*, *Baynazarachchiq qudug'i*, *Achchiq qamishli qudug'i*, *Pirmanachchiq qudug'i*, *Qosoyachchiq qudug'i*, *Amantayachchiq qudug'i*, *Achchiqbuloq*, *Achchiqtepa*, *Nishanbayachchiq*, *Nurjauachchiq*, *Oltiachchiq*, *Nazarbekachchiq*, *Yelemesachchiq*,

⁸² E. Арапбаев. Қызылқұмдағы топонимдер мен олардың этимологиясы. Тошкент: SAHHOF, 2022. —320 б.

Qulshoraachchiq, Yomonachchiq, Urinachchiq, Yaxudaachchiq, Nuriachchiq, O'zbekboyachchiq, Murodaliachchiq, Ayapachchiq, Atimbayachchiq, Ashirbekachchiq, Uchachchiq, Sharapachchiq, Bayimbetachchiq.

Shunday qilib, Qizilqum hududining maxsus adabiyotlarda tasvirlanmagan o'ttiz to'rtta gidronimlari tarkibida achchiq (achchy) so'zi xalq geografik atamasi sifatida qo'llanilgan. Achchiq, bu yerda ichib bo'lmaydigan, sho'r suv manbai ma'nosida mintaqaning fizik-geografik sharoiti murakkabligini ko'rsatadi. Mazkur xalq geografik atamasi Qizilqum hududining umumturkiy toponimiyasiga bag'ishlangan tadqiqotda birinchi bor aniqlanganligi va tavsiflanganligi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Qizilqum hududining aksariyat qismini antroponimik kelib chiqishga ega gidronimlar egallaydi. Bu tabiiy, chunki suvsiz cho'l yerlarning o'zlashtirilishi inson faoliyati bilan bevosita bog'liq edi. Bundan tashqari u yoki bu gidroobyektning qurilishi butun bir hodisa: uni qazigan odam, rahbar, ish tashkilotchisi yoki qurilishga mablag' ajratgan odam nomi bilan nomlangan. Masalan, quduq nomlari gidronimlarning asosiy qismini antropogidronimlar tashkil etadi. Suvsiz cho'ldagi quduqlar hayot uchun muhim bo'lgan obyektlar edi. Mazkur omil sababli quduq nomi quduq atrofida paydo bo'lgan aholi punkti nomi bilan almashtirilgan. Shu tariqa gidronim-oykonim transonimizatsiyasi kuzatiladi va antropogidronimlar paydo bo'ladi.

Antropogidronimlar shaxs nomlari asosida vujudga kelgan suv obyektlari: soy, ariq, buloq, quduq, hovuz, ko'l va boshqalarning atoqli otlaridir⁸³. Bunday nomlar kishilarning suv obyekti bilan munosabatini – unga egalik, barpo etganlik kabi dalillar asosida motivlanganligi, atalganligini ifoda qiladi⁸⁴. Masalan, Kenbay quduq, Xolmurodqazg'on, Sarbay qazdirg'on quduq, Sarbay qazg'on munara, Muxammedjon quduq, Buzaubay quduq, Musirep quduq va shu kabilar.

Shuningdek, tadqiq etilgan hududda turli komponentlarni qo'llash jarayonida paydo bo'lgan gidronimlar ko'p uchraydi. Masalan, Jing'ildisoy, Og'itma ko'li,

⁸³ Охунов Н. Антропотопонимлар ва уларнинг ясалиши //Тил ва адабиёт таълими. 2005. №1. – Б.92

⁸⁴ Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: ДДА. – Тошкент, 2010. – Б.28

Mingbuloq va boshqalar. Paydo bo'lishi turli omillar bilan bog'liq gidronimlar ham mavjud: Ot quduq (Ot fermasi bo'lgan), Besh quduq, Toldi quduq (Qizilquduq bilan O'razjanning o'rtasidagi quduq), Toldi quduq (Navoiy-Ushquduq yo'lida), Toldi quduq, (Konimex tum. Ushtepa ovul Ispan qudug'ining shimolida), Yangiqazg'on quduq, Qoshquduq, Jusantepa qudug'i (Og'itma ko'lining janubida), Koriz (odamlar o'zlari qo'lda qazigan yer osti suv yo'li), O'kizquduq (O'kiz tog'ining nomiga qo'yilgan), Qulanqoq (qulan suv ichadigan yer), Uzunqoq, Oqsoy, Oq murt quduq (Alim urug'ining Izbasar degan oq mo'ylovli odami qazdirgan), Oq quduq, Oydinbuloq (musaffo, toza buloq), Ayaqqquduq, Sigir quduq, Qulquduq, Qulquduq bulog'i va boshqalar.

1.3.8. Oronimlar tadqiqi va oronimiyadagi anatomik atamalar

Toponimikaga oid ilmiy manbalarda oronimlar turlicha qayd etiladi. S.Qorayev: "Oronim (oros – tog', onoma – nom, ism) – tog'lar, tepaliklar, qirlar, soyliklar, daralar va boshqa orografik obyektlarning nomlari", – deb yozadi⁸⁵. S.Karimov, S.Bo'riyevlar oronimlarni "tog'larning nomlari" deb izohlaydi va bu guruhga cho'qqilar, tepalar, qirlar, dovonlar, daralar, jarlarning nomlarini ham kiritish mumkinligini aytadi⁸⁶. T.Enazarov sohaga doir terminlarni quyidagicha izohlaydi: "Oronim – baland, pastliklar, tog', tepalar nomi. Oronimiya – baland, pastliklar, tog' va tepalarning nomlari yig'indisi. Oronimika – baland, pastliklar, tog', tepalar nomlarini o'rganuvchi bo'lim"⁸⁷. Oronim termini E.Begmatov, N.Uluqovlarning terminologik lug'atida mukammalroq izohlangan: "Oronim (yun.oros – tog' + onoma – atoqli ot) – yer yuzasi relefidan bo'rtib, ko'tarilib chiqqan har qanday baland joylar (tog', qir, tepa, cho'qqi, dovon va boshqalar) atoqli oti"⁸⁸. Ilmiy talqinlarni umumlashtirgan holda oronim terminini quyidagicha izohlash mumkin: oronimlar tog'lar, tog' tizmalari, qirlar, dovonlar, tepalar, tepaliklar, qoyalar, cho'qqilar, toshlar, adirliklar va tog'liklarda

⁸⁵ Qoraev S. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – Б.193.

⁸⁶ Qarang: Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Тошкент: Фан, 2006. – Б.44.

⁸⁷ Эрназаров Т. Номшунослик масалалари. – Тошкент, 2010. – Б.78.

⁸⁸ Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.63.

joylashgan boshqa xil fizikaviy-geografik o‘rinlarni ifodalovchi obyektning atqilari.

O‘zbek tilshunosligidagi toponimikaga oid ilmiy manbalarda oronimika sohasi o‘rganadigan masalalar ko‘lami aniq belgilanmagan va ko‘rsatilmagan. Ilmiy manbalarda bu masalaga doir quyidagi izohlarga kuzatiladi: “Oronimika – toponimikaning ma’lum bir til yo hudud oronimlari majmuini o‘rganadigan bo‘limi”⁸⁹. S.Qorayev bu terminga quyidagicha izoh beradi: “Oronimika – toponimikaning oronimlarni vujudga kelishi, taraqqiyot qonunlarini va amal qilishini o‘rganadigan kichik bo‘limi”⁹⁰. E.Begmatov va N.Uluqovlar esa oronimikaga “Toponimikaning oronimlarning paydo bo‘lishi va vazifaviy xususiyatlarini o‘rganuvchi tarmog‘i” deb izoh beradilar⁹¹. Sh.Temirov “Obyektning tabiiy belgi-xususiyatlarini tavsiflovchi oronimlar mavzuiy guruhiga obyektning rang-tusi, hajmi, shakli, o‘rni, tuproq qatlami, tarkibi kabi belgi-xususiyatlarni ifodalovchi leksemalar lug‘aviy asos bo‘ladi. Ijtimoiy-iqtisodiy oronimlar aholining xo‘jalik faoliyati, yashash tarzi, mashg‘uloti, kasb-kori, etnik tarkibi bilan bog‘liqdir”⁹² degan ta’rifni beradi.

Oronimlar muayyan bir xil tipdagi oroobyektlarni yakka atash orqali uni boshqa shunday obyektlardan farqlash kabi nominatsion vazifalarni bajaradi hamda o‘zida qimmatli tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-geografik ma’lumotlarni tashishi bilan xarakterlanadi.

Onomastikada oronimika toponimikaning alohida sohasi sifatida 1960-1970 yillarda ilmiy yo‘nalish sifatida shakllana boshladi. Tojikiston oronimiyasi B.A.Alborov, A.Z.Rozenfeldlar tomonidan o‘rganilgan⁹³ bo‘lsa, Rossiyada oronimlarning monografik tadqiqini ilk bor O.T.Molchanova boshlab berdi⁹⁴. 1969-

⁸⁹ Dўsimov З., Тиллаева М. Топонимика асослари. – Тошкент, 2002. – Б.82.

⁹⁰ Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: О‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. – Б.217.

⁹¹ Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.63.

⁹² Темиров Ш.А. Самарқанд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи. Фил.фан.фал.док.(PhD) дисс.автореф. – Самарқанд, 2019. – Б.23.

⁹³ Алборов Б.А. Одно из древних мест поселения предков осетины Средней Азии по данным топонимики, гидронимики и оронимики // 5-ая межвузовская конференция по иранской филологии (тезисы докладов). – Душанбе, 1966. – С.133-139; Розенфельд А.З. Оронимы Юго-восточного Таджикистана // Душанбе, 1966. – С.133-139.

⁹⁴ Молчанова О.Т. Гидронимы и оронимы Горно-Алтайской автономной области (лингвистический анализ):

yilda esa oronimikaga doir ilk ilmiy maqolalar to‘plami nashr etila boshladi. To‘plamga Yoqutiston, Tojikiston, Eron va Qrim oronimiyasi va turkiy, fin-ugor, slavyan tillari orfografik terminologiyasiga doir maqolalar kiritilgan⁹⁵. Turkologiyada ko‘proq gidronim va oronimlarning monografik tadqiqi qo‘shib olib borildi. 1980-yillarda Y.A.Kerambayevning Qozog‘iston oronimlarining leksik-semantik tipologiyasi⁹⁶, V.I.Isrofilovanning Gruziyadagi Ozarbayjon tili oronim va gidronimlari, R.D.Sunchugashevning Xakasiya oronimiyasiga doir dissertatsiyalari⁹⁷ yuzaga keldi.

N.A.Lasinova Janubiy-Sharqiy Boshqirdiston oronimiyasi bo‘yicha ilk lingvistik tadqiqot yaratdi⁹⁸, biroq uning oronimlarga har qanday yer osti obyektlari nomlari – speleonimlarni kiritishiga qo‘shilib bo‘lmaydi.

Speleonim (yun. cpleo – g‘or + onoma – atoqli ot) – yer ostida joylashgan, yer ustiga chiqish yo‘liga ega bo‘lgan har qanday obyektlar (g‘orlar, yerosti daryolari, buloqlar, sharsharalar, ko‘llar, quduqlar va shu kabilar)ning atoqli oti⁹⁹. Demak, speleonimlar gidronimik ko‘lam sirasiga kiradi.

Qalmiq Respublikasi oronimiyasi N.A.Kichikova¹⁰⁰, Mo‘g‘uliston oronimiyasiga doir ayrim masalalar A.S.Krivochekova-Gatman, M.N.Melxeyev, Ye.V.Sunduyevalarning toponimiyaga doir tadqiqotlarida o‘rganilgan¹⁰¹. P.Enxjargal rang-tus komponentli mo‘g‘ul va yapon tillari oronim va gidronimlarini tipologik jihatdan monografik tadqiq etgan¹⁰².

Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Томск, 1968. – 22 с.; Молчанова О.Т. Географические термины горной части Алтая // Языки и топонимия Сибири. – Томск, 1970. – С. 15.

⁹⁵ Оронимика. Сб. Статей / Ред. Коллегия В.Д. Беленькая и др. – Москва: ЦЫИИГАИК, 1969. – 71 с.

⁹⁶ Керамбаев Е.А. Лексико-семантическая типология оронимов Казахстана: Дис. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1988. – 195 с.

⁹⁷ Сунчугашев Р.Д. Оронимия Хакасии: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1999. – 23 с

⁹⁸ Ласынова Н. А.Оронимия Юго-Восточного Башкортостана (Лингвистический анализ): Дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2004. – 174 с.

⁹⁹ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.70.

¹⁰⁰ Кичикова Н.А. Заметки к изучению оронимии Республики Калмыкия // Известия ВГПУ. – Волгоград, 2010. – С.110-114.

¹⁰¹ Кривошечкова-Гатман А.С. Структурные типы топонимов Коми-Пермяцкого происхождения в Верхнем Прикамье // Ономастика. Типология. Стратиграфия: сб.ст. – Москва, 1988. – С.34-35; Мельхеев М.Н. Топонимика Бурятии. История, система и происхождение географических названий. – Улан-Удэ, 1969; Сундужева Е.В. Числительные в составе монгольских топонимов // Культура народов Сибири: традиции в современность. – Улан-Удэ, 2002. – С.176-181.

¹⁰² Энхжаргал П. Типологическое исследование оронимов и гидронимов с компонентом цветообозначений в японском и монгольском языках: Дис. ... канд. филол. наук / Монгольский государственный университет. – Улан-Батор, 2005. – 124 с.

O.V.Peteshova Kaliningrad oblasti oronimlarni tarixiy-lingvistik jihatdan tahlil qilgan¹⁰³. Oltoydagi rus oronimlari nominatsion aspektida T.V.Chernishova tomonidan o'rganilgan¹⁰⁴. Ye.V.Svetkova Kostroma oronimlarini Kostroma etnomadaniy birligi sifatida tadqiq etadi¹⁰⁵. Bu tadqiqotlar oronimikaning mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishiga asos bo'ldi.

O'zbek tilshunosligida oronimlar tadqiqi borasida H.Hasanovning alohida o'rni va xizmatlari bor. Olimning "O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan" risolasida oronimlar tahliliga ham o'rin ajratilgan¹⁰⁶.

O'.A.Oripov Nurota toponimining etimologiyasini hamda *tog'*, *cho'qqi*, *qir*, *tepa*, *g'or*, *dara* oronimik indikatorlari asosida hosil qilingan oronimlarni tadqiq etgan¹⁰⁷. Tarix yo'nalishida Sh.S.Kamoliddin O'rta Osiyo qadimgi turkiy toponimiyasiga doir tadqiqotida oronimlarga ham muayyan o'rin ajratgan¹⁰⁸. O.Begimov Janubiy O'zbekiston oronimlarini tarixiy jihatdan o'rgangan¹⁰⁹.

Rus tilshunosligi, turkologiya, jumladan, o'zbek tilshunosligidagi oronimikaga doir tadqiqotlar tahlilidan ko'rinadiki, Boshqirdiston, Tog'li Oltoy, Xakasiya, Qozog'iston oronimlari monografik o'rganilgan bo'lsa-da, O'zbekiston Respublikasi oronimiyasi ayrim maqolalarni, toponimik leksikografiyadagi izoh, tahlillarni e'tiborga olmaganida, monografik tadqiq etilmagan, hatto hududlar bo'yicha oronimiya materiallari to'planmagan, mukammal oronimik xaritalar hamda oronimik lug'atlar tuzilmagan.

O'zbekistondagi islohotlar va yangilanishlar yangi bosqichga kirgan bugungi kunda respublikaning Toshkent, Namangan, Farg'ona, Andijon, Jizzax, Samarqand,

¹⁰³ Петешова О.В. Историко-лингвистический анализ оронимики Калининградской области // Вестник Балтийского федерального университета им. И.Канта. Сер.: Филология, педагогика, психология, 2016. № 3. – С. 44-49.

¹⁰⁴ Чернышова Т. В. Русская оронимия Алтая в аспекте номинации. Автореф.кан.филол.наук. – Томск, 1988.– 17 с.

¹⁰⁵ Цветкова Е.В. Костромская оронимия как отражение особенностей костромской этнокультурной зоны / Вестник Костромского государственного университета им. Н.А. Некрасова. – 2009. – Т.15. №3. – С.181-185.

¹⁰⁶Хасанов Х. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1963. – Б.19-21.

¹⁰⁷ Орипов Ў.А. Нурота тумани макро ва микротопонимиясининг лисоний таҳлили: Тошкент, 2003. – Б. 22. Орипов Ў. Нурота топонимининг этимологияси // Жой номлари – халқ тили ва маданиятининг нодир мероси. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Навоий, 1998. – Б.58-59.

¹⁰⁸ Камолитдин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. – Ташкент: Шарк, 2006. – С.39-44.

¹⁰⁹ Бегимов О. Жанубий Ўзбекистон оронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Voris-nashriyoti, 2018. Б. – 226.

Navoiy viloyatlari oronimlari va oronimik indikatorlarini to‘plash, kartotekasini tuzish, tilshunoslikning lingvogeografiya, semiotika, semantika, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, derivatsiya kabi soha va yo‘nalishlari hamda geografiya, tarix, etnologiya, turizm fanlari aspektida tadqiq etish, oronimlarning imloviy, izohli lug‘atlarini tuzish o‘zbek onomastikasining dolzarb vazifalaridir.

Qizilqumning oronimiyasi boy va xilma-xildir. Bu hududning tuzilishiga oid mavjud adabiyotlarda u tekis joy ekanligi aytiladi. Biroq biz to‘plagan toponimik material bunday tavsifga ziddir. Hudud toponimlarining shakllanish va faoliyat ko‘rsatish xususiyatlarini o‘rganish toponimlar tarkibida xalq geografik atamalari hududning fizik-geografik xususiyatlarini aks ettirishini aniqlash imkonini berdi. “Geografiya ensiklopediyasida” [GES, 1989] hudud tekisligi qayd etilgan bo‘lsa, unda mazkur cho‘lda biz tog‘ (tau) so‘zi tez-tez ishlatilishini kuzatamiz. Demak, Qizilqum hududida oronimlar ko‘p, ularning tuzilishida tov atamasini uchratamiz: *Bo‘kantov, Quljuqtov, Auminzadatov, Murintov, Tomditov, Oqtov, Qorator, Yetimtov, Sulton Uveys tog‘i, Shoqitov, Dauqiztov, Keregetov, Lau-lautov, Derbistov, Balpantov*. Toponimikada bunday tartibning yuzaga kelishi, bizningcha, nominatsiya qonuniyatining inkor sifatida faoliyat ko‘rsatishi bilan bog‘liq.

Qizilqum hududi toponimiyasida yuqorida qayd etilgan hodisa bilan bir qatorda toponimikadagi inkorlik qolipiga ko‘ra, bu hududda *tepa* “do‘nglik” terminli oronimlar ham ko‘p uchraydi: Jusantepa, Qoratepa, Qo‘ng‘irtepa, Ko‘ktepa, Jolaytepa; *jar* atamasi “chuqur qoya” ma’nosini ifodalaydi, masalan, Oqjar; *o‘y* “cho‘nqirlik” ma’nosini ifodalaydi: Qizilo‘y, Batiro‘y; *bel* “tepalik” ma’nosini ifodalaydi, masalan, Saribel.

Qizilqum to‘g‘risidagi ensiklopedik adabiyotlarda bu asosan tekis hudud deb aytilgan. Ammo ko‘rganimizdek to‘plangan toponimik material o‘rganiladigan hududda oronimlar taxmin qilganimizdan ko‘ra ancha ko‘proq ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu hodisa omili sababli Qizilqum tuzilishida, ya’ni baland bo‘lmasa ham, tog‘lar va tepaliklarning ko‘pligi, masalan, *tog‘* xalq geografik atamasiga ega bo‘lgan sezilarli miqdordagi oronimlarning; *bel* “tepalik”; *tepa* “do‘nglik” komponentli oronimlarning katta miqdorining mavjudligi aytiladi.

Biz tadqiqotimiz davomida Qizilqum hududida milliy geografik atama tog' nomi tarkibida ishtirok etgan holda ifodalangan 60 ta oronimni aniqladik: *Keregetov, O'kiztov, Qasqirtov, Tulkitov, Aristantov, Tomditov, Nuratatov, Kelinchaktov, Tobabergentov, Besapantov, Bo'kantov, Altintov, Murintov, Pistelitov, Boztov, Balpantov, Qoratorov, Aytimtov, Baqalitov, Boshog'itmatov, Jalpaqtov, Tumshiqtov, Alimtov, Sulton Uvays tog'i, Shoqitov, Dauqiztov, Keregetov, Lau – lau tov, Derbistov, Tauabergen tog'i, Quldar tog'i, Qo'shpaqtov, Qo'rg'antov, Qayraqtov, Qazaqtov, Keriztov, Jetimtov, Erler tog'i, Gujimiditov, Burkittov, Beltov, Amantaytov* va boshqalar. Masalan, *Qoratorov* (Qora tov belidan yuqoridagi dovon), *Qasqirtov* (Uchquduq shahrining shimoli-sharqidagi tog'), *Tulkitov* (Qaqqatoshning janubi-sharqidagi tog'), *Jeltumshiq* (Keregetovning davomi), *Toqtitov* (Jeltumshiq tog'i davomi), *Oqsaritov, O'rkeshitov, O'giztov, Ushtov, Ko'ktov, Toqtitov* (bu yerdagi tog'larning cho'qqilari), *Oqjar* (Qizilquduq ovulidan 3 kilometr g'arbda joylashgan qoya). Bir qarashda, Qizilqum hududidagi oronimlar kam sonli bo'lishi kerakdek tuyuladi, chunki u asosan, tekisliklardan iborat. Mavjud bo'lgan chuqurliklar va pasayishlar esa asta-sekin suvosti suvlari bilan to'ldirilgan va ko'llarga, soylarga aylanib gidronimlarning tarkibini to'ldiradi.

Qum – relyefni ifodalaydigan atama. Qizilqum hududi toponimiyasida ham keng tarqalgan. Bu, birinchidan, hududning fizik-geografik sharoitlari bilan bog'liq. Bir zamonlarda ushbu hududni dengiz qoplagani qayd etilgan. Shunda Sirdaryoning faolligi o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan va tez-tez o'z oqimini o'zgartirib, quruq qumli irmoqlarni qoldirib yoki qum qiyalarni yuvib yuborgan.

Qum komponentli nomlar ham O'rta Osiyo va Qozog'iston toponimiyasida ko'p uchraydi. Qizilqum va Qoraqumning eng yirik cho'llari shu atamani o'z ichiga oladi. O'rganilayotgan hudud fizik-geografik xususiyatlariga ko'ra Qizilqumga yaqin bo'lganligi sababli, bu atama bilan birga oronimlar ham ko'pchilikni tashkil etadi: *Oqqum, Jalpaqqum, Qumtepa.*

Geografik nomlar tarkibida qum oronimik atamasi “qumli joy, hudud” ma’nosini bildiradi. Xususan, Oqqum – “oq qumli joy”, undan aholi punktining nomi kelib chiqqan; Jalpaqqum – “qumli tekis joy”.

Qoya – o‘zbek tilida qoya indikatori polisemantik xarakterga ega bo‘lib, quyidagi ma’nolarda qo‘llanadi:

– qattiq, tub jinslardan iborat tik ko‘tarilgan cho‘qqi, jarlik, tepa (asosan, qattiq tog‘ jinslarining ochilib, yer yuziga chiqib qolishidan hosil bo‘ladi);

– baland tik tosh, qoyatosh¹¹⁰.

Shuningdek, qoya va qoyatosh so‘zlari o‘zaro ma’nodosh. O‘rta Osiyo va Qozog‘iston geografik toponimiyasida ushbu nom ancha faol ishlatiladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida bu so‘z “qirrasini o‘tkir chuqur qoya, jar”¹¹¹ deb izohlangan. Xuddi shu ma’noda geografik nomlar tarkibida, masalan, Y.Koychibayev lug‘atida 28 ta toponim, S.Ataniyazov lug‘atida esa 7 ta toponim qayd etilgan. Qizilqum hududidagi Oqjar – jarlikning rangiga bog‘liq ravishda nomlangan va Qizilquduq ovulidan 3 kilometr g‘arbda joylashgan. Jamanjar, Jarquduq, Jarchorva (aftidan, o‘zbek tili qoidalariga ko‘ra uzatilgan bo‘lsa kerak. Qiyoslang: o‘zb. “chorva”, qoz.“xo‘jalik” bir xil ma’noda). Shuni ta’kidlash kerakki, bu toponimik atama qadimgi davrlarda rus tilidan o‘zlashtirilgan. Rus tilining etimologik lug‘atida shunday deyilgan: “Yar (jar), turkiy tildan olingan (qarang. “Igor polki haqidagi doston” – yaruga – “jar”). “totor yar” cho‘l qirg‘oq, tubsizlik¹¹².

E.M.Murzayev ushbu atamaning tarqalishini aniqlaydi va uning eng to‘liq talqinini beradi¹¹³. Tadqiq etilayotgan hududda *jar* atamasi, qayd etilganidek, oronimlar va aholi punktlari tarkibida uchraydi: Jarbasi – joy va aholi punktining nomi, jar – jarlik, ya’ni jarlikning boshlanishi, jar yoqasidagi joy; Yirjar – joyning va ko‘lning nomi: yir – “egri-bugri”, jar – “jarlik”, ya’ni “egri-bugri jarlik”.

¹¹⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-ж. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б.353.

¹¹¹ Ўзбек тили изоҳли луғати. – М.: Рус тили, 1981. – С.43.

¹¹² Шанский Н.М., Иванов В.В., Шанская Т.В. Краткий этимологический словарь русского языка. – М., Просвещение, 1971. – С. 525.

¹¹³ Qarang: Murzaev Э.М. Ko‘rsatilgan asar. – С. 178-179.

Aliyarqashg'an– tom ma'noda “Aliyar qochg'an joy” ni bildirgan. Keksalarning aytishiga qaraganda, jang kuni xon o'z qizini o'z haramiga olib ketganidan xabar topgan Aliyar bayrog'ini tashlab qochadi. Bu voqealar to'g'risida Amirtepa (Boyovut tum, Sirdaryo viloyati), ya'ni Buxoro amirining qarorgohi joylashgan joy.

Jizzax viloyatida Erjar aholi punkti bor. Jar atamasining tarkibida mavjud bo'lgan geografik nomlarning tuzilish tartibi qiziqish uyg'otadi. Ushbu nomlarning asosiy qismi atama + atama tartibi bo'yicha tuzilgan, masalan: *Jarquduq, Jarsoy, Jarliko'l, Jarsuv, Jartosh, Jarqum*. Bunda jar atamasi so'zning boshida turadi. Bu tartib bo'yicha Jarboshi oronimi o'rganilgan. Bundan Iirjar istisno, u turkiy toponimiyaga xos bo'lgan an'anaviy tartib bo'yicha qurilgan: aniqlovchi+aniqlovchi (atama). Qarang. Oqtosh – “oq + tosh”, Qizilqum – “qizil + qum”, Achchiqko'l – “sho'r + ko'l” va h.k.

Dovon (aqbo / avg'a / ovg'a / oqba, ko'tal, bel, asu). *Dovon* (mo'g'ulcha daban) – tog'ning oshib o'tish qulay bo'lgan joyi. Sh.Rahmatullayev *dovon* lug'aviy birligini turkiy leksika sirasiga kiritadi va unga quyidagicha etimologik izoh beradi: “bu ot eski o'zbek tilida “tog'dan oshib o't” ma'nosini anglatgan *daba-* fe'lidan *-n* qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik *b* undoshi *v* undoshiga almashgan: *daba-* + *n* = *daban* > *davan*¹¹⁴ .

Tarixiy manbalarda uchraydigan *art, aqba, bel, ko'tal* terminlari ham *dovon* terminining sinonimlaridir. Bu atamalar joyiga qarab ma'nosi jihatidan bir-biridan ozmi-ko'pmi farq qiladi. Masalan, Baxmal va Zomin tumanlarida *dovonni bel* deyishadi, *dovon* deganda esa tog'dan oshaverishga yaqin dam olinadigan tekisroq maydoncha tushuniladi (“Sangzomin beli katta bel, *dovoni border*”), *ovg'a* deganda *dovonga* tik ko'tariladigan yo'l tushuniladi (Qoramozor belining *ovg'asi* buzuv, ya'ni xavfli)¹¹⁵. *Bel* – tog' qirrasining pastroq qismi.

Saribel – ikki komponentli toponim. Qizilqum hududidagi geografik obyekt nomi. *Bel* anatomik atama sifatida *Saribel* oronimi tuzilishida so'zma-so'z “*orqa*”

¹¹⁴ Qarang: Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар) . – Тошкент: Университет, 2000. – Б.93.

¹¹⁵ Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – B. 68.

ma'nosiga ega, ammo oronim tuzilishida ko'chma metaforik ma'noda keladi. *Bel* – xalq geografik atamasi sifatida ko'chma metaforik ma'noda qo'llaniladi: “tog' dovoni, tog' oldi baland qismi”. Shu tariqa, tadqiq qilinayotgan hududda *Saribel* oronimi uchraydi, uning tarkibida *bel* anatomik atamasini ko'ramiz. *Saribel* bu yirik balandliklar tizmasi, uning uzunligi bir nechta kilometrga yetadi. Mazkur obyektning uzunligi Sigirquduq nuqtasidan Nurpeyisquduqqacha cho'zilgan. Balandliklarning bu qismini Ulken *Saribel* deb ataydilar, “Paxtakor” fermasidan Muhammadjon qudug'igacha, keyin Pirekedan g'arbiga kengaygan tizmani Kichi *Saribel* deb ataydilar. Ham katta, ham kichik balandliklarni shu nom bilan ataydilar, bu esa mazkur geografik obyektning uzunligini ko'rsatadi.

Hududda *cho'qqi* indikatorli oronimlar ham kuzatiladi: Uycho'qqi, Qo'shcho'qqi, Narbayning cho'qqisi. Cho'qqi lug'aviy birligi “baland narsaning eng yuqori nuqtasi” ma'nosini anglatadi. Bu so'z asli eski o'zbek tilida “*bosh kiyimi ustidagi qubba*” ma'nosini anglatgan *choq* otidan¹¹⁶ kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi *-i* qo'shimchasi bilan hosil qilingan; keyinchalik *i* unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: *choq + i > choqqi > choqqi*¹¹⁷.

Qizilqum hududi toponimiyasida odamning va hayvonlarning tana a'zolari nomlari bilan kelgan “anatomik atamalar” alohida qiziqish tug'diradi. Ushbu masalani tilga olib, E.M.Murzayev shunday yozadi: “Xalq geografik obyektlarining xususiyatlarini, o'ziga xosligini aniq payqaydi, ularni nomlaydi, metaforalardan foydalanadi. Geografik nomenklaturaga odam va hayvon tanasining qismlari, uy-ro'zg'or buyumlari, qurilish qismlari, hunarmandchilik buyumlarini belgilash uchun atamalar kiritilgan. Bunday metaforik toponimlar umumbashariy qonuniyatdir”¹¹⁸. Toponimlar tarkibidagi anatomik atamalar u yoki bu geografik obyekt tuzilishini rang-barang qiyosiy tavsiflashga xizmat qiladi va metafora sifatida aniq yetkaza oladi.

¹¹⁶ Юдахин К.К. Киргизо-русский словарь. – Москва, 1965. – С.973.

¹¹⁷ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – Б.446.

¹¹⁸ Qarang: Мурзаев Э.М. Тубек рассматривает как «мыс, полуостров» (Мурзаев Э.М. Указ. раб). – С.561.

Umumturkiy toponimikada anatomik nomlarning ham ko'p qo'llanganligini kuzatish mumkin. Masalan, odam yoki hayvonning asosiy organining nomi *bosh // bas*: *Tulkibas* – Qozog'iston Respublikasi Turkiston viloyatining tulki boshiga o'xshash tog' yonbag'ri; Qozog'iston Respublikasining Talg'ar ovuli Olmaota viloyatidagi echki boshiga o'xshash Echkibasi; Qirg'izistonning O'sh viloyatidagi Baubeshtoo; Tojikistondagi Boshbuloq; Ozarbayjondagi Boshqishloq, Boshkend, Ulubosh aholi punktlari va boshqalar. Biz ko'rib chiqayotgan hududda bu anatomik atamani Boshog'itma gidronimi tarkibida kuzatamiz. Oqimning boshlanishi ma'nosini anglatadi. Qizig'i shundaki, *bosh* anatomik atamasi *oyoq* antonimik juftligiga ega. Ko'chma ma'noda qo'llangan bu ikki atama antonim vazifasini bajarib, biror narsaning boshi va oxiri ma'nosini bildirishi mumkin. Binobarin, bunda Qizilqum toponimiyasida ikkilik – qarama-qarshilik namoyon bo'ladi¹¹⁹.

O'rta Osiyoning umumturkiy toponimiyasida toponimistlar o'rganilayotgan birliklar tarkibida anatomik atamalarning qo'llanish chastotasi aniqlangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Qizilqum hududidagi toponim yaratilishida mazkur hodisaning keng tarqalganligini kuzatamiz. Qizilqum hududi toponimlari tarkibidagi anatomik atamalarga quyidagilar kiradi: *oyoq*, *bosh*, *ko'z*, *burun*, *o'rkach*, *bo'yin*. Ular: *Ayaqquduq*, *Boshog'itma*, *Oyoqog'itma*, *Kichiko'z*, *Ulkenko'z*, *Muruntov*, *Moyinqum*, *O'rkeshov*, *Quljuqtov* toponimlar tarkibida namoyon etilgan.

Oyoqog'itma ikki komponentli toponim bo'lib, Qizilqum hududidagi suv geografik obyektining nomi. *Oyoq* – anatomik atama toponim tuzilishida anatomik juftlikka ega. *Oyoqog'itma* toponim tuzilishida *oyoq* so'zi toponim yaratuvchi format sifatida chiqadi va bu holda ko'chma ma'noda qo'llaniladi: “oxiri, nimaningdir oxirgi qismi, bu yerda fizik-geografik obyektning aniq oxirgi qismi, ya'ni *Oyoqog'itma* bulog'ining bir qismi”¹²⁰. Bu holda suv havzasining ko'rib chiqilayotgan nomi antonimik juftlikka ega: anatomik atama *bosh // bas*. O'zbekiston Respublikasining

¹¹⁹ Мурзаев Э.М. География в названиях. – М., Наука, 1979. – С.30.

¹²⁰ Қазақ тілінің түсіндірме сөздігі.т. 1, – Алматы: Ғылым, 1959. – Б. 62.

Qizilqum hududida Ayaqquduq gidronimi tarkibida ham bu anatomik termini kuzatamiz.

Boshog'itma. Bu toponim ikki komponentdan iborat bo'lib, Qizilqum hududidagi suv geografik obyektining nomi. Bu yerda bosh //bas anatomik atamasi odam yoki hayvonning asosiy organining nomidir. Ko'rib chiqilayotgan suv geografik obyektining tuzilishida bosh // bas – fizik-geografik obyektning bosh qismi, ya'ni Boshog'itma bulog'ining boshlanishi bo'lsa, “oyoq//oyoqlar” atamasi bir narsaning oxiri, yakuniy qismi ma'nosida “oyoq//oyoqlar” atamasining antonim juftligi¹²¹.

Shu o'rinda O'rta Osiyo turkiy toponimiyasida katta “ulken” kichik “kishi” sifatlarining qo'llanishi keng tarqalganligini aniqlashtirish zarur. Masalan: Ulken soliq, Kichi soliq // Bola soliq (O'zbekiston Respublikasi Mirzacho'l tum.); Ulken isqali, Kichi isqali (Qozog'iston Respublikasi Turkiston viloyati). Qizilqum hududida biz shunga o'xshash Ulkenko'z, Kichiko'z kabi toponimlarni aniqladik. Bu ikki toponim turkiy toponimiyada yuqorida aytilgan analogiya bo'yicha yaratilgan.

Kichiko'z ikki komponentli toponim – Qizilqum hududidagi geografik obyekt nomi. Bu yerda “ko'z” anatomik atamasi – odam yoki hayvonning ko'rish a'zosining nomidir. Aftidan “ko'z” buloq manbasining kichik ko'zi ma'nosida keltirilgan, chunki qozoq tilida suvning ko'zi degan birikma mavjud, ya'ni “*kichi ko'z*, suv manbasining kichik ko'zi”.

Ulkenko'z ikki komponentli toponim – Qizilqum hududidagi suv bilan bog'liq geografik obyektning nomi. Bu yerda ko'z anatomik atamasi – odam yoki hayvonning ko'rish a'zosi. Aftidan *ko'z* buloq manbasining *katta ko'zi* ma'nosida keltirilgan, chunki qozoq tilida *suvning ko'zi* degan birikma mavjud, ya'ni “*ulkenko'z*” suv manbasining katta ko'zi”.

Quljiqtov Qozoq tilining izohli lug'atida Quljiqtov oronimining etimologiyasini aniqlash bo'yicha ma'lumot bor. Tog' echkilari – arxarlar Quljiqtov tog'larida yashagan. Mazkur atamadan Quljiqtov tog'ining nomi paydo bo'ladi.

¹²¹ Қазақ тілінің түсіндірме сөздігі.т. 1, – Алматы: Ғылым, 1959. Б. – 93.

Sarjal Qizilqum hududidagi geografik obyekt nomi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida *yol* atamasining ko‘chma ma’nosi qayd etilgan, u ko‘chma metaforik ma’noda xalq geografik atamasi sifatida qo‘llaniladi: “Yol. I. Bir qator hayvonlar gardani (bo‘yni)da bo‘ladigan uzun yung, qil tutamlari”¹²². Qizilqum hududida biz obyektning *yol* (*jal*) atamasi ko‘rsatilgan ko‘chma ma’nolariga muvofiq *Sarjal* nomini qayd etdik.

Moyinqum Qizilqum hududidagi geografik obyekt nomi. Bu yerda bo‘yin “moyin” anatomik atamasini kuzatamiz – odam va umurtqali hayvonlar gavdasining bosh bilan tanani biriktiruvchi qismi¹²³. Qizilqum qumlarida shamollar qumlarni uchirib, turli shakllarni chizgan. Ana shunday shakllar Tuya bo‘ynini eslatadigan qumtepalar paydo bo‘lishiga va shu sababli tashqi o‘xshashligi bo‘yicha metaforik yo‘l bilan hosil bo‘lgan. Xalq orasida bunday obyektlar *Moyinqum* deb atala boshlangan. Tuya bo‘yni “moyin” atamasi ko‘chma ma’noda ishlatiladi. Umuman, turkiy toponimiyada anatomik atamadan yaralgan nomlar ko‘p, ya’ni tuyaning tana qismlaridan yaratilgan. Masalan: *Tuyabo‘g‘iz*//*Tuyamoyin* (O‘rta Chirchiq tumanidagi shaharcha, Bo‘ka, Piskent tumanlaridagi qishloq. Daryoning tuya bo‘g‘iziga — bo‘yniga o‘xshab buralib oqadigan joyi *tuyabo‘g‘iz* yoki *tuyamoyin* deb ataladi)¹²⁴.

O‘rkeshtov Qizilqum hududidagi geografik obyekt nomi. “O‘rkach” anatomik atamasi so‘zma-so‘z “tuya o‘rkachi” ma’nosini bildiradi. Hayvon organining nomi. Lug‘atda: “tuyaning orqa sirtida bitta yoki ikkita bo‘ladigan, qalin yog‘ qatlamidan iborat do‘ng o‘simta” kabi izoh keltirilgan hamda atamaning ko‘chma ma’nosi ham qayd etilgan: “tepalik, tog‘ va cho‘qqining o‘rkachga o‘xshash joyi”¹²⁵. Bizning holatimizda *O‘rkeshtov* tuya o‘rkachi bilan tashqi o‘xshashligi bo‘yicha paydo bo‘lgan.

Shu tariqa hudud toponimlari tarkibida: oyoq, bosh, bel, jal, ko‘z, o‘rkach, bo‘yin, bug‘oz anatomik atamalari aniqlangan:. Bular asosan, ikki komponentli toponimlar yasashda xizmat qiladi, quyidagi tur bo‘yicha paydo bo‘lgan: apellyativ + anatomik

¹²² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. 2006. Б.– 32.

¹²³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. 2006. Б.– 401.

¹²⁴ Qorayev S. Toponomika. – T.: “O‘zb. faylasuflar jamiyati”. B. – 2006

¹²⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. 2006. Б.– 59.

atama. Qizilqum hududida mazkur turkumga oid: Saribel, Ayaqquduq, Boshog‘itma, Oyoqog‘itma, Kichiko‘z, Ulkenko‘z, Mo‘yinqum, O‘rkeshtov, Quljiqtov nomlari uchraydi. Toponimlar tarkibidagi anatomik atamalar ko‘chma metaforik ma’noda qo‘llaniladi. Qizilqum hududining toponimlar tarkibidagi ayrim anatomik atamalar anatomik juftligiga ega bo‘lib, qarama-qarshilik ma’nosini keltirib chiqargan. Masalan, oyoq // bosh. Geografik obyektning toponimik tarkibida bosh, “oyoq//oyoqlar”, “oxiri, nimaningdir oxiri, bu yerda fizik-geografik obyektning aniq oxirgi qismi” atamasining anatomik juftligidir, ya’ni Boshog‘itma buloqning bir qismi; Qizilqum hududining boshqa toponimlari Kichiko‘z // Ulkenko‘z katta “ulken”, kichik “kishi” sifatlari anatomik juftligi ishtirokida yaratilgan. Jumladan, Kichiko‘z // Ulkenko‘z.

O‘zbek tili oronimlarining qadimiyligi, turg‘unligi, yashovchanligi, o‘zida turli tarixiy-geografik axborotlarni mujassam etganligi ushbu onomastik birliklarni tarix, geografiya, arxeologiya, o‘lkashunoslik, tilshunoslik kabi fanlar tomonidan o‘rganishni taqozo etadi.

Birinchi bob bo‘yicha xulosa

1. Qizilqum toponimik tizimining asosiy massasi uchta toponimik termin asosi bilan taqdim etilgan: oykonimlar, gidronimlar, oronimlar. Undan tashqari, ergonimlar (ergotoponimlar), genonimlar (genotoponimlar), dromonimlar, godonimlar, limnonimlarning ma’lum bir soni borligi bilan ham izohlanadi.

2. Hudud toponimlarining semantik xususiyatiga ko‘ra obyektning hajmi, shakli, rangi, soni, miqdori, iqlimiy-tabiiy belgi-xususiyatlari, joylashuv o‘rni, florasi, faunasi, tabiiy boyliklari, emotsional, metaforik tavsifi bilan bog‘liq nomlar sifatida qo‘llanadi.

3. Nominatsion nuqtayi nazardan Qizilqum oykonimlarining kelib chiqishi, asosan, antroponimik va etnonimik xususiyatga ega bo‘lib, lingvistik jihatdan oykonimlarning aksariyati sof turkiy va fors-arab oykonimlari hisoblanadi.

4. Qizilqum hududida gidronimlari antroponimik, zoonimik nominatsion tavsifli hamda boshqa sabablardan paydo bo‘lgan toponimik birliklar ham mavjud. Lingvistik

jihtadan gidronimlarning aksariyat kelib chiqishi – turkiy va rus tillariga xosligi bilan izohlanadi.

5. Qizilqum hududi gidronimlarining asosiy massasi gidronimik atamalar yordamida yaratilgan, qadimiy daryo, soy, suv, o‘zak, hovuz, ariq atamalari negizida gidronimik birliklar aniqlandi va tili tahlil qilindi.

6. Oronimika. Oronimlarning asosiy qismi – tog‘lar nomlari. Hududning tekisligiga qaramasdan ko‘plab oronimlarning paydo bo‘lishi ushbu hudud yuzasining murakkab geofizik tuzilishi bilan izohlanadi, Qizilqum oronimlarining shakllanishida tog‘, tepa, qum orfografik terminlari samarali hisoblanadi.

7. Qizilqum oronimiyasida inson va hayvon tana qismlari nomlarining faolligi, ya’ni anatomik atamalar Qizilqum mikronimlari paydo bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari va mikrotoponimlarning denotatsiyaga yaqinligini ko‘rsatadi.

8. Qizilqum hududidagi oronimlar xalqning tili, tarixi, etnik takomili, urf-odatlar, an’analar, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy munosabatlari hamda hududning tabiati, geografiyasi va boshqalar haqida qimmatbaho, tarixiy ma’lumot beruvchi lisoniy xazinadir.

II BOB. TOPONIMLAR SHAKLLANISHINING TARKIBIY VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

2.1.§. Qizilqum hududi onomastik birliklarining tranonimizatsiyasi

Atoqli otlar o‘z tabiatiga ko‘ra tilning g‘oyatda turg‘in, kam o‘zgaruvchan, o‘zga tillarga tarjimasiz beriladigan materialidir. Shu xususiyatiga ko‘ra atoqli otlar tarixiy, lisoniy va nutqiy jihatdan ilmiy tadqiqot uchun eng ishonchli daliliy vosita bo‘ladi.

Ayniqsa, atoqli otlarning bir ko‘rinishi toponimlarning paydo bo‘lishi tarixi, ularning tuzilish va yasaliş xususiyatlarini o‘rganish lingvistik nuqtayi nazaridan ahamiyatga ega.

O‘zbek tilshunosligida atoqli otlarning yasaliş bo‘yicha E.Begmatov, T.Nafasov, Z.Do‘simov, T.Rahmatov, N.Oxunov kabi tadqiqotchilarning qator ilmiy ishlari nashr qilingan.

Ushbu tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tilda toponimlarning hosil bo‘lishi turli yo‘l va usullar bilan amalga oshiriladi: affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya va h.k.

Onomastik tadqiqotlarda so‘z yasalişining leksik-semantik usulini onomastik konversiya deb yuritilmoqda. “Onomastik konversiya tildagi mavjud leksemalarning hech qanday o‘zgarishsiz yoki sezilarsiz holdagi o‘zgarishlar bilan atoqli ot vazifasiga ko‘chirishdir”¹²⁶.

Konversiya usulida toponimik yasalişning ikki ko‘rinishi: tashqi konversiya va ichki konversiya mavjudligi ilmiy adabiyotlarda qayd qilingan.

Jumladan, N.Uluqov Namangan viloyati gidronimiyasi misolida onomastik konversiya haqida fikr yuritib, ularni qanday manba doirasida yuzaga kelishiga ko‘ra ikkiga ajratadi: tashqi va ichki gidronimik konversiya.

Tashqi gidronimik konversiyada onomastik sathga mansub bo‘lmagan lug‘aviy birliklar, ya’ni apellyativ so‘zlardan gidronimlar yasaladi: Jiyda birligi apellyativi

¹²⁶ Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. М.: Наука. 1973. – С.115.

bo'yicha Jiydani (Chortoq tumanidagi ariq) misol qilib keltiradi. Ichki konversiya esa til lug'at tarkibining onomastik sathi, ya'ni atoqli ot doirasida gidronimlar yasashdir deb izohlaydi. Bunda oykonim, oronim, zoonim, fitonim kabi atoqli otlar gidronimik sathiga o'tadi. Aniqrog'i atoqli otdan yana bir atoqli ot yasaladi, deb qayd etadi¹²⁷.

Atoqli otlar doirasida atoqli ot hosil qilinishini konversiya (ko'chish)ning bir ko'rinishi deyishdan ko'ra uni atoqli ot yasashning mustaqil bir usuli sifatida tranzitiv (o'tish), ya'ni bir tur atoqli otning boshqa tur atoqli otga o'tishi natijasida ot yasash deb baholash lozim. Bunda antroponim hech o'zgarishsiz toponimga, toponim esa gidronimga va aksincha, o'tishlar nazarda tutiladi. Ko'rinadiki, hodisa Qizilqum hududida ham o'z o'rniga ega. Qizilqum hududida shakllanib kelgan toponimlarni qiyosiy-solishtirma jihatdan tahlil qilish, mazkur hodisani batafsil ko'rib chiqish Navoiy viloyatidagi tarixiy toponimlarning rivojlanishidagi tarixiy-lingvistik xususiyatlarni ochib berish imkonini yaratadi. Bu hududda transonimizatsiya jarayonida vujudga kelgan toponimlarga quyidagilar kiradi: Zarafshon daryosi – Zarafshon shahri; Uchquduq qudug'i va aholi punkti – Uchquduq shahri; Tomdibuloq bulog'i – Tomdi tumani va h.k.

Onomastikada nomning bir obyektidan ikkinchi obyektga o'tish hodisasi tez-tez uchrab turadi. Mazkur jarayon chuqur va batafsil o'rganishni talab qiladi. Mutaxassislar orasida bu to'g'risida turli fikrlar mavjud.

Rus onomastik terminologiya lug'atida N.V.Podolskaya bu ko'rinishni tegishli transonimizatsiya va transtoponimizatsiyalarni qismlarga ajratib transonimizatsiya atamasi bilan ifodalaydi. Onomastikada transonimizatsiya hodisasi alohida e'tiborga loyiq. Transonimizatsiya – nomining bir turdan boshqa tur nomga o'tishi. Misol: Kaluga shahri – Kaluga daryo, Samara shahri – Samara familiya, Suvorov familiya – Suvorov shahri. Bu yerda muallif transtoponimizatsiya ko'rinishini ko'rib chiqadi – transonimizatsiya turi, bunda familiya atoqli otga aylanadi: Marks-Marks, Engels-Engelsina, transantroponimizatsiya – transonimizatsiya turi, bir tur toponimining

¹²⁷ Улуқов Н. Наманган вилояти гидронимиясида ономастик конверсия ва трансонимизация// Ўзбек тили ва адабиёти. 2007. №. 5-сон. – Б.77.

boshqasiga o'tishi. Masalan: Jizdra daryosi – Jizdra shahri, Volga daryosi – Voljsk shahri, Neva daryosi – Nevskiy shoh ko'chasi¹²⁸.

Ma'lumki, har bir toponimik tizimda toponimik atamalardan yoki o'rnatilgan toponimlardan yaratilgan geografik nomlar ma'lum bir o'zining o'rniga ega. Yuqoridagi tuzilmalarga nisbatan ayrim ishlarda toponimlar atamasi ishlatiladi¹²⁹. Ushbu turdagi toponimlar nomlarining bir obyektidan ikkinchisiga o'tishi tufayli paydo bo'lgan. Ammo toponim atamasi ham aniq emas, ikkinchidan, atamada tautologiya hodisasi kuzatiladi.

Y.S.Otin bu jarayonni Don daryosi havzasi materialida va Pochva gidronimlari to'plamida ko'rib chiqib, quyidagi so'zlardan foydalanadi: “Kontaktli ko'chirish”, yana bu hodisani “metonimik ko'chirish”¹³⁰ deb ham ataydi. Bu yerda shunga aniqlik kiritish lozimki, quyidagi atama onomastikada birinchi bor Sh.P.Zubarev tomonidan ishlatildi.

N.V.Podolskaya onomastikada mazkur hodisa to'g'risida yana “bu atoqli ot yaqinligi bo'yicha ma'noviy assotsiatsiya asosida o'z bitta obyektidan boshqasiga ko'chirish natijasida paydo bo'lgan”¹³¹ deb yozgan.

Agar biz “kontaktli uzatish” hodisasi haqida gapiradigan bo'lsak, unda bu hodisa ma'lum bir jismoniy obyektning iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan omillariga asoslangan bo'lishi mumkinligini yodda tutish kerak. Ma'lumki, rus toponimiyasida gidronim → oykonim kontaktli ko'chirish eng ko'p uchraydi. Bu ehtimol, sharqiy slavyanlarning azaldan mintaqada joylashish fizik-geografik xususiyatlari bilan asoslangan. Qadimda daryolar ular uchun yozda suv, qishda muz, nafaqat aloqa yo'llari bo'lib xizmat qilgan, balki qirg'oq bo'yidagi aholini baliq va qushlar go'shti bilan ta'minlagan. Shu sababdan gidronim – oykonim ko'chirilishiga asos bo'ladi. R.A.Ageyeva o'zining “Daryolar va ko'llar nomlarining kelib chiqishi” kitobida

128 Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988. – С.82

129 Латыпов Дж. Топонимия города Маргилана и его окрестностей: Автореф.дисс. ...канд.филол.наук. –Ташкент, 1975., 18 с.

130 Отин Е.С. Топонимическая метонимия (вид связи “гидроним- ойконим”) // Перспективы развития славянской ономастики. – М., 1980, 106 с.

131 Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – Москва: Наука, 1978. – С. 152-153

slavyanlar orasida ko‘plab etnonimlar, qabilalar yashaydigan daryolar tufayli kelib chiqishini ta’kidlagan¹³².

Penza viloyati daryolarini o‘rganib, N.P.Zimin ushbu fikrni tasdiqlaydi. Ular shunday deb yozadilar: “Suvsiz hayot bo‘lmaydi. Shuning uchun odamlar har qanday hududni o‘zlashtirganida, har bir yer bo‘shlig‘iga joylashishi, birinchi navbatda, daryolarning o‘zlashtirilishi, ular bo‘ylab harakat qilinishi, ularning qirg‘oqlarida qishloqlar yaratilishi bilan bog‘liq bo‘lgan hamda daryolarning nomlari (gidronimlar) daryolar fe‘lini va ularning qirg‘oqlarida hayot o‘ziga xosliklarini aks ettiradi. O‘z navbatida, ko‘plab qishloqlar va shaharlar o‘z nomlarini daryolardan olgan, jumladan, Penza ham”¹³³. Shuni ta’kidlash joizki, hatto zamonaviy Rossiya, Ukraina, Belorussiyaning eng yirik shaharlarining nomlari ham daryolar nomidan hosil bo‘lgan. Masalan, Moskva, Dnepropetrovsk, Omsk, Tomsk va h.k.

Yuqorida ta’kidlanganidek, slavyan onomastikasida metonimik ko‘chirishning asosiy yo‘li gidronim → oykonim sxemasi bo‘yicha boradi. Shu bilan birga, teskari hodisa ham kuzatiladi, ya’ni oykonim → gidronim. Bu turdagi hodisa turi Y.S.Otin¹³⁴ tomonidan batafsil ko‘rib chiqilgan. Uning tahlillariga ko‘ra, bu ma’lum bir hududning ikkilamchi joylashuvi davrida sodir bo‘lgan yoki bu begona toponimik tizimning ta’siridir.

H.Hasanov O‘zbekiston toponimikasini o‘rganar ekan, bu hududda faqat bir turdagi oykonim → gidronimning “kontaktli ko‘chishi” bor degan xulosaga keladi¹³⁵. E.M.Murzayev ham Sinsyan va O‘rta Osiyo toponimikasining o‘ziga xos xususiyati aholi punktlari va shaharlar nomidan, suv obyektlarining ko‘rsatilishi, teskari gidronimi → oykonim esa eski davrga xos, deb hisoblagan¹³⁶. Haqiqatdan ham, qadimgi yozma manbalarda, masalan, Sirdaryo daryosining nomlari tilga olinadi: Qanqa (Kangyuydan yoki Qanqadan), Obi Farg‘ona, O‘zgand daryosi, Obi Xo‘jand, Banokat daryosi. Ko‘rib turganimizdek, barcha nomlar qirg‘oq bo‘yidagi shaharlar nomidan olingan.

¹³² Агеева Р.А. Происхождение имен рек и озер: Москва: Наука, -1985. 69

¹³³ Зинин С. И. Микропонимия Ташкента. // Общественные науки в Узбекистан. – Тошкент. 1967, №7, – С.55-57.

¹³⁴ Отин Е.С. Топонимическая метонимия (вид связи "гидроним-ойконим")// Перспективы развития славянской ономастики. – М., 1980 –112 с.

¹³⁵ Ҳасанов Ҳ. Ер ва тил. –Т.: “Ўқитувчи”, 1977. Б.– 88.

¹³⁶ Мурзаев Э.М. Словарь народных географических терминов М., Мысль. 1984. – С.25.

Ammo Markaziy Osiyo toponimik tizimida teskari jarayon ham kuzatiladi (gidronimning oykonimga aylanishi). Masalan, Uchquduq (aslida “uchta quduq”) – Uchquduq tumani; quduq Juzquduq (asl. “yuzta quduq”) – Juzquduq ovuli; quduq Qizilquduq (asl. “qizil quduq”) Qizilquduq ovuli (gidronim) – Qizilquduq (Qizilqum hududidagi oykonim); Uzunquduq (asl. “uzun quduq”) – Uzunquduq ovuli; Ko‘kbuloq bulog‘i (asl. “yashil buloq”) – Ko‘kbuloq ovuli; Qizilbuloq bulog‘i (asl. “qizil buloq”) – Qizilbuloq ovuli; Tomdibuloq (asl. “uyli quduq”) – Tomdibuloq tumani; Jetisu –Jetisu ovuli, Qozog‘istondagi Jetisu tumani; Oqsu –(Oqsu daryosi) – Oqsu ovuli (Isfidjab shahri – Aqsuning arabcha kalkasi) Turkiston viloyati, Sayram tumani; Talas daryosi – Talas ovuli (Qozog‘istondagi qadimiy Taroz shahrining nomi). Bu suv obyektlarining nomlari qadimda paydo bo‘lgan, gidronimlarning oykonimlarga ko‘chirilishi esa qadimlilik hodisasi.

Bizning misollarimizda bitta qiziq fakt kuzatiladi: Oqsu (Aqsu) aslida “oq suv”ni bildiradi, Isfidjab esa ushbu gidronimning arabcha kalkasi hisoblanadi. Arab tilining va tegishli arab otlarining kirib kelishini milodiy VII asrdan VIII asrgacha belgilash mumkin. Mazkur fakt turkiy onomastikada gidronim→oykonim kontaktli ko‘chirish hodisasi qadimiylikning isbotlaridan biridir, chunki Isfidjab toponimi o‘z vaqtida hozirgi Turkistonning butun Sayram hududini belgilagan edi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, toponimik tranonimizatsiya turkiy onomastikada Hasanov va Murzayevlar ta’kidlaganlaridek, oykonim→gidronim sxemasi bo‘yicha, balki gidronim→oykonim darajasida ham ta’kidlanadi. Bu hodisa etnonim→toponim sathida ham uchraydi. Bu holatda etnik nomning aholi punkti nomiga o‘tishi ekstralingvistik xarakterli ko‘rinish bilan, ya’ni insonning xo‘jalik faoliyati o‘zgarishi, uning hayot tarzi o‘zgarishi bilan bog‘liq.

O‘zbekiston hududida etnik kelib chiqishi bo‘lgan toponimlar (oykonimlar) ko‘p uchraydi. Bu hodisani o‘zbek tilidagi qishloq (qoz. qystau, qirg‘. qystoo) so‘zining semantikasining tarixiy o‘zgarishlarini tahlil qilib kuzatish mumkin. Qozoq va qirg‘iz tillaridan farqli o‘zbek tilida qishloq so‘zi o‘zining umumturkiy, asl, to‘g‘ri ma’nodagi “qishlov”, “qishlovxona” (kishilar yoki chorva mollari qishlaydigan, qishda

yashaydigan joy)¹³⁷ ma'nosini yo'qotdi. U o'zbek so'zi qish, qozoq so'zi qys, qirg'iz so'zi qys – “qish” – va so'z yaratuvchi -loq, -tau, -too affiksidan iborat. Zamonaviy o'zbek tilida qishloq so'zi “qishloq” (asl ma'nosi) ko'chma ma'noda qo'llaniladi. O'zbek tilining izohli lug'atida:¹³⁸ “Qishloq– aholi punkti” uning aholisi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi joy, maskan, hudud. “Obod qishloq” (“благоустроенный кишлак”), “qishloq xo'jaligi” (“сельское хозяйство”), “qishloq xo'jaligi mashinalari” (“сельскохозяйственные машины”).

XX asr o'rtalarida O'zbekiston toponimik tizimida gidronimning oykonimga, polisonimga intensiv o'tishi kuzatiladi. Masalan, Ohangaron daryo → Ohargaron shahri; Chirchiq daryo → Chirchiq shahri; Sirdaryo daryo → Sirdaryo shahri; Arnasoy daryo → Arnasoy tumani; Zarafshon daryo → Zarafshon shahri. Bu hodisaning keyingi davrda keng tarqalishi rus toponimik tizimining O'zbekiston toponimiyasiga bevosita ta'siri bilan izohlanadi. Bundan tashqari, sanoat obyektlari nomlarining katta qismi qonun hujjatlari bilan mustahkamlangan. Shu tariqa onomastikada kontaktli ko'chirish yoki toponimik transonimizatsiya katta ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Biz aytganimizdek, etnonimiya, xususan, Qizilqum hududining etnonimiyasi yetarli darajada o'rganilmagan. Etnotoponimlarga kelsak, bu yerda tadqiqotchi uchun hali ko'plab yechimini topmagan savollar mavjud. Ularning orasida etnotoponimlarning paydo bo'lishi, ya'ni kontaktli ko'chirish. Bu yerda biz juda ham qiziq hodisaga guvoh bo'lamiz: etnik nomning toponimga aylanishi. Bu jarayon lingvistik tartib omillariga qaraganda ko'pincha ekstralingvistik omillar bilan bog'liq.

Ko'rib turganimizday, turkiy onomastikada otni bir obyektidan boshqasiga ko'chirish hodisasi, deyarli, tez-tez uchrab turadi. Mutaxassislar o'rtasida bu hodisaga turli fikrlar bildiriladi va hali terminologiyada bu haqida aniq belgi yo'q. Shu o'rinda O'zbekiston hududida etnik kelib chiqqan oykonimlar ko'pligini yanada ta'kidlash lozim. Etnooykonimlar maxsus leksik qatlam bo'lib, o'z tarkibida eng qadimgi etnik

¹³⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти.– Тошкент, 2006. Б. – 314.

¹³⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти.– Тошкент, 2006. – Б.315.

nomlarni saqlab qolgan va shuning uchun bu qatlamni o'rganish alohida qiziqish uyg'otadi.

Ma'lumki, etnik nomlar, ayniqsa, ko'chmanchi xalqlarda rivojlangan edi. Gap shundaki, o'tloqlar, maysazorlar, qishlovlar, yozgi o'tloqlar, suv ichish joylari, odatda, ma'lum bir urug' va qabilaga tegishli bo'lgan aniq chegaralarga ega bo'lgan va geografik atamalar bilan belgilangan. A.V.Superanskaya bu haqida shunday dedi: "Yashash uchun vositalarni topishning o'ziga xos xususiyati ko'chmanchi qabila o'zining hududini batafsil bilishiga, hatto mayda daralargacha ko'maklashadi va ular rivojlangan toponimik tizimga ega. Unda barcha tabiiy-fizik nomlari taqdim etilgan, lekin oykonimlar (qishloq nomlari) deyarli, yo'q"¹³⁹. Shu sababdan etnik nomning aholi punktiga o'tish jarayoni kuzatilmagan.

Tarixdan ma'lumki, u yoki bu siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sabablar tufayli ma'lum bir tarixiy davrda ko'chmanchi qabilalarning ajdodlari dastlab chorvachilik-dehqonchilik, keyin esa dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi xo'jalik tarziga o'tadi. Dehqonchilikka to'liq o'tishi bilan kichik qishloqlar, deyarli, yirik aholi yashaydigan punktlarga aylanadi, ularda, ko'pincha, qishloq aholisining etnik nomlari saqlanib qolgan.

Bir necha bor ta'kidlaganimizdek, O'zbekiston Respublikasi hududida etnonim→oykonim sxemasi bo'yicha vujudga kelgan ko'plab etnotoponimlar mavjud. Undan tashqari, O'zbekiston hududida qozoq millatiga mansub etnonimlarning yirik qatlami kuzatiladi. Qozoq etnotoponimlari qadimdan vujudga kelgan va bu jarayon keyingi davrlarda ham davom etgan. Masalan, qozoq millatining etnogenezida katta ahamiyatga ega bo'lgan Qangli etnik birlashmasi o'zbek xalqining etnogenezida ham sezilarli darajada rol o'ynagan. Qangyuy davlati hozirgi O'zbekiston hududida bizning eramizdan oldin ham mavjud bo'lgan. Shu sababdan mazkur hududda, nafaqat Qangli etnonimidan paydo bo'lgan, balki ushbu etnik birlashmasini tashkil etuvchi patronimlardan va genonimlardan ham paydo bo'lgan etnotoponimlar juda ko'p.

¹³⁹ Суперанская А.В. Групповые обозначения людей в лексической системе языка // Имя нарицательное и собственное: сб. статей / отв. ред. А.В. Суперанская. М.: Наука, 1978, 74 с.

Mazkur hodisa negizida kelib chiqish birligi, ikki qardosh xalqning tarixiy qalin munosabatlari, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy aloqalari, madaniyatlarining o‘zaro ta’siri yotibdi.

Shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, biz hozirda O‘zbekiston Respublikasi hududida ikki mingdan ortiq qozoq etnotoponimlarini qayd etganmiz. Qizilqum hududida qozoq millatiga mansub etnotoponimlar maxsus leksik qatlam bo‘lib, o‘z tarkibida qadimiy substrat leksemalar va morfemalarni saqlab qolgan. So‘z boyligining bu qatlamini o‘rganish, nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya, umuman, turkiy xalqlarning etnogenezi va glottogenezi bilan bog‘liq qator masalalarni oydinlashtirish uchun ham, shubhasiz, qiziqish uyg‘otadi.

Qadimdan O‘zbekiston Respublikasi hududida umumturkiy va qozoq etnonimik tizimi shakllangan. Keyinchalik bu tizim ushbu hududda etnotoponimlar (etnooykonimlar) sifatida saqlanib qolingan. Yuqorida aytilgan fikrlar quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. Etnotoponimlar paydo bo‘lishi ekstralingvistik omillar bilan, lingvistik jihatdan esa transninizatsiya hodisasi bilan bog‘liq uzoq muddatli jarayondir. Transninizatsiya hodisasi onomastikada yetarli darajada o‘rganilmagan. Biz tadqiqotda ushbu masala bo‘yicha shakllangan fikrlarga qarshi etnonim→toponim, etnonim→gidronim kontaktli o‘tishini aniqladik.

2. Atoqli otlarning kontaktli o‘tish hodisasini belgilovchi, ya’ni bir obyekt nomlarining ikkinchisiga o‘tishini, qator atamalarning noaniqligini inobatga olib, ilmiy muomalada N.V.Podolskaya taklif etgan faqat transninizatsiya hodisasi ta’rifida ko‘rib chiqishni taklif etamiz.

Shunday qilib, Qizilqum hududining toponimiyasida ham toponimlarning boshqa atoqli otlar guruhlaridan kelib chiqishi tez-tez kuzatiladi, ya’ni transninizatsiya jarayonida oronim→oykonim, antroponim→oykonim, etnonim→oykonim, gidronim→oykonim sxemalari kabi berish mumkin. Buni quyida keltirilgan birliklar misolida ko‘rishimiz mumkin:

1) oronimning oykonimga o'tishi: Uchtepa (oronim) – Uchtepa (oykonim); Qoratepa (oronim) – Qoratepa (oykonim); Jolaytepa (oronim) – Jolaytepa (oykonim).

2) antroponimning oykonimga o'tishi: Utamurod (antroponim) – Utamurod (oykonim); Baymurat (antroponim) – Baymurat (oykonim).

3) etnonimning oykonimga o'tishi: Qatog'on (etnonim) – Qatog'on (oykonim); Teleu (etnonim) – Teleu (oykonim); Qiyat (etnonim) – Qiyat (oykonim); Keneges (etnonim) – Keneges (oykonim); Oyko'nek (etnonim) – Oyko'nek (oykonim); Qorasaqal (etnonim) – Qorasaqal (oykonim).

4) gidronimning oykonimga o'tishi: Uchquduq (gidronim) – Uchquduq (Qizilqum hududidagi polisonim), Zarafshon (gidronim) – Zarafshon (Qizilqum hududidagi polisonim), Tomdibuloq (gidronim) – Tomdi (Qizilqum hududidagi oykonim).

Shunday qilib, har bir toponimik tizimda toponimik atamalardan yoki o'rnatilgan toponimlardan paydo bo'lgan geografik nomlar ma'lum bir o'rinni egallaydi. Ayrim ishlarda yuqorida aytilgan hosilalarga nisbatan topotoponimlar atamasi qo'llaniladi. Ammo mazkur hodisani olimlar onomastikada kontaktli o'tish, toponimik transonimizatsiya degan atamalar bilan belgilagan. N.V.Podolskaya transonimizatsiya atamasini taklif etdi.

N.Uluqovning fikricha, turdosh otlardan hech qanday o'zgarishsiz atoqli otlar: toponimlar, jumladan, gidronimlar, antroponimlar, zoonimlar, fitonimlar hosil bo'lishiga nisbatan konversiya, bir atoqli otdan boshqa atoqli ot hosil bo'lishiga nisbatan transonimizatsiya terminini qo'llash maqsadga muvofiq¹⁴⁰. Demak, transonimizatsiya – biror tip atoqli otning boshqa tip atoqli otga o'tishi. Atoqli otlarning transonimizatsiyalashuv ko'lami va qamrovi ancha keng bo'lib, atoqli otlarning barcha tiplari (antroponim, toponim, zoonim, kosmonim)da kuzatiladi.

Bizningcha, onomastik sathdagi barcha atoqli otlardan atoqli ot yasalishlariga nisbatan ham transonimizatsiya termini va tushinchasini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Chunki hodisa qanday talqin qilinmasin, oqibat atoqli otdan atoqli ot hosil qilish ustida

¹⁴⁰ Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лосоний тадқиқи: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2010. – Б. 28.

boradi. Yig‘ilgan faktik materiallar tizimda transminizatsiya usuli bilan hosil qilingan atoqli otlar miqdori salmoqli ekanligini ko‘rsatadi.

2.2.8. Qizilqum hududi toponimlari shakllanishining morfologik usullari

Joy nomlari xalqlarning tarixiy o‘tmishi haqidagi muhim ma’lumot manbai bo‘lib, atrof-olamning milliy borlig‘ini, muayyan til egalari tafakkurining badiiy milliy mantig‘ini aks ettiradi. Milliylik xalqning tarixiy taraqqiyoti natijasidir. Muayyan bir xalq tarixining asosi uning o‘zi yashayotgan atrof-olamni qayta shakllantirishga qaratilgan mehnati mahsulidir. Toponimiyada milliy dunyoqarashning tub xususiyatlari bilan bog‘liq qatlamlar, shuningdek, o‘zgarishlar va yo‘qolishlarga tobe qatlamlar ham mavjud¹⁴¹.

Albatta, toponimlar jamiyat tarixi va taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq. Joylarga qanday va qay tarzda nomlarni berish, avvalo, jamiyatning muayyan bosqichidagi ijtimoiy ehtiyoj va talablari bilan belgilanadi. Ularning shakllanishini, ularga xos bo‘lgan nomlanish jarayonlari hamda tarixiy taraqqiyotini bilmasdan turib toponimik tadqiqot bilan shug‘ullanish, ya’ni ularning xususiyatlarini tadqiq etish kutilgan natijalarni bermaydi. Ana shuning uchun ham “Toponimika” tarix fanlari qatoridan ham o‘rin olgan.

Aholi yashaydigan joylarning atoqli otlari bo‘lgan toponimlar alohida olib o‘rganilayotgan hudud hamda o‘sha hudud xarita (karta)sining eng muhim va zarur elementlari bo‘lib, biron mamlakat, davlat yoki o‘lka tabiatining betakror xususiyatlarini o‘zida u yoki bu darajada aks ettira oladi.

“Geografik nomlar onomastik leksikada maxsus qismni tashkil etadi. Ma’lumki, geografik nom, nafaqat, til birligining ko‘p o‘lchovli tabiatini, balki millatlararo til aloqalarini ham ko‘rsatadi. Shu ma’noda alohida hudud toponimikaning tavsifi mintaqaviy toponimikaning leksik tizimini shakllantirishdagi asosiy qoliplarni aniqlash uchun qiziqish uyg‘otadi.

¹⁴¹Эназаров Т.Ж. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2006. – Б. 6-14.

Toponimlarning ekstralingvistik xususiyati yaxshi ma'lum. Har qanday geografik nom toponimning o'ziga xos xususiyati bo'lgan muayyan tarixiy davr haqida ma'lumot bera oladi. Qadim davrlarda yaratilgan nomlarni meros qila turib, toponimik tizim yangilarini ham yaratib boradi. Toponimiyada turli-tuman unsurlarning mavjudligi, ularni tarixiy ketma-ketlikda o'rganish zarurligini talab etadi"¹⁴².

Ma'lumki, har bir hudud toponimiyasida substrat leksikaga oid bo'lgan qadimiy so'zlar ma'lum bir qatlamni tashkil etadi. Tilshunoslik fani, xususan, til tarixi uchun ushbu lug'atning grammatik tuzilishini o'rganish qimmatli material bo'lib, geografik nomlar tilda uzoq vaqt xizmat qilishi mumkin. Ular ma'lum bir tilning tarixiy grammatikasi uchun qimmatli material bo'lib hisoblanadi. Tilshunoslik uchun u yoki bu tilda toponim yaratilishining zamonaviy holatini tadqiq etish ham katta ahamiyatga ega. Geografik nomlar tilning lug'at tarkibiga kirib, ma'lum lingvistik qoliplarga bo'ysunganligi sababli toponimika tilshunoslikning bir qismi hisoblangani¹⁴³ kabi tilshunoslik uchun ham ma'lum bir tilda yuqori shakllanishning hozirgi holatini o'rganish qiziq. Toponimik lug'at yaratish uchun esa ma'lum bir tilning so'z va iboralari ma'lum grammatik me'yorlarga rioya qilgan holda qo'llaniladi.

Morfologiya (yunoncha morphe – "shakl", logos "ta'limot") so'z va uning grammatik xususiyatlari haqidagi ta'limot hisoblanadi. Morfologiyada so'zning morfologik tuzilishi, yangi shakl va ma'nolar hosil qilishi bilan bog'liq qonun-qoidalar o'rganiladi. Morfologiyada so'zlar mushtarak yoki farqli belgilari umumlashtirilgan holda turkumlarga ajratib o'rganiladi. So'z morfologiyada grammatik birlik sifatida o'rganiladi. Ma'lumki, toponimik birliklar, asosan, atoqli otlar sifatida shakllangan bo'ladi. Ammo uning tarkibiy shakllanishida ma'noli qismlarning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. So'zning borliqdagi narsa-belgi, hodisa, harakat haqidagi tushunchalarni ifoda etishi lug'aviy ma'noni yuzaga chiqarsa, uning biror turkumga mansubligini ko'rsatuvchi umumiy kategorial va grammatik shakl ifodalovchi ma'nosi grammatik ma'noni hosil qiladi.

¹⁴² Жамсаранова Р.Г. Топонимия Восточного Забайкалья. Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Улан-Уде, 2002. – С. 157.

¹⁴³ Жучкевич В.А. Ко'rsatilgan asar. – С. 7.

Toponimlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu hududning turkiy toponimlari, asosan, ikki grammatik usul bilan yaratilgan, ya'ni morfologik va sintaksik usul asosida.

So'z yaratilishining morfologik usuli o'zbek¹⁴⁴ va barcha turkiy tillarda leksik birliklarni yasashning eng samarali usuli deb hisoblanadi. Ushbu usul toponimik birliklarni yaratishda ham samaralidir. Morfologik toponim yaratilishining shakllanishi bo'yicha olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, bu jarayonda asl o'zbek tilidagi so'z yasovchi elementlar bilan bir qatorda o'zlashtirilgan tojikcha so'z yasovchi elementlar ham faol ishtirok etgan.

Ta'kidlanganidek, o'zbek tilida affiksatsiya so'z yasashning eng sermahsul usulidir. Ammo toponim yaratilishida barcha so'z yasovchi affikslar ham ishtirok etmaydi. O'zbek tilida toponim yaratuvchi affikslarga oid: -chi, -li, -lik, -ma, -loq, -sh/-ish, -ik/-uk, -lar. Ular otlar, sifatlar, sonlar va fe'llar bilan geografik nomlar hosil qiladi.

-li o'rganilayotgan hududdagi bir qator toponimlar o'zbek tilidagi -li affiksi va uning etnonim yasalishida mahsuldor bo'lgan -li, -ti fonetik variantlari yordamida shakllangan. S.Gubayeva etnotoponimlar tarkibidagi bu affikslarni alohida ajratib bo'lmaydi, deb hisoblaydi. "Haqiqatdan ham, -li, -lik (variantlari bilan) toponimlarning atributiv tarkibida uchraydi. Lekin har doimgidan ham biz ularni maxsus toponim yasovchi qo'shimchalar sifatida ajratib ko'rsatishga, haqlimiz. Agar toponim ma'lum bir hududda biror narsaning, xususan, o'simlikning mavjudligini bildirsa, uning affiksial shakllanishi haqida gapirish mumkin. Ammo toponim etnonimdan shakllangan bo'lsa, albatta, toponimda affiksning qanday taqsimlanishi haqida gap bo'lishi mumkin emas. Bunday holatlardagi affikslar sifatlarning o'ziga tegishli bo'ladi. Qolaversa, umuman, toponim yasovchi bo'lmagan -chi affiksining taqsimlanishi haqida fikr yuritib bo'lmaydi. Bu affiksning turkiy toponimikaga xosligi haqida gapirish, garchi lingvistik vositalardan foydalansa-da, tanlab yondashadigan, umuman, toponimikaning o'ziga xos xususiyatlarini inkor etish demakdir"¹⁴⁵. S.M.Molla-zade fikriga ko'ra, etnotoponimlar

¹⁴⁴ Гуломов А. Ўзбек тилида сўз яшаш йўллари ҳақида // Тил ва адабиёт институти асарлари. – Тошкент, 1949. – Б. 65.

¹⁴⁵ Губаева С.С. Один из особенностей топонимии // Диалекты и топонимия Поволжья. – Чебоксары, 1972. – Вып. I. – С.101.

tarkibida -li affiksi toponim yaratuvchidir va ko'p hollarda "u yoki bu urug' vakillari qurgan manzilgoh"¹⁴⁶ ma'nosini bildiradi. O.T.Molchanova Altay materialida ushbu affiks etnotoponimlar tarkibida toponim yaratuvchi ekanligini ko'rsatgan¹⁴⁷.

Quyida o'rganilgan hududning toponimlari tarkibida -li/-ti-di affiksi mavjudligini kuzatamiz:

a) u yoki bu joyda ma'lum bir o'simliklarning mavjudligi, masalan, Ulken isqali, Kichik isqali, Qog'ali, Qamishli, Ajiriqli, Paxtali, Gujumdi, Jing'ildi, Shengeldi;

b) turli hayvonlarning mavjudligi: Jilandi, Qasqirli;

v) aholi punktida yashaydigan u yoki bu elat vakillarining mavjudligi: Sirg'ali (bu aholi punktida asosan Sirg'ali urug'ining vakillari yashagan), Qo'shtamg'ali, Oshamayli haqida ham shunday deyish mumkin.

-chi S.S.Gubayevaning *-chi* affiksi turkiy toponimiyasi uchun "xos" emasligi fikriga nisbatan jiddiy qarasaq, unda Qo'qon guruhi toponimiyasi ma'lumotlari aksini ko'rsatadi. N.Oxunov, masalan, ushbu affiks bilan yaratilgan 30 dan ortiq nomlarni aniqlaydi¹⁴⁸.

Bular, asosan, mikrotoponimlardir. S.S.Gubayeva o'z ishida geografik nomlar bo'lgan holda bir vaqtning o'zida "apellyatsiya"dan transonimizatsiyaga o'tish bosqichida turgan mikronomlarning shakllanish xususiyatlarini hisobga olmagan. "Til nuqtayi nazaridan mikrotoponimlar umumiy otlarning tegishli nomlarga aylanishining birinchi bosqichini ifodalaydi... Mikrotoponimlar, odatda, og'zaki nutqda yashaydi, kamdan-kam hollarda so'zlarga tushadi. Yozma hujjatlar, ular konservativ emas, ular tilimizdagi o'zgarishlar bilan birga o'zgaradi"¹⁴⁹. A.V.Superanskaya fikriga ko'ra, mikronimlar-toponimlar bo'lib, toponimiyaga ko'ra ko'proq mahalliy talaffuzga intiladi va aniq tilni hamda uning so'z yasovchi usullari bilan bevosita bog'lanadi¹⁵⁰.

¹⁴⁶ Qarang: Молла-заде С.М. Топонимия северных районов Азербайджана. – Баку: Маариф. 1979. – С. 44.

¹⁴⁷ Qarang: Молчанова О.Т. Структурные типы тюркских топонимов Горного Алтая. – Саратов: Изд-во Саратовского университета, 1982. – С. 131.

¹⁴⁸ Охунув Н. Топонимия Кокандской группы районов: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1978. – С.15.

¹⁴⁹ Жучкевич В.А. Ко'rsatilgan asar. – С.18.

¹⁵⁰ Qarang: Суперанская А.В. Что такое топонимика. – М., 1985. – С. 45.

S.M.Molla-zade ham –chi affiksini topoyaratuvchilarga qo‘shadi¹⁵¹. Bizning misollarimizda Asalchi, Kunchi, Qo‘shchi/Qushchi, Tuyachi. Bundan ko‘rinib turibdiki, -chi affiksi topoyaratuvchi xususiyatga ega. -chi affiksi yordamida yaratilgan toponimlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: aholi yashash punktida etnik guruh mavjudligini ko‘rsatuvchi toponimlar (Qo‘shchi//Qushchi); aholi punkti, aholining kasbini yoki ularning faoliyat turlarini ko‘rsatuvchi toponimlar (masalan, Tuyachi bu qishloq aholisi o‘zlarining tuyalarida yuk tashish bilan shug‘ullangan).

-lik tadqiq etilayotgan hududda bu affiks bilan toponimlarning kichik qismi yaratilgan bo‘lib, -lik komponentli bir nechta nomlar aniqlangan. Jumladan, Shodlik, Do‘stlik, Birlik. Shu bilan bir qatorda, mahallalarning ayrim nomlarini parallel qo‘llash kuzatiladi. Xususan, Namangan mahalla // namanganlik, Forish ovul // forishlik, Sintob mahalla // sintoblik, Uxum mahalla // uxumlik, Zomin qishloq // zominlik. Bu affiks bilan sondan ot yasalganning birikmasi ham bor, masalan, Birlik. Kengdik gidronimi tarkibida -dik affiksining fonetik varianti -lik ma‘nosida qayd etilgan (qarang. kenglik – “keng”). Toponimlarda -lik affiksi:

a) ma‘lum ijtimoiy hodisaning mavjudligini bildiradi, masalan: shod – “quvnoq” sifatidan, -lik (-dik) affiksi yordamida shodlik – “xushvaqtlik, quvonch” tushunchasi paydo bo‘lgan, do‘st otidan -lik affiksi yordamida Do‘stlik toponimi paydo bo‘ladi. Birlik toponimi birlik to‘g‘risida dalolat beradi;

b) kelib chiqish joyini bildiradi: forishlik – “asli forishlik”, zominlik — “asli Zomindan”, sintoblik — “asli Sintobdan”, namanganlik — “asli namanganlik” va hokazo.

“-lik” turli xil so‘z turkumlariga qo‘shilib, mavhum ma‘noli va konkret predmet otini yasaydi: bola/lik, ona/lik, talaba/lik, zargar/lik, tez/lik, dars/lik, kunda/lik kabi¹⁵². Yana shuni aytib o‘tish kerakki, zargarlik, kosiblik, miskarlik kabi so‘zlar yasalganda, kasb-hunar, faoliyat, ya‘ni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan otlarni yasaydi. Tadqiq etilgan mintaqa hududida Mustaqillik, Ezgulik, Obodlik, Ozodlik kabi neooykonimlar

¹⁵¹ Qarang: Молла-заде С.М. Ко‘rsatilgan asar. – С.75.

¹⁵² Ғуломов А., Тихонов А., Қўнғуров Р. Ўзбек тили морфем луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – Б. 442.

(yunoncha – neos “yangi”; oikos “makon, turar joy”, onoma “nom” soʻzlaridan kelib chiqqan boʻlib, “yangi joy nomi” degan maʼnoni beradi.) mavjud boʻlib, belgi ifodalovchi soʻzlar vositasida hosil qilingan. Bunday toponimlar, asosan, jamiyatga xos ijtimoiy-sotsial oʻzgarishlar asosida yuzaga kelgan.

Jamiyatga xos sotsial oʻzgarishlar boʻlgani kabi, ular taʼsirida nomlangan toponimlar ham sotstoponimlar deyiladi. Sotstoponimlar termini birinchi boʻlib T.Enazarovning¹⁵³ tadqiqotlarida qoʻllanilgan.

Shuningdek, -lik formanti tomdilik, mangʻitlik, toshrabotlik, konimexlik kabi nomlarda mansublik, tegishlilik maʼnolari mavjud. Tuman, shahar, qishloq kishilarining qayerdan ekanligi anglashiladi. -lik topoformantining, keyinchalik vaqtlar oʻtishi bilan xalq ogʻzaki nutqida –li topoformanti shaklida aytilishi ham kuzatiladi: Shontybayli, Shoʻrshali, Shalqorli va b.

-sh//ish affiksi. Bu affiks feʼl oʻzagiga qoʻshilib geografik nomlar hosil qiladi. Qurilish (tuman) aholi punktini nomi – asl. “qurilish” – bu yerda yangi hayotni ifodalaydi.

Oʻzbek adabiy tilida tojik tilidan kelib chiqqan soʻz yasovchi qoʻshimchalar koʻp, ushbu affikslarning maʼlum bir qismi topoyaratuvchi xarakterga ega.

Tadqiq etilayotgan hududning toponimlar tarkibida quyidagi tojikcha affikslar va affiksoidlar aniqlangan: -obod, -xona, -kor, -iston, -dor, -kash, -paz¹⁵⁴.

-*obod* affiksi – “aholisi koʻp, gullab turgan” – boshqa topoyaratuvchi elementlarga qaraganda toponimlar tarkibidan koʻpchilikni tashkil etadi. Tojik tilidan kirgan ayrim soʻz maʼnosida qoʻllanishdan tashqari affiksoid sifatida ishlatilib, “obod” joy maʼnosini beradi. Xalq/obod, Dehqon/obod, Yunus/obod kabi.

Toponimikada obod affiksoidi qatnashgan joy nomlari eng koʻp tarqalgan. Obod soʻzi tojikcha ob-suv, obod-suvli, suv yetarli joy degan maʼnoni bildiradi. Bu soʻz

¹⁵³ Эназаров Т. Номшунослик масалалари. Услужбий кулланма. – Тошкент: Университет, 2010. – Б. 112.

¹⁵⁴ Qoraev S. Koʻrsatilgan asar. – B 69.

shahar, qishloq, umuman, aholi manzilgohlariga nisbatan ishlatiladi. Asosiy ma’nosi “gullagan” demakdir. Azimobod, Bekmirzaobod kabi¹⁵⁵.

O‘zbek adabiy tilida mazkur shakl mustaqil so‘z sifatida qo‘llaniladi. Demak, obod qishloq, obod joy birikmalari “obod aholi yashagan joyni”, “obod o‘lka” ma’nolarini bildiradi.

Bizning misollarimizda ushbu joylar quyidagilardir:

a) ot negizida, atoqli otga – Asadobod, Raufobod, Haydarobod;

b) turdosh ot asosiga: Paxtaobod, Mehnatobod;

v) sifat asosiga, masalan: Yangiobod – “gullab turgan yangi aholi yashagan joy”, Erkinobod – “erkin yashash joyi”, Ko‘neobod, Shirinobod va h.k.

Sho‘ro davrida obod komponentli murakkab toponimlar mafkuraviy ahamiyatga ega bo‘lgan, ya’ni unda shunday ommaviy qabul qilingan fikr bo‘lganki, faqat bolsheviklar hukmronligi davrida xalq erkin va farovon yashagan degan tushuncha umume’tirof etilgan. Masalan, Asadobod (Asad qishlog‘i); Paxtaobod, Mehnatobod¹⁵⁶.

-kor affiksi – ot o‘zagiga qo‘shilib, hududda Paxtakor oykonimini hosil qiladi (bir necha marta uchraydi). Toponimlar tarkibidagi ushbu affiks, ko‘rganimizday, odamlarning ma’lum guruhini, o‘sha aholi punkti aholisining xo‘jalik faoliyatining asosiy turini belgilaydi. Jumladan, paxtakor – yuqorida keltirilgan oykonimlarning aholisi paxta yetishtirish bilan shug‘ullanadi yoki sholikor – qishloq aholisi sholi yetishtirish bilan shug‘ullanadi.

-kor (*-gar,-gor,-kar*) komponentli toponimlarda ushbu affiks kasb egasi, mutaxassislik, mashg‘ulot bilan bog‘liq bo‘lgan shaxs oti yasaydi: *paxta/kor, bino/kor, xalos/kor, xizmat/kor, da’vo/gar, durad/gor, mis/kar* kabi. Shu nuqtayi nazardan, yetakchi olim S.Qorayev tasnifi bo‘yicha o‘rganilgan hudud mikrotoponimiyasida “*-kor* (*-gar,-gor,-kar*)” formantli ijtimoiy-iqtisodiy oykonimlar mavjudligi, hunarmandchilik va dehqonchilikning takomil topganligidan dalolat beradi.

¹⁵⁵Ахмадалиев Ю., Отақулов Ф. Замонавий жой номлари ва уларга қўйиладиган талаблар. / Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 42-жилд// Топонимика ва умумгеографик масалалар/. Илмий мақолалар тўплами. – Т., 2013. Б. 19.

¹⁵⁶Qarang: Хромов А.Л. Таджикская микропонимия долин Верхнего Зеравшана и Ягноба // Ономастика Средней Азии. – М., 1979. – С. 59.

-dor affiksi. Mazkur affiks Chorvador tarkibida (Guliston tumanida uchraydi) kasbni, xo‘jalik faoliyatini belgilaydi (chorvador, zarbdor misolida “g‘ayratli”, “zarbdor”, ya’ni qaysidir darajada mehnat faoliyatni tavsiflaydi – “mehnat zarbdori”).

-paz affiksi. Tadqiq etilayotgan hududda Qumorvoztepa va Qumarvozovul geografik nomlari uchraydi. Ushbu misoldagi affiks odamning mashg‘ulotlar turini bildiradi, chunki “qimorboz”, “o‘yinchi” to‘g‘risida aytadi.

-kash affiksi. Toponimlar tarkibida uchrab, u ham odamning kasbini yoki faoliyat turini bildiradi. Masalan, Tuyakash – asl. “tuyalarni boqadigan va o‘zining tuyalarida yuk tashiydigan odam”.

-iston affiksi. Ma’lumki, mazkur qo‘shimcha makrotoponimlar yasalişida umumli hisoblanadi: O‘zbekiston, Guliston, Turkiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘iziston va boshqalar. Tadqiq etiladigan hududda bu shakl oykonimlar va polisonimlarni yaratadi, masalan, Guliston shahri, Guliston ko‘chasi.

I.O.Xolmuratovning fikriga qaraganda, *-iston* oykonimik formanti tanlangan topoasoslarga qo‘shilishi bilan yasalgan oykonimlar turkiy va boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar hisoblanadi. Bu oykonimik formantning omonimi bo‘lgan *-iston* qo‘shimchasi tilda avval apellyativ leksikada o‘rin-joy ma’nosini bildiruvchi turdosh otlarni shakllantirgan. Keyin ular etnonimlarni o‘ziga qo‘shib, onomastik leksika sathiga o‘tib, joy nomi vazifasini bajaradi: o‘z+bek > o‘zbek+iston > o‘zbekiston > O‘zbekiston; qozoq > qozog‘+iston > qozog‘iston > Qozog‘iston; turk+man > turkman+iston > turkmaniston > Turkmaniston; tojik > tojik-iston > tojikiston > Tojikiston; qora+qalpoq > qoraqalpoq > qoraqalpog‘+iston > qoraqalpog‘iston > Qoraqalpog‘iston. *-iston* oykonimik formanti etnonimlar asosida ataluvchi mamlakat, o‘lka, yurt nomlariga qo‘shilib, makrooykonimlarni vujudga keltiradi. Masalan, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qoraqalpog‘iston va boshqalar. Ba’zi o‘rinlarda ushbu topoformant mikrooykonim ko‘rinishidagi toponimlarni ham shakllantirgan. Masalan, O‘zbekiston ko‘chasi va boshqalar¹⁵⁷.

¹⁵⁷ Холмуратов И.О. Жанубий Қорақалпоғистон ойконимларининг лисоний тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертацияси. – Бухоро, 2020. – Б. 42.

-xona affiksi. Bu topoformant zamonaviy mustaqil soʻz sifatida ham qoʻllaniladi: xona, uch xonalik uy – “uch xonali uy”¹⁵⁸ va h.k. toponimlar tarkibida mazkur formant yovvoyi hayvonlar yashash joyini yoki ularning koʻpayish joyini bildiradi. Jumladan, Yoʻlbarsxona – Sirdaryo daryosida yarim orol – asl. “yoʻlbarslar makoni”, “yoʻlbarslar yashash joyi”, “yoʻlbarslar oroli” (bu hududda oʻtmishda yoʻlbarslar yashagani toʻgʻrisida aytiladi); Boʻrixona – orol va qishloq – “boʻrilar makoni”, “boʻrilar oroli”, Kallaxona – asl. “boshlar koʻp joy”, balki bu yerda bir vaqtlar chopilgan boshlardan tepalik qurilgandir.

Shuni aytish joizki, affiksatsiya usuli bilan yaratilgan geografik nomlar tarkibida -li, -chi (oʻzbek), -obod, -dor, -kor (tojik) kabi affikslar va affiksoidlar unumli va -ish, -paz, -kash affikslari esa unumsizroqdir.

Etnik guruhlarining etnik va madaniy tarixining bir turi sifatida qaraladigan toponimik tizim xalqlar, tarixiy voqealar, jismoniy va geografik xususiyatlar, insoniy munosabatlarning tadrijiyligi – hududlar haqidagi qimmatli maʼlumotlarni, baʼzan haligacha aniqlanmagan maʼlumotlarni oʻz ichiga oladi¹⁵⁹. Shuning uchun ham hudud toponimiyasini oʻrganish va tavsiflash oʻtmishda va hozirgi davrda hududda yashab, istiqomat qilayotgan xalqning tarixi, etnogenezi va etnik madaniyatini oʻrganishda dolzarblik va ilmiy ahamiyat kasb etadi.

2.3.§. Hudud onomastik birliklari shakllanishining sintaktik usuli

Tadqiq etilayotgan hududda toponimlarning aksariyat qismi sintaktik usul bilan yaratilgan. Bu tilda geografik obyektlar koʻp hollarda tavsifli belgilanishi bilan tushuntiriladi. Sintaktik usul bilan hosil boʻlgan toponimlar maʼlum bir joyga bogʻliq holda tavsiflangan.

Sintaktik usul orqali birdan ortiq asoslarni qoʻshish orqali yangi soʻz hosil qilish mumkin. Ushbu usul tilshunoslikda sintaktik usul, soʻz qoʻshish, analitik usul,

¹⁵⁸ Qarang: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – М.: Рус тили, 1981. – С.331.

¹⁵⁹ Ганиев Н.У. Навоий вилояти Қизилтепа тумани топонимларининг этимологик ва когнитив тадқиқи. Фил.фан.фал.док.(PhD) дисс.автореф. – Жиззах, 2022

morfologik-sintaktik usul, kompozitsiya usuli deb ham yuritiladi. Sintaktik usul til leksikasini boyitishning eng mahsuldor usullaridan biridir. Ushbu hodisa tilning onomastik sathi uchun ham tegishlidir. Hudud toponimiyasining asosiy qismini qo'shma toponimlar tashkil qilishi ham ushbu mulohazaning to'g'ri ekanligini asoslaydi.

Toponimist olimlar uzoq vaqtdan beri tegishli nomlarni shakllantirishda geografik atamalarni batafsil bayon qilish faoliyatiga e'tibor qaratishgan. E.M.Murzayev qayd etishicha, bu hodisa, ayniqsa, turkiy toponimiyaga xosdir. "Slavyan va ayrim boshqa Hind-Yevropa tillari tarkibida zamonaviy geografik nomlar turkiy, mo'g'ul, tung'us-manjur muhitidagiga qaraganda kamroq ta'sir qiladi, bunda toponimlarning aksariyati mahalliy atamalar ishtirokida yaratilgan"¹⁶⁰. Ammo shuni aytish joizki, geografik atamalar leksik birliklar sifatida bo'shliq makon ma'nosiga ega, ammo toponimik nuqtayi nazardan ular geografik voqelikda aniq joyni belgilamaydigan so'zlar bo'lib qoladi. Masalan, qishloq, ovul, ko'l, soy umumiy tushunchalarni ifodalaydi, lekin ma'lum bir joyga bog'lanmagan. Ushbu atamalarni aniq geografik nomlarga aylantirish, ya'ni bir jisimli geografik obyektlar orasidan turli sifatlar bo'yicha ajratilishidir. Atama sifatini sifat funksiyasini bajaruvchi so'zlar belgilaydi, masalan, Qoratepa, Saribel, Sariqiya, Yangibozor, Yangiovul, Yangiyer. Bundan kelib chiqadiki, toponimlarning ma'lum bir guruhi paydo bo'lganda, asosan, ikki komponentli aniq iboralar hosil bo'ladi. Bular, asosan, birinchi, oz sonli ikkinchi va uchinchi turdagi aniq iboralar bo'lib, bu toponimik tizim qadim zamonlarda shakllanganligi bilan izohlanadi. Ikkinchidan, yangi toponimlarning ma'lum bir qismi migratsiya xususiyatiga ega, ya'ni dashtga ko'chib o'tgan aholi o'zlarining uzoq yillik nomlarini uning hududiga o'tkazadilar.

Birinchi turdagi aniq iboralarni ba'zan murakkab toponimlardan yoki murakkab so'zlardan ajratish qiyin. Hozirgi vaqtda bunday aniq farqlash mumkin emas, negaki, O'zbekiston toponimlarining to'liq tavsifi mavjud emas va geografik imlo uchun qat'iy qoidalar ishlab chiqilmagan. Undan tashqari, turkologiyada qo'shma so'zlar yoki

¹⁶⁰ Qarang: Мурзаев Э. М. Очерки топонимики. – М.: "Мысль", 1974. – С. 97.

sintaksis soʻz birikmalari toʻgʻrisida masala hali turkiyshunoslikda oxirigacha ishlab chiqilmagan.

A.A.Yuldashev: “turkiy tillar koʻp boʻlgan murakkab soʻzlar, ayniqsa, ularning zamonaviy terminologiyasi lugʻatlarda ham, grammatik tavsiflarda ham hali qoniqarli tarzda ishlab chiqilmagan”¹⁶¹, – deb yozadi. N.Mamatov fikriga koʻra, hozirgi vaqtgacha ham ushbu muammoning terminologiyada va uni tushunishda tadqiqotchilar bir fikrga kelishmagan. “Qoʻshma, aniqrogʻi asl qoʻshma soʻzlarni turkiyshunoslikda yaratilish usulini turli atamalar bilan ifodalaydilar, jumladan, “sintaktik usul”, “soʻz qoʻshish”, “tahliliy usul”, “leksik qoʻllash usuli”, “morfologik usul”, “kompozitsiya usuli” va boshqalar”¹⁶². Toponimiyada “geografik nomlarni shakllantirishning sintaktik usuli” atamasi koʻproq maqbuldir. Chunki taʼkidlanganidek, har bir geografik obyekt dastlab tavsiflovchi, yaʼni soʻz birikmalari deb nomlangan. Bu sintaktik birikmalar vaqt oʻtishi bilan toponimik “soddalashish” qonuniyati asosida qoʻshma toponimlarga aylanadi: ikki komponentli, uch komponentli.

Aksariyat qoʻshma toponimlarni sintaktik usul bilan yasaganda birinchi yoki ikkinchi komponent sifatida otlar ishtirok etadi (toponimlar atoqli otlar qatoriga kirishi bilan izohlanadi) hamda sifatlar, sonlar va ayrim hollarda, feʼl shakllari ham uchraydi. Eng koʻp quyidagi tuzilma turlari uchraydi.

Turi: ot+ot Qorovultepa (qoʻriqlov qoʻrgʻoni), Qozoqovul, Tatarqishloq, Gadoyariq, Ayimariq, Qirgʻizovul, Naymanqishloq, Shaytontepa, Tentakovul va boshqalar.

a) sodda tub otlarning birikuvi bilan yaratilgan toponimlar: Qiyattepa, Darvozaqir, Naymankoʻl, Qiyatkoʻl, Qazovul, Kampirjar, Qirgʻizovul, Jauquduq va boshqalar;

b) tub va yasama otlarning birikuvi bilan yaratilgan toponimlar: Bolasoliq, Qumsoliq, Urunbayqoʻrgʻon, Abdullaqoʻrgʻon, Mullaoʻlgan va boshqalar;

161 Юлдашев А.А. К характеристике тюркских сложных слов // Вопросы языкознания. – 1969. № 5. – С. 68.

162 Маматов Н. Образование собственносложных слов в узбекском языке // Советская тюркология. – 1982. № 1. – С. 67.

v) sifat va sodda tub otlar birikivi bilan yaratilgan toponimlar: O'g'risoy, Puchuqtepa, Soliqtepa, Ulug'tepa, Qumorvoztepa va boshqalar;

g) sodda tub ot va birlik sondagi 3-shaxs egalik qo'shimchasini olgan ot birikivi bilan yaratilgan toponimlar: Jarboshi, Jau joli va boshqalar;

d) qaratqichli ot va birlik sondagi 3-shaxs egalik qo'shimchasini olgan ot birikivi bilan yaratilgan toponimlar: Muytenning qayig'i, Qizonaning qayig'i va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, murakkab toponimlarning ikkinchi komponenti ot + ot turi sintaktik usulda shakllangan va ular, asosan, ko'l, ariq, qishloq, ovul, jar, quduq, qo'rg'on atamaları bilan ifodalanadi. Ushbu murakkab shakllanishlarning birinchi komponenti aniqlovchi funksiyasini bajaradi. Jumladan, sifat + ot. Ushbu tarkibiy turga ko'ra qurilgan nomlar orasida sifat ifodalaydigan juda ko'p toponimlar mavjud. Bular quyidagilar:

a) suv va tuproqning ta'm sifatlari va xususiyatlari: Sho'rquduq, Achchiqquduq, Achchiqko'l (bir necha marta uchraydi), Sho'rqishloq va boshqalar;

b) turli obyektlarning geografik tuzilishi xossalari: Do'ngariq, Chuqurariq, Oqsarido'ng, Chuqurko'l;

v) ma'lum bir joyning joylashishi va geografik tuzilishi: Qirovul, Do'ngqishloq, O'rtaovul, O'rtabo'z, Yangiovul va boshqalar.

Shuningdek, sifatlarning tarkibiy turiga ko'ra qurilgan toponimlarning bir qismi sifatida sifatning rang (ba'zan rangsiz ma'noda ishlatiladi) bildiruvchi shakllari mahsuldor hisoblanadi: a) oq – Oqsu, Oqqum, Qqtepa, Oqshig'anoq; b) qora –Qoratepa, Qorashengel, Qorasiraq, Qorabuloq; v) sariq (sari) – Sariqiya, Saritepa, Saribel va boshqalar; g) qizil –Qizilbuloq, Qizilquduq, Qizilkesik (oykonim) va hokazo.

Qo'shma nomdagi sifatning grammatik xususiyati ushbu turdagi quyidagi mavjudlikni ko'rsatadi:

a) tub sifat + ot: Oqqum, Oqshig'anoq, Oqsu, Qoratepa, Qorayo'l, Qoraqir, Saribel, Sariqiya va boshqalar;

b) yasama sifat + ot: Achchiqko‘l, Puchuqtepa, Teshiktepa, Quruqko‘l. Bu yerga Xo‘razko‘l, < Xo‘razli ko‘l, Laylak ko‘l < Laylakli ko‘l, Yantoqsoy < Yantoqli soy, Oltinsoy < Oltinli soy va boshqalar kabi qisqartirilgan nomlar kiritilishi kerak.

Ko‘plikning shartli ma’nosini bildiruvchi xalq geografik atamalari bilan toponimlar tarkibida turkiy dunyo uchun muqaddas bo‘lgan raqamlar (uch, besh, yetti, qirq, yuz, ming) tez-tez uchrab turdi. Ko‘pincha, bu raqamlar aniq qiymatga ega emas, lekin shartli to‘planning qiymatini o‘z ichiga oladi. O‘rta Osiyo xaritasidagi Qizilqumda, ko‘pincha tur bo‘yicha paydo bo‘lgan umumturkiy tuzilish shakllanishlari mavjud: son + atama: Mingbuloq “mingta buloq”, Mingchuqur “mingta chuqur”. O‘rta Osiyoning boshqa hududlarida shunga o‘xshash toponimlar uchraydi: Mingorol “mingta orol”, Mingtepa “mingta tepalik”, Qo‘shquduq “ikki quduq”, Uchquduq “uchta quduq”, Beshquduq “beshta quduq”, Uchtom “uchta uy”, Uchtepa “uchta tepalik”, Beshtepa “beshta tepalik” va h.k. Qizig‘i shuki, shartli ko‘plik tarkibida sonlar bo‘lmagan birikmalarni ifodalashi mumkin. Masalan, Qizilqum hududida Tosh o‘rmon toponimini kuzatamiz, toponim tarkibida o‘rmon so‘zi “beqiyos ko‘plik”, “son-sanoqsiz”, ya’ni Tosh o‘rmon asl ma’nosi “tosh qotgan o‘rmon” degan ma’noni anglatadi.

Son+ot komponentli toponimlar. Ushbu qo‘shma toponimlar tarkibida turkiy onomastik adabiyotida tasvirlangan sonlar taqdim etilgan. Masalan, Uchquduq, Olti bola, To‘rtquduq, To‘qqiztepa, O‘nto‘re, Juzquduq, Juzbola, Mingbuloq va boshqalar.

Dissertatsiyada toponimlarning bir qismi sifatida raqamlarning leksik va semantik xususiyatlari o‘rganiladi, chunki ularning qo‘llanishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ma’lumki, uch, yetti, qirq, yuz, ming muqaddas raqamlar O‘rta Osiyo toponimiyasida eng unumli, chunki turkiy xalqlarning tushunchasida ushbu raqamlar mo‘jizaviy kuchga ega bo‘lgan¹⁶³. Aksariyat hollarda ular “noaniq ko‘plik”ni anglatgan. “Frazologik iboralarda va qozoq hamda boshqa turkiy hamda Hind-Yevropa tillarining toponimik

¹⁶³ Qarang: Джанузаков Т. Социально- бытовые мотивы в казахской антропонимии // Личные имена в прошлом и настоящем. – М., 1970. – С. 196.

hosillarida uch, yetti, qirq, yuz, ming yetakchi yoki sterjenli sonlarni aniqlovchi funksiyasi noaniq katta miqdorni belgilashga keltiriladi¹⁶⁴.

Geografik nomlar tarkibida to‘rt, besh sonlarining qo‘llanilishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu raqamlar muqaddas toifaga kirmaydi. Ammo To‘rtquduq, To‘rtqora, Beshachchiq, Beshbola, Beshqubir toponimlaridan biri bu raqamlarning O‘rta Osiyo toponimlari va etnonimlari tarkibida tarqalishini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda besh va to‘rt sonlari bo‘lgan toponimlar chastotaligini kuzatamiz:

Beshpoy – Toshkent viloyatidagi etnonim va kelib chiqishi etnik bo‘lgan oykonim;

Beshyog‘och – Toshkent shahrida joylashgan;

To‘rtqora – Qizilqumdagi joy nomi va boshqalar. Qizig‘i shundaki, S.Qorayev o‘z lug‘atida besh soni bo‘lgan faqatgina 5 nomni keltiradi (Y.Koychubayev lug‘atida 26 ta, S.Ataniyazov kitobida esa birorta ham o‘xshash son keltirilmagan). Shuni aytish joizki, erontilli toponimiyada ham besh – “panj” soni kuzatiladi. Masalan: Panjikent, Panj daryosi va boshqalar.

Numerativ so‘z + ot komponentli toponimlar. Shuni ta’kidlash kerakki, raqamlash so‘zlari geografik nomlar tarkibida paydo bo‘ladi. Tadqiq etilayotgan hudud toponimlarining tuzilishidagi raqamlar turkumini shartli ravishda Qizilqumdagi Qo‘shquduq, Qo‘shcho‘qqi, Qo‘shkon; Bo‘stonliq tumanidagi Qo‘shqo‘rg‘on, Qo‘shkut “juft” turlarini raqamlash so‘zlari bilan bog‘lash mumkin

Hududning qo‘shma toponimlar tarkibida uchrayotgan numerativ so‘zlar noaniq ko‘plikni ifodalaydi, bu qo‘sh (juft) – juftlikni ifodalovchi numerativ so‘z hisoblanadi. Xuddi shu turkumga O‘zbekiston toponimiyasida kuzatiladigan va kelib chiqishi fors tilli bo‘lgan birlik – yakka (bir), gala (uyum, shartli ko‘plik)ni ifodalaydigan numerativ so‘zlarni qo‘shish lozim. Ushbu numerativ so‘zlar yordamida yaratilgan qo‘shma toponimlarga quyidagilar kiradi: Galaquduq (quduqlarning ko‘pligi), Qo‘shquduq

¹⁶⁴ Койчубаев Е. Ко‘rsatilgan lug‘at. – Б. 9.

(quduqlar juftligi), Qo'shtegirmon (tegirmonlar juftligi), Yakkasardoba (yolg'iz sardoba).

Tadqiq etilayotgan hududda Boytepa, Ristepa etnonimlari kuzatiladi. Shuningdek, fe'l+ot turi bo'yicha paydo bo'lgan toponimlar ham mavjud bo'lib, bu kabi nomlar nisbatan kam uchraydi. Undan tashqari, tadqiqot olib borish jarayonida elliptik toponimlar deb ataladigan joy nomlari aniqlandi.

Bundan kelib chiqqan holda qo'shma toponimning ikkinchi komponenti qaysi fe'l shaklida ifodalanganligiga asoslanib, nomlar bir necha turga bo'linadi:

a) og'zaki qismi -gan// g'on // qon qo'shimchali o'tgan zamon fe'llari bilan ifodalangan qo'shma toponimlar: Mambetqazg'on, Salmanqochqon, Quybotgan, Aliyarqashqon, Tuyaemgan, Mullao'lgan va boshqalar;

b) og'zaki qismi -di qo'shimchali o'tgan zamon fe'li bilan ifodalangan qo'shma toponimlar: Aravaqoldi, Ketmonqoldi va boshqalar.

v) ikkinchi komponenti -r/-ar qo'shimchali ravish bilan ifodalangan qo'shma toponimlar: Tuyatortar.

Fe'l+ot turidagi qo'shma toponimlar orasida ikki nom aniqlandi: birinchi komponenti o'tgan zamon fe'li bilan ifodalangan (Oqtiqon – “qon oqdi”), birinchi komponenti sifatdosh bilan ifodalangan (Qolg'ansir “qolgan daryo”), ushbu toponim keng tarqalgan birliklar sirasiga kiradi.

Elliptik fe'l toponimlariga Qamalgan, Tuzalgan fe'lli toponimlar orasida, nafaqat shakllanish turida farq qiluvchi, balki turli sintaktik ma'nolarga ega bo'lgan murakkab nomlar ham mavjud. Bunday komponentli toponimlarda harakatga undash, buyurish, chaqirq ma'nolari ajralib turadi. Masalan, Soqbo'ltepa (tepalik, e'tiborli bo'l), Olg'abos (oldinga qadam bos).

Shuni ta'kidlash lozimki, barcha qo'shma fe'lli toponimlar real voqealar sababli paydo bo'lgan, ayrim hollarda esa ma'lum bir tarixiy shaxs faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, Ketmonqoldi (ketmon qoldi), Aravaqoldi (arava qoldi, botdi), Qo'ybotgan (qo'ylar cho'kib ketgan joy), Tuyao'lgan (tuya o'lgan joy), Mullao'lgan (mulla o'lgan joy) va h.k. o'zining ma'nosini anglatadi, Abdullaqo'rg'on toponimi esa

XVI asrda hukmronlik qilgan Abdullaxon ismi va faoliyati (asl. – “Abdullo qo‘rg‘on”) bilan bog‘liq. Aliyarqashg‘an (Aliyar qochgan joy) keksalarning ma‘lumotlariga ko‘ra, Buxoro amirining sarkardalaridan biri Aliyar Nikolay I qo‘shinlari bilan bo‘lgan janglardan birida shu yerdan qochgan.

Ko‘rib turganimizdek, tadqiq etilgan qo‘shma toponimlarning aksariyat qismi tarkib bo‘yicha ikki komponentli. Ammo uch komponentga ajratish mumkin bo‘lgan nomlar ham uchraydi. Masalan, Saqboltepa – Saq+bol+tepa, Shumoliy Oqtepa, – Shimoliy+oq+tepa, Xojakeldiquduq – Xoja+keldi+quduq, Quvattug‘ansoy – Quvat+tug‘an+soy. Lekin V.D.Nikonov uch hadli konstruksiyalarni ikki komponentli sifatida ko‘rib chiqishni taklif qiladi: “bunday oronimlarni Kichik-tosh-soy va hokazo deb atash xatodir. Ularning yozilishiga xilof ravishda ular ikki asosli, Kichik-tosh-soy deb yaratilgan emas, balki kichik + (tosh+soy) Kichik Toshsoydir. Shuningdek, Katta Toshsoy shaklidagi toponim ham kuzatiladi. Bunday holatlarda ko‘rinmas komponentlardan biri qolganlarning har biriga ham tegishli bo‘lmay, balki ikkalasiga ham yaxlit butun sifatida tegishli. Bu sath uchta negizli emas, ikkitadir, ulardan biri o‘z navbatida ikki asosdir”¹⁶⁵.

Shunday qilib, geografik nomlarning ko‘rib chiqilgan tarkibiy turlari qo‘shma toponimlarning bir qismi sifatida, ayniqsa, samarali ekanligini ko‘rsatadi:

1) komonim ko‘rsatkichlari: ovul, qishloq, kapa, qo‘rg‘on: Ovul Qirg‘izovul (bir necha marta uchraydi), Qozoqovul (ko‘p marotaba uchraydi), Turkovul (ikki marta uchraydi), Yangiovul bir necha marta uchraydi; qishloq – Tatarqishloq, Qoraqishloq; kapa – Beshkapa, To‘qqizkapa, Qirqkapa; qo‘rg‘on – O‘rinboyqo‘rg‘on, Qo‘rg‘ontepa, Abdullaqo‘rg‘on, Nurotaqo‘rg‘on;

2) dromonim ko‘rsatkichlar: yo‘l, qayiq, ko‘prik, kechuv: yo‘l – Qorayo‘l, Simyo‘l; qayiq – Sariqiyaning qayig‘i, Ko‘rikning qayig‘i, Qizonaning qayig‘i (Sirdaryodan o‘tish joylari nomlari); ko‘prik – Jaqay ko‘prik, Quttiqizning ko‘prigi, Ummatqulning ko‘prigi, Shodmonqulning ko‘prigi, Qizil ko‘prik; kechuv – Toshloqkechuv;

¹⁶⁵ Никонов В.А. Заметки по оронимии Киргизии // Ономастика Средний Азии.– М., 1978. – С.91.

3) godonim ko'rsatkichlar: ko'cha, mahalla. Ko'cha – Do'ngko'cha, O'g'riko'cha, Borko'cha, Pastko'cha, Sho'rko'cha, Raisko'cha, Forishko'cha, Garangko'cha, Garajko'cha; mahalla – Sintobmahalla, Uxummahalla, Po'stakmahalla, To'qaymahalla, Mahalla (mustaqil nomi);

4) o'z navbatida gidronimik ko'rsatkichlar ikkiga bo'linadi:

a) tabiiy kelib chiqish gidronimlarni bildiruvchi ko'rsatkichlar. Ko'l, daryo, buloq: Achchiqko'l, Sirdaryo, Ko'k buloq, Oqsu.

b) sun'iy kelib chiqish gidronimlarini bildiruvchi ko'rsatkichlar. Ariq, hovuz, quduq, kanal, kollektor (o'zlashtirilgan): Gadoyariq, Qulboyariq, Sultonhovuz, Qumquduq, Toshquduq kanali, Sarqisov kanali, Qo'ng'iroq kanali, Sho'ro'zaq kollektori, Jetisoy kollektori, Sardoba kollektori;

5) oronimik ko'rsatkichlar. Ular orasida tepa eng ko'p ishlatilish chastotasi bilan ajralib turadi, shuningdek, qoya, dovon, suvot kamroq tarqalgan: tepa – Qoratepa, Qo'rg'ontepa, Shaytontepa, Ilontepa, G'ishtepa, Qoshtepa, Yolg'iztepa va b.; Kampirqoya, Jing'ildikamar, Sariqiya (dovon), Tubek, Toshuvot va hokazo.

6) fitonimik ko'rsatkichlar. Gujum, tol, pista, paxta, terak: Gujimiditov, Toldi quduq, Paxtaker, Keskanterak, Pistelitov, Gadoybaytol, Nuralitol, Balg'abaytol va boshqalar.

Murakkab geografik nomlarning shakllanishi, ma'lumki, turli sintaktik konstruksiyalarni toponimlashtirish orqali sodir bo'lgan. Hududning qo'shma toponimlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, bu nomlar atributiv, izafetik va predikativ aloqa asosida paydo bo'lgan.

Atributiv aloqalar asosida yaratilgan toponimlar. Atributiv aloqalar asosida yaratilgan konstruksiyalar aniqlovchi+aniqlanuvchi turdagi shakllanishlardir. Ma'lumki, qo'shma toponimlarning aksariyat qismi aniqlovchili turga kiradi. Qoida tariqasida, bunday shakllanishlarda hal qiluvchi omil birinchi komponent bo'lib, ikkinchisini aniq obyektning umumiy sonidan ajratib turadi, masalan: Qorabuloq, Oqsu, Oqtapa, Qoratepa, Qirqkapa (Qirq loy uylar), Qizilqum, Oqqum, Do'ngqishloq (yuqori qishloq), Do'ngariq (balanddagi ariq). Ushbu bog'lanish asosida shakllangan murakkab

konstruksiyalar ikki turga bo‘linadi: izafet (*ar. idafa – qo‘shmoq, qo‘shimcha*) – *ba’zi eroniy va turkiy tillardagi atributiv konstruksiyalarning ayrim turlarini bildirish uchun ishlatiladigan atama*) aloqa asosida paydo bo‘lgan qo‘shma toponimlar va aniqlovchi + aniqlanuvchi aloqasi asosida paydo bo‘lgan qo‘shma toponimlar. Bu hodisa, asosan, qozoq tilining ilmiy grammatikasiga xos bo‘lib, ot egalik qoshimchasi yoki izafet bilan belgilanadi va qozoqcha nomlarga xos sintaktik aloqani ko‘rsatadi. Masalan, *Ilyasning belgisi, Xan Sharbağ, Shadmanquduq, Shansharbayquduq, Turdimuratning to‘lderı* va b. Izafet asosida yaratilgan qo‘shma toponimlarga misol bo‘la oladi.

O‘zbek tili ilmiy grammatikasida bunday tuzilmali nomlar qaratqich-qaralmish asosida bolib, moslashuvli birikma hisoblanadi.

Qaratqich-qaralmish asosida yaratilgan qo‘shma toponimlar. Shuni ta’kidlash kerakki, geografik nomlarni soddalashtirishning toponimik qonuni tufayli moslashuvli qurilish asosida shakllangan ko‘plab toponimlar grammatik ma’nosini yo‘qotdi. Masalan, O‘rinboyariq (qaratqich-qaralmish, aniqlovchili birikma, tobelanish moslashuv: to‘liq moslashuv, ot+ot, vositasi – formal-grammatik vosita: belgisiz kelishik va egalik, otli birikma, sodda birikma), Mirzaravot (qaratqich-qaralmish, aniqlovchili birikma, tobelanish moslashuv: to‘liq moslashuv, ot+ot, vositasi – formal-grammatik vosita: belgisiz kelishik va egalik, otli birikma, sodda birikma), Gadoyariq (qaratqich-qaralmish, aniqlovchili birikma, tobelanish moslashuv: to‘liq moslashuv, ot+ot, vositasi – formal-grammatik vosita: belgisiz kelishik va egalik, otli birikma, sodda birikma) nomlari dastlab O‘rinboyning arig‘i (qaratqich-qaralmish, aniqlovchili birikma, tobelanish, moslashuv: to‘liq moslashuv, ot+ot, vositasi – formal-grammatik vosita: belgili kelishik va egalik, otli birikma, sodda birikma) – O‘rinboy qazdirgan ariq, Mirzaning ravoti (qaratqich-qaralmish, aniqlovchili birikma, tobelanish, moslashuv: to‘liq moslashuv, ot+ot, vositasi – formal-grammatik vosita: belgili kelishik va egalik, otli birikma, sodda birikma), Gadoyning arig‘i (qaratqich-qaralmish, aniqlovchili birikma, tobelanish, moslashuv: to‘liq moslashuv, ot+ot, vositasi – formal-grammatik vosita: belgili kelishik va egalik, otli birikma, sodda birikma) shakl ko‘rinishida edi. Ularda aniqlovchi va aniqlanuvchi belgilari bor edi, ammo vaqt o‘tgan sari

komponentlar o‘rtasida sintaktik aloqalar uzilib, hozirda kundalik hayotda O‘rinboyariq, Mirzaravot, Gadoyariq nomlari ishlatiladi.

Tuzilishiga ko‘ra, bunday konstruktsiya asosida paydo bo‘lgan toponimlar ikki turga bo‘linadi: aniqlovchi va aniqlanuvchi ko‘rsatkichlari tushib ketgan konstruktsiyalar – toponimlar. Qo‘shma toponimlarning bu turi tadqiq etiluvchi hududni mazkur turdagi geografik nomlarning aksariyat qismini tashkil qiladi. Bunday birikmalarda asta-sekin aniqlovchi va aniqlanuvchi ko‘rsatkichlar yo‘qolishi yuz beradi. Masalan, Qizlarsupa (qarang. Qizlarning supasi > Qizlar supasi > Qizlarsupa), Qirg‘izovul, Sultonhovuz, Qazovul, Uyasko‘l, Ayimariq, Boyxojaquduq. Bu nomlar elliptirlanishga duchor keladi, lekin ma‘nosi bo‘yicha aniqlovchi va aniqlanuvchi grammatik ko‘rsatkichlarning mavjudligi nazarda tutiladi. Konstruktsiyalar – bu aniqlanayotgan narsaning ko‘rsatkichi saqlanib qolgan toponimlar. Ushbu turning nomlarida birinchi komponentning (aniqlovchini) grammatik ko‘rsatkichi tushirib qo‘yilgan, ya‘ni aniqlanuvchi o‘zining tarkibida grammatik ko‘rsatkichni saqlab qoladi.

Aniqlovchi + aniqlanuvchi aloqa asosida paydo bo‘lgan qo‘shma toponimlar. Shuni aytish kerakki, tadqiq etiladigan hududning qo‘shma toponimlarni yaratish usuli nafaqat geografik nomlarning yaratilishida unumlidir, balki butun turkiy toponimiyada ham. Chunki real geografik voqelikni obyektning rangi, o‘lchami, tashqi xarakteristikalar va boshqa belgilari bo‘yicha atrof-muhitdan aniqlab olishning keng tarqalgan usulidir. Aynan shuning uchun tadqiq etiladigan massivda toponimlarning aksariyat qismi – murakkab hosilalardir, ularning birinchi komponenti – ot (ko‘pincha geografik atama). Masalan, Qorabuloq, Qoratepa, O‘rtaovul, Sho‘ruzoq, Sho‘rquduq, Sariqiya, Oqqum, Yangiyer, Achchiqko‘l, Achchiqquduq va h.k.

Predikativ (predikativlik gapni shakllantiruvchi sintaksik kategoriya bo‘lib, gap mazmuniga obyektiv borliqning hodisasi haqida xabar berish xususiyatini hosil qiladi) aloqalar asosida yaratilgan toponimlar. Predikativ aloqalar asosida yaratilgan toponimlar turkumi ega va kesim birikmalari bilan taqdim etilgan. Odatda bu nomlar, ya‘ni ega+kesim birikmalari, ko‘rsatilgan joyda ro‘y bergan u yoki bu real voqea sababli paydo bo‘lgan. Tadqiq etilayotgan hududning predikativ aloqalar asosida

yaratilgan toponimlarning soni kam. Odatda bu birikmalar to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa yo‘li bilan yaratilgan, ya’ni ega+kesim. Ushbu birikmalarda birinchi komponent harakat subyektini ifodalaydi, ikkinchisi esa harakatning o‘zini bildiradi. Masalan: Aliyarqashg‘an, Tuyao‘lgan, Mambetqazg‘on, Tuyatortar va boshqalar. Materialni yig‘ish paytida teskari tartibdagi nom aniqlandi, ya’ni kesim+ega, bunda birinchi komponent harakatni ifodalaydi, ikkinchisi – harakat obyektini, masalan: Oqtiqon – asl. “qon oqdi”. Ammo shu yerda M.D.Mamedov bu masalani boshqacha ko‘rib chiqadi va shunday yozadi: Lenkoran pasttekisligi toponimlarida fe’l shaklidagi otlarning birikmasini taqdim etuvchi turkiy toponimlar guruhini qayd etish mumkin, masalan, otlar -an ga bo‘lgan hozirgi zamon ravishlari bilan biriktirilishi mumkin: Odamo‘tirg‘an < odam yoki shaxsiy ism+o‘tir g‘an -an < ravish o‘tirmoq fe’lidan I. Aftidan, bu aniqlovchi bizning Aliyarqashg‘an < Aliyar (shaxs ismi - Aliyar) + qashg‘an - qashmoq fe’lidan -an < ga ravish misollarimizga to‘g‘ri keladi.

2.4.§. Qizilqum hududi toponimlari tarkibiy tuzilishida rang-tus ifodalovchi sifatlar

Ma’lumki, turli ranglar va ular haqidagi totemik, mifologik, diniy va falsafiy tushunchalar qadimda turkiy xalqlar hayotida muhim o‘rin egallagan. Bu haqda tarixiy manba va etnografik adabiyotlarda fikrlar bildirilgan bo‘lib, ranglar turkiy xalqlarda ramziy ma’nolarni ham anglatgan. Bu haqda K.Shoniyozov shunday yozadi: “Qadimgi davrlarda Oltoy va Janubiy Sibirda yashagan turkiy qabilalar shimol, janub, sharq, g‘rabni ranglar nomi bilan ataganlar. Qora rang shimolni, qizil rang janubni, ko‘k rang sharqni, oq rang g‘arbni, sariq rang markazni bildirgan. Ma’lum bir qabila ittifoqida bo‘lgan kishilarning tomonlarga qarab joylashishi odat tusiga kirib, vaqt o‘tishi bilan tomonlarning nomlari (rang nomlari) etnonim bo‘lib qolgan”¹⁶⁶. Demak, rang ifodalovchi so‘zlar qadimda kishilarning joylashish o‘rni yoki tomonlarni aniqlash maqsadida qo‘llanilgan.

¹⁶⁶ Эргашев А. Ўзакдош этнопонимлар тадқиқи./Илмий хабарнома АДУ, №3, 2011. – Б. 94.

Turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tilining lingvistik materiallari tur va rang nomlarining asosiy dominant (nominal) ma‘nosi bilan bir qatorda xalq dunyoqarashi, turmush tarzi bilan bog‘liq semantik xususiyatlar va ularning turli ramziy ma‘nolari ham obyekt bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq turkologiya va o‘zbek tilshunosligida turkiy tillarning shaxs-ma‘no xususiyatlarini faktlar asosida ochib beruvchi tur va rang muammosini har tomonlama o‘rganuvchi asarlar ko‘p emas. O‘zbekiston, xususan, Navoiy viloyati Qizilqum hududi toponimiyasida geografik nomlar tarkibida ot, fe‘l, sifat kabi so‘z turkumlariga oid birliklar faol qo‘llansa, ravish, olmosh, son kabi turkumlarga mansub so‘zlar kam qo‘llanilishini ko‘ramiz.

Qadimda kishilar tabiat hodisalarining sirini hali yaxshi bilmagan paytlarda ko‘zi tushgan narsalariga umumiy nom berishgan. Bunday nomlar turli obyektlarni, narsa-hodisalarni o‘zaro ajratish, farqlash uchun xizmat qilgan. Masalan, suv so‘zi suvni va har qanday suvni, tog‘ so‘zi ushbu obyekt tipiga kiradigan har qanday tog‘ni anglatgan. Ammo asta-sekin qadimiy odamlar atrofidagi suv oqadigan ko‘plab obyektlarga, tog‘larga duch kelishgan. Kishilarda suv oqadigan bitta obyekt (daryo, soy, o‘zan, buloq va boshqalar), bir-biridan farqlanuvchi tog‘larni, tepalik va qirlarni bir-biridan ajratish ehtiyoji tug‘ilgan. Chunki qadimiy odamlarning yashash maskanlari u yoki bu tog‘da joylashgan g‘orlarda, daryolar qirg‘og‘ida bo‘lgan. Ular o‘z yashash maskanlarini to‘g‘ri topib kelishi uchun, ovchilik qiladigan joylarini yanglishmay topishi uchun tog‘lar, daryolar mo‘ljal, belgi rolini o‘ynagan. Natijada yakka biror tog‘ni yoki daryoni boshqa tog‘ va daryodan farqlash uchun qo‘shimcha maxsus nomlar berishgan. Qadimdan mavjud bo‘lgan Oqdaryo, Qoradaryo, Qoratog‘ kabi nomlar mana shunday paydo bo‘la boshlagan¹⁶⁷.

M.Sodiqovanning ta’kidlashicha, rang-tus bildiruvchi sifatlar otlashishga juda moyil. Ulardagi bu otlashish xususiyati, ayniqsa, semantik rang-baranglikni va ko‘chgan ma‘nolarni yuzaga keltiradi¹⁶⁸.

¹⁶⁷ Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. Монография. – Тошкент: Фан, 2013. –Б. 8.

¹⁶⁸ Содикова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. Монография. Тошкент: Фан, 1974. – Б. 8.

Ushbu qismda toponimlar tarkibida qo‘llanadigan oq, qora, qizil kabi lug‘aviy birliklar va ularning semantikasi, etimologiyasi to‘g‘risida fikr yuritimiz. Mazkur birliklar toponim tarkibida rang ifodalash uchun xizmat qiladimi, degan savolga javob berishga harakat qilamiz.

Oq rang ifodalovchi sifatlar ishtirokidagi toponimlar. Oq so‘zi izohli lug‘atda o‘n bir ma‘noda qo‘llanishi ko‘rsatilgan:

Qor, sut, paxta rangidagi (oq doka, oq qog‘oz, oq non);

Oq tusga moyil, tiniq (oq badan, oq tanli);

Oqlik (sut-qatiq ma‘nosida);

Aroq (so‘zlashuv tilida);

Chor Rossiyasi podshosiga tegishli; uning tarafdori;

Oxirgi, toza (oqqa ko‘chirmoq);

Gunohsiz, sha‘niga dog‘ tushmagan kishi; to‘g‘ri, haqiqat;

Oqargan tuk, mo‘y (soch va soqolning oqargan qismi);

Ko‘zning qorachiqni o‘ragan, tiniq rangli, shaffof qismi;

Ba‘zi kasalliklar natijasida ko‘z qorachig‘ida paydo bo‘ladigan oqish dog‘, parda;

Tuxumning oqsil moddasi¹⁶⁹.

Ko‘rib turganimizdek, ushbu so‘z tabiatdagi rang, shaxs, predmet, hodisa bilan bog‘liq ma‘nolarda qo‘llaniladi. Shuningdek, oq so‘zi toponimlar tarkibida ham tez-tez uchrab turadi. Ko‘plab toponimlar tarkibidagi oq so‘zi rang ma‘nosiga egami yoki boshqa ma‘nolarda ham qo‘llanadimi? Ushbu savollarga quyidagi tahlillar orqali javob izlab ko‘ramiz.

Navoiy viloyati Qizilqum hududi toponimiyasida *oq* so‘zi ishtirokidagi bir qancha joy nomlari mavjud: Oqtov (Tomdi t.), Oqbo‘get (Konimex t.), Oqtoshli (Konimex t.), Oqtaqir (Tomdi t.), Oqsoy (Konimex t.), Oqbaytal (Tomdi t.) Oqtepa (Konimex t., Tomdi t.), Oqbo‘ta (Tomdi t.), Oqquduq (Tomdi t.), Oqo‘y (Tomdi t.), Oqshag‘il (Konimex t.), Oqmurin (Tomdi t.), Oqbo‘riyoynaq (Konimex t.) va boshqalar.

¹⁶⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Мадвалиев А. таҳрири остида. 5 жилдлик. 3-жилд. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. –Т.: 2006 – Б. 197

Oqtov (balandligi 948 m) Tomdi tumanidagi tog‘. Oqtovga qarasangiz, u hayot ummonida o‘z xalqining taqdirini ko‘tarib, baxt sari suzib borayotgan ulkan yelkanli oq kemaga o‘xshaydi. Tog‘ning oq rangi tufayli u shunday nom olgan. Nomning birinchi qismidagi “oq” so‘zi, ko‘pincha, “oq rang”, “katta, keng, tekis” ma‘nolarida geografik atama sifatida ishlatiladi. Turkiy tilda “ag‘”, o‘zbek tilida “oq” so‘zi rang ma‘nosida qo‘llanilsa, ikkinchi shakldagi “tov” so‘zi qadimgi turkiy tillarda “tag‘”, o‘zbek tilida “tog‘” tarzida uchraydi.

Oqbaytal Tomdi tumanidagi ovul nomi. Bundan tashqari, Qozog‘iston Respublikasining boshqa viloyatlarida ham Alabaytal, Baytal, Basbaytal kabi toponimlar mavjudligi ma‘lum. Aftidan, bu toponimlarning *baytal* “biyadan yosh urg‘ochi ot” so‘ziga hech qanday aloqasi yo‘qdek, chunki u buryat tilida baysa “tog‘” ma‘nosini bildirsa, mo‘g‘ul tilidagi bayq, “tosh” so‘zlari bilan bog‘lanishi mumkin. Shubhasiz, so‘z oxiridagi *l* mo‘g‘ul tilida ko‘plik ko‘rsatkichidir. Bundan tashqari, R.Dodixudoyev bergan ma‘lumotiga ko‘ra: Tojikistondagi Oqbaytal dovonini arabcha Aqbaitall, yani “tepalikdagi dovon” deb izohlashadi¹⁷⁰.

Oqbaytal Uchquduq tumanidagi Ko‘kayaz, Taspen ovullarining o‘rtasida joylashgan. Sho‘rolar davrida bu joylar mol fermasi bo‘lgan va shu nom bilan atalgan. Rivoyatlarga qaraganda, Oqbaytal shu joyda suvsizlikdan o‘lgan, yana aytishlaricha, Oqbaytal ovchi qo‘lidan shu joyda qutulib qolgan ekan.

Toponimlar tarkibidagi oq, qora so‘zlari haqida fikr yuritgan E.M.Murzayev, turkiy xalqlar qadimda tog‘dan oqib tushuvchi tezoqar, sho‘x suvni *oqsuv*, tekis yerlarda buloq, sizot suvlaridan paydo bo‘lgan suvni *qorasuv* deb ataganliklarini qayd etgan¹⁷¹. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, toponimlar tarkibida qo‘llanadigan *oq* komponenti bir o‘rinda rang-tus ma‘nosini, ikkinchi o‘rinda esa boshqa ma‘nolarni, xususan, *katta, ulkan, keng, ko‘lamdor* kabi ma‘nolarni anglatadi.

Nafaqat Navoiy viloyati Qizilqum hududi, balki respublikamizning boshqa hududlarida ham ko‘p uchraydigan nomlardan biri *Oqtepa* toponimidir. Ushbu toponim

¹⁷⁰ Додыхудоев Р.Г. Тюркский слой топонимии Памира // Материалы конференции по ономастике Узбекистана. Джизак, 1985, стр 6-7.

¹⁷¹ Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. –М., Мысль, 1974. – С.200.

Buxoroning Jondor va G'ijduvon, Samarqandning Qo'shrabot, Qizilqum hududining Konimex, Tomdi, Qiziltepa tumanlarida mavjud. Toponimning tarkibi: oq+tepa. Nom, avvalo, geografik obyektни atash uchun qo'llangan. Y.G'ulomovning fikricha, eramizning IV-V asrlaridan boshlab O'rta Osiyoning barcha vohalarida sug'orish kanallarining ustida va ekin dalalari o'rtasida dehqonlarning xom g'ishtdan qurilgan ko'shklari vujudga keladi, ularning xarobalari hozirgacha saqlanib qolgan bo'lib, ularni teпа, oqtepa yoki tal deb ataydilar¹⁷².

Toponimiyada teпа tushunchasi o'ziga xos o'ringa egaligi bilan ajralib turadi. Toponimiyada teпа oronim (tog'lar, tepaliklar, qirlar, soyliklar, daralar va boshqa orografik obyektlarning nomlari)¹⁷³; relyef tiplari va shakllari (yer yuzasidan balandlik va chuqurlik) nomi¹⁷⁴ sifatida qayd etiladi.

Teпа – “do'ng joy”. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ot asli *töpa*, *töpu* tarzida talaffuz qilingan (DS, 580); o'zbek tilida *o* unlisi *e* unlisiga almashgan; *töpa* – *tepa*. Bu so'z oxirida *a*, *o* qismi asli leksema yasovchi qo'shimcha, lekin manbalarda *töp* – fe'li o'z aksini topmagan¹⁷⁵.

Teпа – relyefni ifodalovchi geografik terminlardan biri: yer sathidan baland, yuqori bo'lgan do'ng joyga nisbatan ishlatiladi. N.Oxunovning ma'lumotiga qaraganda, “Teпа” termini orqali yasalgan toponimlarning ko'pchiligi qo'shma so'z holatida bo'lib, ularning birinchi qismi quyidagi ma'nodagi so'zlardan tashkil topgan: 1) kishi ismlaridan: Do'simtepa, Ismoiltepa... 2) rang-tusni bildiruvchi so'zlardan: Oqtepa, Qoratepa, Qiziltepa...3) sonni, miqdorni ifodalovchi so'zlardan: Uchtepa, Beshteпа, Qo'shteпа. 4) tuproq tarkibini ifodalovchi “qum, tosh” so'zlari bilan: Qumtepa, Toshteпа, Toshloqtepa. 5) o'simlik nomlaridan: Chinorteпа, Qamishteпа. 6) shakl-hajmni bildiruvchi so'zlardan: Yalpoqtepa, Dumaloqtepa, Yassiteпа singarilar¹⁷⁶.

¹⁷² Гуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. –Т.: Фан,1959. – Б.121.

¹⁷³ Қораев С. Географик номлар маъноси. –Т.: Ўзбекистон, 1978. – Б. 193.

¹⁷⁴ Дўсимов З., Тиллаева М. Топонимика асослари. –Т., 2002. – Б. 82.

¹⁷⁵ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент:“Университет”, 2000. – Б.331-539.

¹⁷⁶ Охунов Н. Жой номлари таъбири. –Тошкент., 1994. – 47 б.

Tepa ishtirokida Bo‘ztepa, Qoratepa, Oqtepa, Sho‘rtepa, Qorovultepa, Qiziltepa kabi geografik obyekt nomlari ham mavjud. Shunday qilib, Oqtepa oronimidan aholi punkti nomi paydo bo‘lgan.

Qora so‘zli rang ifodalovchi sifatlar ishtirokidagi toponimlar. Tilimizda ko‘p qo‘llanadigan qora so‘zining o‘ndan ortiq ma’noda ishlatilishi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”¹⁷⁷ da qayd etilgan. Lekin, toponimlar tarkibida qo‘llanilgan qora so‘zining ma’nosi lug‘atda berilmagan. Ushbu so‘z toponimlarda *tekislikdagi kichik balandlik, do‘ng joy, kichik tepa, ko‘p, zich, qalin* (bog‘, daraxt so‘zlari bilan bog‘langanda), *ko‘p miqdordagi suv* (Qorabuloq), *yuksak, katta* (Qorako‘l) va boshqa ma’nolarni ham ifodalaydi.

Demak, lug‘atda bayon etilgan izohlar vositasida *qora* komponentli toponimlarni sharhlash imkonsiz. Shunisi muhimki, *qora* komponentli toponimlarning aksariyati o‘z qatlamga mansub. Bu holatni, *qora* so‘zining turkiy tillarga mansubligi bilan izohlash mumkin. *Qora* so‘zining turkiy tillardagi variantlari quyidagicha: o‘zb. –qora; qoz., qirg‘., q-qalp. – qara; ozarb., turkm. – gara; xakas., mong. – xara; chuvash – xura va boshq¹⁷⁸.

Qora so‘zi otlashganda “qorag‘ich”, “siluet”, “sharpa, “odam” ba‘zan “mo‘ljal”, “oriyentirovka” ma’nolarida ham qo‘llanadi: Ko‘z qorasiday asramoq – ko‘z qorachig‘iday asramoq. Bu nima gap qizim? Aqlli-hushli kap-katta yigit birdan *qorasini* ko‘rsatmay ketsin (“Mushtum”). Otamning *qorasi* yo‘qoldi deguncha Fuod afandi kirib keldi (M. Ismoilov). ...Ilon izi bo‘lib ketgan oqish yo‘lining ufqida... bir nechta *qora* ko‘rindi (Abdulla Qahhor). Birinchi otgan yoy *qoradan* bir quloch yuqori ketdi (Afandi latifalari). Turdiyev tankka tomon yugurib kelayotgan fashistlarni *qoraga* olib, pulemyotning tepkisini bosdi (Abdulla Qahhor)¹⁷⁹.

¹⁷⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5- жилд. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 591 б.

¹⁷⁸ Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. Монография. Тошкент: Фан, 1974. – Б.61.

¹⁷⁹ Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. Монография. Тошкент: Фан, 1974. – Б.56-57.

Qora soʻzi toponimiyaning turli sohalarida uchraydi. Jumladan, *Qoradaryo*, *Qoraariq*, *Qorasuv* – gidronim, *Qorabogʻ*, *Qorakoʻl* – oykonim, *Qoraqato*, *Qorakoʻlcha* – nekronim, *Qoraqalpoq*, *Qoraqulonchi* – etnotoponim va h.k.

Navoiy viloyati Qizilqum hududi toponimiyasida qora soʻzi ishtirokidagi bir qancha joy nomlari mavjud. Bular sirasiga Qoraqiya (Konimex t.), Qoraquduq (Tomdi t.), Qora toqa quduq (Tomdi t.), Qorasaqal (Konimex t.), Qoraboʻriyonaq (Konimex t.), Qoratov (Konimex t.), Qoratepa (Konimex t.) va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Qoratov – Konimex tumanidagi togʻ nomi. Bu nom Qozogʻistonning Janubiy Qozogʻiston, Mangʻistau viloyatida ham bor. Qoratov toponimlarida “*qora*” soʻzi rangdan tashqari “*katta*, *zoʻr*” kabi maʼnolarni ham bildirishi azaldan maʼlum. Ogʻzaki adabiyotdagi *Qora auliye*, *Qoratau*, *Qoraxoʻja* kabi nomlarni unga bogʻlash mumkin. *Qoradengiz* va *Qarajan* kabi nomlar ham xosdir. Tadqiqot ishida keltirilgan *Qoratov* nomi bu hududda faqat togʻ nomi sifatida uchraydi. Agar shunday boʻlsa, bu “*katta*, *baland togʻ*” degan maʼnoni anglatadi.

Z.Pardayevning izohlashicha, qora sifat leksemasi nutqda faqat predmetning rangini koʻrsatish maqsadida qoʻllanganda emotsional-ekspressivlikdan xoli boʻladi, uning vazifasi rang toʻgʻrisida xabar, maʼlumot berish bilan cheklanadi. Qora leksemasi soʻzlovchi yoki yozuvchining oʻz nutqi qaratilgan shaxsga boʻlgan munosabati nuqtayi nazaridan matnga bogʻliq holda ijobiy yoki salbiy ekspressivlikni ifodalashi mumkin. Bu leksemaning orttirma darajadagi shakli faqat rangni ifodalash uchun emas, balki maʼnoni kuchaytirish uchun ham xizmat qiladi: Qop-qora sochidan ikkita gajak / Buralib-buralib yuziga tushmish (Choʻlpon).

Umuman, qosh, koʻz, soch kabi aʼzolarga nisbatan qora leksemasi epitet sifatida qoʻllanganda ijobiy munosabat semasi maʼlum darajada aks etadi. Quyidagi misolda esa boshqacha holat koʻzga tashlanadi: Xoʻp qora edi ichi (H.Olimjon).

Qora leksemasi tilimizda yana quyidagi okkazional semalarni ifodalashga xizmat qiladi:

- “*motam*” semasini: Hamma qora libos kiyingan (H.Olimjon);
- “*qaygʻu*” semasini: Roʻzgʻoring qora qilmay (E.Vohidov);

- “kun” semasini: O‘tdi dahshatli kun / Qora sahifa (E.Vohidov);

- “shom” so‘zi bilan birikib, “kunning ma‘lum shakli” semasini bildiradi: Qora shomda faqat horg‘in kuz / Astagina qaytadi boqqa (M.Ali). Bu misolda shom so‘zi “quyosh botib qorong‘ilik tusha boshlagan payt” ma‘nosini bildiradi¹⁸⁰. Qora leksemasi bu o‘rinda shom orqali ifodalangan “vaqt” belgisini yanada kuchaytirishga xizmat qilgan.

- “holat, daraja” semasini ifodalaydi: Butun borliq chog‘lik uchish oldida / Sovuq, ...qora qishga ko‘chish oldida... (Cho‘lpon).

- “yorug‘lik-qorong‘ulik darajasi” semasini ifodalaydi: Iltimos kutmagil, ey qora o‘rmon / Yutib yuboraqol meni hoziroq! (M.Ali). Bu o‘rinda muallif faqat o‘rmonning rangiga emas, balki daraxtlarning baland va quyuq o‘sganligi sababli yorug‘lik kam bo‘lishi tufayli doimo qorong‘u bo‘lib turishiga ham ishora qilmoqda.

- “bid‘atli, zararli, yomon” semalarini ifodalaydi: Ana shunda bu qora odat / Qiz baxtiga urgan edi (H.Olimjon);

- “noaniqlik, taxmin” semasini bildiradi: Huv...qor uzra yelib borar bir qora nuqta... (M.Ali);

- “ayb, aybdor, gunohkor” semalarini ifodalaydi: Quhog‘ini “o‘zligi”ga ochdi, deb / Oq ismimga qora zanjir ildingiz? (Cho‘lpon)¹⁸¹.

Qizil rang-tus ifodalovchi sifatlar ishtirokidagi toponimlar. Qizil so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”¹⁸²da quyidagicha ko‘rsatilgan:

Qon rangidagi qirmizi, alvon (qizil olma, qizil lavlagi).

Yuzning, badanning shu tusga moyil rangi, qizillik (oq badan, oq tanli);

Vino (so‘zlashuv tilida);

Oktyabr inqilobi, sho‘ro tuzumi;

¹⁸⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томлик, М.: “Рус тили”, 1981, II том. 424 б.

¹⁸¹ Пардаев З.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари: фил.фан.ном. дисс.автореф. – Самарқанд, 2004

¹⁸² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 5-жилд. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 591 б.

Shuningdek, qizil soʻzi toponimlar tarkibida ham tez-tez koʻzga tashlanadi. Qizilqum hududida qizil + detallashtiruvchi atama rang-tus sifatida keltiriladi. Misollar keltiramiz:

Qizileshik (Konimex t.), Qiziltom (Tomdi t.), Qizilcha (Nurota t.), Qizilqoq (Konimex t.), Qizilquduq (Konimex t.), Qiziluy (Tomdi t.), Qiziloʻy qudugʻi (Konimex t.), Qiziljalldi (Konimex t.), Qiziltov (Tomdi t.), Qizilbuloq (Tomdi t.), Qiziljar (Tomdi t.), Qizilungir (Tomdi t.) va boshqalar. Bu holda Qizilqum hududining tabiiy xususiyati boʻlgan tuproqning qizil rangi “qizil” komponentli toponimik birliklarning rang-barangligini ifodalaydi.

Shu bilan bir qatorda, mazkur hududda toponimlar tuzilishida boshqa rang-tus ifodalovchi sifatlar tez-tez uchrashini kuzatamiz. Masalan: qoʻngʻir. Bu rang-tus sifati orqali oʻsimliklar bila zich qoplangan qoramtir koʻrinishli qir-adirliklar nazarda tutilgan. Qizilqum hududida Qongʻirtepa – asl. “jigarrang tepalik” toponimi qayd etilgan. Toponimlar tarkibida ham tabiiy obyektning rangini belgilash uchun rangli sifatlar qoʻllaniladi. Misol uchun, kulrang, yaʼni “boʻz” – Boʻztov oronimi; koʻk “yashil” – Koʻktepa, Koʻkcha oronimi; sari(q) – Sarjal oronimi (jal komponentining asl maʼnosi “yol”, bu atama bilan tepalik tizmalarini belgilaydilar, bizning holatimizda oronim Sarjal – bu Navoiy-Zarafshon avtotrassasining yoni boʻylab choʻzilgan tepaliklar).

Hududda Koʻkayaz oronimi qayd etilgan. Bir qarashda bu yerda rang-tus ifodalovchi sifat koʻk “yashil” qoʻllaniladigandek tuyulishi mumkin. Lekin keksalarning bergan maʼlumotiga koʻra, bu aholi punktining nomi, bu yerda qattiq sovuq kuzatilganligi bilan bogʻliq. Koʻkayaz aholi punkti sobiq shoʻro davrida Avangard etib qayta nomlangan.

Toponimlar tarkibidagi turli soʻzlar doim ham oʻz asl maʼnosida qoʻllana bermaydi. Sifat, rang-tus ifodalovchi birliklar kamdan-kam holatlarda oʻz asl denotativ maʼnosida uchraydi. Navoiy viloyati Qizilqum hududidagi oq, qora, qizil, qongʻir, sariq, koʻk komponentli toponimlarning katta qismida rang-tus maʼnosi bilan aloqador boʻlmagan maʼnolar ifodalangan. Rang-tus maʼnosini ifodalovchi soʻzlar, ayniqsa,

etnonimlar asosida shakllangan toponimlarda, umuman, qo'llanilmagan. Etnonimlar tarkibida qadimda rang-tus ma'nosida ifodalangani bilan ular tayyor holda toponimga o'tganligi uchun morfemalarga ajratilmaydi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Bobda bayon qilingan fikrlarni e'tiborga olib, quyidagicha xulosalarni berish mumkin:

1. So'z yaratilishining morfologik usuli o'zbek va barcha turkiy tillarda leksik birliklarni yasashning eng samarali usuli deb hisoblanadi. Ushbu usul toponimlarni yaratishda ham samaradordir. O'rganilayotgan hududning morfologik toponim yaratilishining shakllanishi bo'yicha olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, bu jarayonda asl o'zbek tilidagi so'z yasovchi elementlar bilan bir qatorda o'zlashtirilgan tojikcha so'z yasovchi elementlar ham faol ishtirok etgan.

2. O'zbek tilida affiksatsiya so'z yasashning eng sarmahsul usulidir. Ammo toponim yaratilishida barcha so'z yasovchi affikslar ham ishtirok etmaydi. O'zbek tilida toponim yaratuvchi affikslarga oid: -chi, -li, -lik, -ma, -loq, -sh/-ish, -ik, -lar. Ular otlar, sifatlar, sonlar va fe'llar bilan geografik nomlar hosil qiladi.

3. Hududda toponimlarning aksariyat qismi sintaktik usul bilan yaratilgan. Bu tilda geografik obyektlar ko'p hollarda tavsifli belgilanishi bilan tushuntiriladi. Sintaktik usul bilan hosil bo'lgan toponimlar ma'lum bir joyga bog'liq holda tavsiflangan.

4. Hududda atributiv aloqalar asosida yaratilgan toponimlar bor. Atributiv aloqalar asosida yaratilgan konstruksiyalar aniqlovchi+aniqlanuvchi birikmali shakllanishlardir. Ma'lumki, qo'shma toponimlarning aksariyat qismi aniqlovchi turga kiradi. Qoida tariqasida, bunday shakllanishlarda hal qiluvchi omil birinchi komponent bo'lib, ikkinchisini aniq obyektlarning umumiy sonidan ajratib turadi.

5. Izafet aloqa asosida yaratilgan qo'shma toponimlar. Geografik nomlarni soddalashtirishning toponimik qonuni tufayli izafetik qurilish asosida shakllangan ko'plab toponimlar grammatik ma'nosini yo'qotdi. Masalan, O'rinboyariq, Mirzaravot,

Gadoyariq nomlari, dastlab, O‘rinboyning arig‘i O‘rinboy qazdirgan ariq, Mirzaning ravoti, Gadoyning arig‘i shakl ko‘rinishiga ega bo‘lgan.

6. Qo‘shma toponimlarning bu turi tadqiq etiluvchi hududni mazkur turdagi geografik nomlarning aksariyat qismini tashkil qiladi. Bunday birikmalarda asta-sekin aniqlovchi va aniqlanuvchi ko‘rsatkichlar yo‘qolishi yuz beradi. Masalan, Qizlarsupa (qarang. Qizlarning supasi > Qizlar supasi > Qizlarsupa), Qirg‘izovul, Sultonhovuz, Qazovul, Uyasko‘l, Ayimariq, Boyxojaquduq kabilar shular sirasiga kiradi.

7. Konstruksiyalar – bu aniqlanayotgan narsaning ko‘rsatkichi saqlanib qolgan toponimlar. Ushbu turning nomlarida birinchi komponentning (aniqlovchini) grammatik ko‘rsatkichi tushirib qo‘yilgan, ya‘ni aniqlanuvchi o‘zining tarkibida grammatik ko‘rsatkichni saqlab qoladi.

8. Predikativ aloqalar asosida yaratilgan toponimlar. Predikativ aloqalar asosida yaratilgan toponimlar turkumi ega va kesim birligi bilan taqdim etilgan. Odatda, bu nomlar, ya‘ni ega+kesim birligi, ko‘rsatilgan joyda ro‘y bergan u yoki bu real voqea sababli paydo bo‘lgan.

9. Qizilqum hududida rang-tus ifodalovchi sifatlardan qizil + detallashtiruvchi rang atamasi sifatida keltiriladi.

III BOB. QIZILQUM HUDUDI TOPONIMIK TIZIMIDA TOPONIM SHAKLLANISHINING UMUMTURKIY MODELINI

3.1. §. Toponim yaratilish umumturkiy modelining o'ziga xos xususiyatlari

Geografik mintaqaning har bir toponimik tizimi o'ziga xos turga, shakllanish va funkcionallashtirishning o'ziga xos xususiyatlariga, topoyaratilishning umumturkiy modeli ham takrorlanmas – topoyaratilishning o'z etnik modeliga ega. O'zbek tilining etnik modeliga geografik obyektlarni belgilashda til unsurlarining ajoyib bog'liqligi xos.

E.Begmatovning ta'rificha, “turkiy so'zlarning aksariyati qarindosh tillar uchun mushtarak ekanligi ma'lum. Shuning uchun bo'lsa kerak, asl turkiy so'zlar umumturkiy leksika, umumturkiy qatlam birikmalari nomi ostida tahlil qilinadi”¹⁸³.

U.Turdimurotovning fikricha, “tilshunoslikda toponimikaning tadqiqot obyekti sifatida toponimlarning o'rganilishi til tizimi taraqqiyoti va takomilini, ularga aloqador hudud dialekti, tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, tabiati va boshqa imkoniyatlarini tadqiq qilish nuqtayi nazardan ham ilmiy-nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ular xalqning o'tmishi, ma'naviy qadriyatlarini o'zida saqlagan lingvomadaniy birliklar hisoblanadi”¹⁸⁴.

Shuningdek, turkiy tilli bo'lgan yoki bo'lmagan xalqlarning toponimlarini tadqiq etish, tahlilga tortish topoyaratilish etnik modelining farqli tomonlarini ochishda qiyosiy tahlil muhim ahamiyatga ega. Onomastik birliklar qo'llanish xususiyatiga ko'ra hududlararo farqli tomonlarga ega. Ana shunday farqlar qiyosiy-chog'ishtirma metod yordamida aniqlanadi. Qiyosiy tahlil uchun har qanday onomastik birliklar (toponimlar, gidronimlar, urbonimlar, oykonimlar, odonimlar, antroponimlar va boshqalar) tanlab olinadi hamda ular orasidagi umumiy va farqli holatlar belgilanadi. Masalan, o'zbek antroponimlari orasida umumturkiy qatlam bilan birga forscha-tojikcha, arabcha,

¹⁸³ Begmatov Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент: Фан, 1985. – Б.53.

¹⁸⁴ Turdimurotov U.S. Xatirchi tumani toponimlarining leksik-grammatik va etimologik tadqiqi. Fil.fan.fal.dok.(PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2023

so‘g‘dcha, mo‘g‘ulcha, xitoycha so‘zlar ham mavjud, ularni aniqlash uchun tadqiqotchi turli tillarga oid lug‘atlarga, tarixiy-etimologik manbalarga murojaat qiladi. Xuddi shunday holatni toponim, gidronim kabi boshqa onomastik birliklarda ham uchratish mumkin. Prof.T.Nafasovning fikricha, Shahrissabz – forscha-tojikcha izofa. Ma‘nosi yashil shahar, bog‘-rog‘lari ko‘p shahar. Yoki fransuz tilidan rus tiliga, rus tilidan o‘zbek tiliga o‘tgan vokzal so‘zi XX asrning 80-yillari oxirida shohbekat deb tarjima qilinadigan bo‘ldi. Vokzal deganda, asosan, temir yo‘l vokzali tushuniladi¹⁸⁵.

Xalq geografik obyektlarning eng nozik va aniq belgilarini ilg‘ab olib undan majoziy nom berish uchun foydalaniladi. Majoziy nomlar toponimiyada ko‘p uchraydi va bu semantik so‘z yasash usullaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Majoziy nomlarni ilmiy toponimik adabiyotlarda metaforik (metafora, yunoncha – “siljish, o‘xshatish”) toponimlar deb atashadi. Metafora so‘zi o‘xshatishni nazarda tutadi va bir obyektни boshqa bir geografik obyekt bilan haqiqatan yoki zohiran hamda shakli va tashqi ko‘rinishining o‘xshashligiga qarab geografik obyektlarga nom berishda qo‘llaniladigan usullardan biridir. Nomlovchi obyektning atalishiga asosiy turtki bo‘lgan belgini (shakli, tashqi ko‘rinishi) tasavvurda boshqa narsalarga taqqoslab, o‘xshash bo‘lgan jihatlarini inobatga olib, unga o‘xshatma nom tanlanadi. O‘zbek toponimlarining shakllanish jarayonida xalq og‘zaki nutqida ishlatiladigan ayrim geografik terminlar inson tanasi a‘zolari bilan ataladi. Masalan: kindik (Kindiktepa, Sirdaryo viloyati), emshek “ko‘krak” (Janubiy Qozog‘iston viloyati Qizemshek), burun (Navoiy viloyati Muruntov).

Hayvonlarning tanasi ham metaforik nomlar yasashda keng qo‘llaniladi. Masalan, o‘tmishda ko‘plab majoziy nomlarga sabab bo‘lgan hayvonlardan biri tuyadir. Fantexnika o‘ta taraqqiy etgan hozirgi zamonda tuya o‘zining jismoniy kuchi, suvsizlikka chidamliligi va tashqi qiyofasi bilan qanchalik e‘tiborga molik bo‘lmasin, bu jonivor nomi zamonaviv toponimlar yasashda ishtirok eta olmasligi aniq, lekin o‘tmishda dono xalqimiz, nafaqat tashqi ko‘rinishi g‘alati, balki ichki tuzilishi ham jumboqli bo‘lgan

185 Йўлдошев Б. “Ўзбек ономастикаси масалалари”//услугий қўлланма. – Самарқанд. СамДУ нашри, 2011. – Б.31.

tuyadan o‘xshatma nomlar yasagan. Masalan, Tuyabo‘g‘iz, Tuyaquduq, Tuyachi, Tuyabuloq, Tuyabo‘yin va hokazo.

Metaforik nomlarning paydo bo‘lishi birinchidan, kishilarning tabiiy obyektlarga munosabatining umumbashariy xarakterga ega ekanligi bilan belgilansa, ikkinchidan, inson tana a‘zolari nomi tilda ko‘p qo‘llanadigan so‘zlar hisoblanadi. Tabiat hodisalari va obyektlari insoniyat hayotida katta rol o‘ynaganligi bois, ular qiyoslangan va o‘xshatilgan. Metaforik nomlar tarjima qilinmaydi, talaffuzi qanday bo‘lsa, shunday yoziladi. Ular yordamida so‘zlarning termin va toponimlarga aylanishi imkoniyatini yaqqol ko‘rish mumkin. Masalan, *bosh* –Janubiy Qozog‘iston viloyati, Tulkubas tumani nomi, tumshuq –Qo‘shumsiq Navoiy viloyati.

Shuningdek, geografik nomlar yaratilishida, ko‘pincha, rang-tus ifodalovchi sifatlarning ishlatilishi kuzatiladi. Masalan: oq (Janubiy Qozog‘iston viloyati –Aqsu, Toshkent viloyati Bekobod tumani – Oqsuv), (Navoiy viloyati Tomdi tumani – Oqtov, Oqtepa – Tomdi, Konimex tumanlari); qora (Janubiy Qozog‘iston viloyati – Qoratorov, Navoiy viloyati, Konimex tumani – Qoratorov, Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumani – Qoratepa, – Navoiy viloyati Konimex tumani – Qoratepa), (Janubiy Qozog‘iston viloyati – Qarasu, Toshkent viloyati – Qorasuv); qizil (Janubiy Qozog‘iston viloyati – Qizilsu, – Sirdaryo viloyati Qizilsuv, Navoiy viloyati, Tomdi tumani – Qizilbuloq, Qizilquduq); ko‘k “yashil” (Janubiy Qozog‘iston viloyati–Ko‘ksayek, Sirdaryo viloyati – Ko‘kbuloq, Keles tumani – Ko‘kterak, Konimex tumani – Ko‘kcha, Navoiy viloyati Tomdi tumani – Ko‘kayaz); sariq (Janubiy Qozog‘iston viloyati Sariag‘ach, Navoiy viloyati, Konimex tumani – Saribel, Sarjal) va h.k.

Xususan, Konimex tumanida joylashgan *Ko‘kcha* toponimi bo‘yicha bir qator fikrlar berilgan. Masalan, Ko‘kcha – tumandagi aholi punkti nomi. *Ko‘kcha* toponimini B.O‘rinboyev quyidagicha izohlaydi: “*Ko‘kcha – ekinzor, daraxtzor ma‘nosida emas, balki tepalik, balandlik ma‘nosidadir*”.¹⁸⁶ T.Nafasov esa *Ko‘kcha* so‘zini qadimiy shakli

¹⁸⁶ Ўринбоев Б. Асрлардек барҳаёт номлар (Самарқанд вилояти топонимларининг изоҳи). –Самарқанд: Зарафшон, 2003. – Б.102.

ko'kchi bo'lib, "qo'lda yoki charxda yigirilgan iplarni, kalavalarni turli rangdagi bo'yoq bilan bo'yab, ranglab beruvchi hunarmand" ma'nosida izohlaydi.¹⁸⁷

Bizningcha ham, *Ko'kcha* so'zi *ko'kchi* so'ziga aloqador bo'lib, aholisi bo'yoqchilik, bo'yoq tayyorlash bilan shug'ullangan hunarmandlar yashaydigan joyga nisbatan nomlangan. *Ko'kchi* keyinchalik talaffuz natijasida *Ko'kcha* tarzida aytila boshlagan. Ya'ni *i* tovushi *a* tovushiga o'zgargan. Uning etimoni **ko'kchi>Ko'kchi>Ko'kcha**.

Ko'pincha, o'zga tillar qurshovida umumturkiy toponimik tizim qadim zamonlarda o'z irredentizm (italyancha irredentismo, irredento –ozod qilinmagan, kimgadir qaram holatdagi so'zidan)¹⁸⁸ hududida shakllangan va toponimik tizim yaratuvchilari va tashuvchilarining etnik xususiyatlarini saqlab qolgan. Antik davrdan beri umumturkiy toponimik tizimning mavjudligi lingvistik faktlarni konsepsiyalashtiruvchi mahalliy qozoq va o'zbek toponimikasi, gidronimikasi va boshqalarda shunday formantlarning mavjudligini tasdiqlaydi. Misol uchun, tog', tepa, qir-adir, do'ng, cho'qqi, dovon kabi so'zlarda balandlik konsepti ifodalangan: tog' (Bo'stonliq tumani – Qarjantov, Navoiy viloyati – Muruntov, Bo'kantov); tepa (Toshkent shahri – Oqtapa, Toshkent viloyati – To'ytepa, Sirdaryo viloyati – Baygetepa, Yolg'iztepa, Navoiy viloyati – Yolg'iztepa, Jusantepa, Ushtepa); qir, adir – "tepaliklar tuzilmasi" (Janubiy Qozog'iston viloyati Maqtaral tumani – Qoraqir, Sirdaryo viloyati Hovos tumani – Darbazaqir); do'ng – "baland joy" (Sirdaryo viloyati –Bo'zdo'ng tumani, Mehnatobod tumani – Do'ngariq); qiya "qiyama tog', kichik tepalik" (Janubiy Qozog'iston viloyati – Qoraqiya, Navoiy viloyati – Sariqiya); cho'qqi (Janubiy Qozog'iston viloyati – Altincho'qqi, Maqtaral tumani – Mirzacho'qqi, Navoiy viloyati – Uycho'qqi, Avliyocho'qqi); asu "dovon" (Janubiy Qozog'iston viloyati – Qazig'urt asu – Ariqbayning dovoni, Navoiy viloyati – Itelgiasu).

Suv bilan bog'liq gidronimik toponimlarda ham bog'liqlik ifodasi ham keng namoyon bo'ladi: daryo (Sirdaryo, Amudaryo, Qizildaryo, O'zgandaryo); suv "daryo"

¹⁸⁷Нафасов Т. Қашқадарё кишлоқномаси (Қашқадарё вилояти кишлоқлари номининг тадқиқи). – Тошкент: Мухаррир, 2009. –Б. 150.

¹⁸⁸Саяси түсіндірме сөздік. – Алматы: "Жүйелі зерттеулер институты", 2007. –Б. 616.

(Oqsuv, Qorasuv, Bo‘zsuv, Qizilsuv); buloq (Janubiy Qozog‘iston viloyati Qorabuloq, Toshkent viloyati – Qo‘tirbuloq, Jizzax viloyati – Qo‘tirbuloq, Marjonbuloq); o‘zek “soy” (Sirdaryo viloyati – Sho‘r o‘zek, Moyliko‘l); soy “tog‘li soy” (Bo‘stonliq tum – Qizilsoy, Toshkent viloyati – Chuqursoy, Qirg‘iston Respublikasi – Moylisoy, O‘zbekiston Respublikasi – Arnasoy).

Oykonimik tushuncha hisoblangan joy, aholi punkti: shahar, kent (Janubiy Qozog‘iston viloyati – Chimkent, Qumkent, O‘zbekiston Respublikasi Toshkent – O‘zkent); shahar//qal’a (Turkmaniston Respublikasi – Oqqal’a, Toshqal’a, – Qoraqalpog‘iston – Tuproqqal’a).

Umumturkiy xalq geografik atamalaridan foydalangan holda topoyaratish modelining unumdorligi Qizilqum toponimik tizimining o‘ziga xos xususiyatlaridan biriga aylandi. Xalq geografik atamalari Qizilqum hududining umumturkiy toponimlari tarkibida keng tarqalgan. Ushbu muammoning tadqiq etilishi o‘zaro bog‘liq ikkita masalani – ayrim umumturkiy etnonimlarni, toponimlarni hamda xalq geografik atamalarining ilmiy etimologiyasini aniqlash zarurligini keltirib chiqardi. Qizilqum hududidagi umumturkiy toponimlarning shakllanish xususiyatlarini o‘rganish jarayonida tipologik universallikning muntazamligiga asoslangan etnonimiyada ilmiy asoslangan etimologiya taklif etilgan va kelib chiqish tarixi yo‘qolgan va noaniq semantikaga ega bo‘lgan umumturkiy etnonimlar va toponimlarning dastlabki semantikasi ochib beriladi. Masalan, turkiy tillarda keng tarqalgan – *daryo* atamasi alohida o‘rin egallaydi, lekin u fors tilidan o‘zlashtirilganligini namoyon qiladi: Sirdaryo, Qizildaryo, Amudaryo, Oqdaryo, O‘zgandaryo.

O‘zbekiston Respublikasi Navoiy viloyati Nurota tumanida bahorda toshadigan, lekin yozda quriydigan soydan kechuv joy nomi uchraydi. Y.Koychubayev hozirgi qozoq tilida “jarlik, jar, dara”, qisman “tog‘ darasi (jar. sheva)” ma’nosida qo‘llaniladi”¹⁸⁹. Bu tomondan hududning umumturkiy xalq geografik atamalari orasida suvsiz cho‘lda birlik ma’nosida kechuv// keshu joyni bildiruvchi atama uchrashi alohida

¹⁸⁹ Койчубаев Е. Краткий толковый словарь топонимов Казахстана / отв. ред. А.Т. Кайдаров. Алма-Ата : изд-во Наука, 1974. – С. 24.

e'tiborni tortadi. Jumladan, *Yassikechuv*. *kechuv* atamasi turkiy tillarda keng tarqalgan, uning so'zma-so'z ma'nosi "kechuv" dir.

E.M.Murzayev "Xalq geografik atamalar lug'ati"da turkiy tillarda mazkur atamaning fonetik variantlarini tavsiflaydi: *kechuv* – "kechuv" o'tish, "dovon", "*kechik*" (ozarb.), olt. *kechu*– "kechik", boshq. kiseu, qoz. keshu, qirg'. kechuu, totor. kichu, tuv. kejjig – "kechuv", turkm. gechid – "o'tish yo'li", "kechib o'tish yo'li", "kechik", xakas. kichig – "kechik". E.M.Murzayev boshqa fonetik variantlarni ham keltiradi: xokas. kichig – "kechuv", "o'tish joyi", turk. geşit – "so'qmoqcha", "dara", "tog'li o'tish yo'li", "qushlar uchib o'tishi". Ko'plab shevalarda turkchadan gechit – "kechuv", "og'ir joylardan o'tish yo'li"¹⁹⁰. Ammo lug'at muallifi keltirgan keshu atamasining ma'nosi turkiy tillarda "dovon", "kesib o'tish joyi", "ko'prik", "so'qmoqcha", "dara", "tog'li o'tish joyi", "qushlar uchib o'tishi", "og'ir o'tish joyidan o'tish" noaniq bilan ajralib turadi. Aftidan, bu axborot beruvchilardan olingan xato axborotlar bilan bog'liqdir.

Aytib o'tilgan fikrga qarshi O.T.Molchanova o'zining "Tog'li Oltoyning toponimik lug'ati" ishida Oltoydagi At-Kechu daryosini va Tuvadagi Ak-kejjig va Dashttig-Kej aholi punktlarini qayd etadi "*kechu* – "kechish, kechuv"; *kechug* – "kechuv, kechish" atamasining aniq ma'nosini beradi¹⁹¹

Yassikechuv dromonimi (kechuvning nomi) nafaqat, umumturkiy xalq geografik *kechuv//keshu* atamasi sifatida, balki qadimgi tarixiy shahar – Yassi nomi bilan ham bog'langanligi qiziqish uyg'otadi. Mazkur fakt ko'rib chiqilayotgan hududdan o'tadigan Buyuk ipak yo'lining qadimiy savdo tarixidan Yassi (hozirgi Turkiston sh.– Turkiston viloyatining ma'muriy markazi) yuk tushirish va ortish punkti bo'lganligi ma'lum.

Qizilqum hududida Yassikechuv dromonimi paydo bo'lishi sababli tadqiqotning umumiy mavzusidan yiroqlashmay, bobning mazkur faslida *Yassi* polisonimining etimologiyasini ko'rib chiqamiz.

¹⁹⁰ Мурзаев Э.М. Словарь народных географических терминов / ред. Н.А. Рожкова.М. : Мысль, 1984, 272,275 с.653 с.

¹⁹¹ Молчанова О. Т. Топонимический словарь Горного Алтая / под ред. А.Т. Тыбыковой. Горно-Алтайск : Горно-Алтайское отделение Алтайского книжного издательства,1979, 219 с.

Yassi shahri nomining kelib chiqish tarixi va polisonimning ilmiy etimologiyasi hozirgi vaqtgacha ijobiy yechimini topmagan. Islom ta'limotining buyuk arbobi Xo'ja Ahmad Yassaviy (asl ismi Ahmat Muhammad ibn Ilyos)ning ismi qadimiy Yassi shahrining nomi bilan bog'liq. Ma'lumki, mashhur insonlarning hayot tarzini o'rganish jarayonida ularning hayot faoliyati bilan bog'liq bo'lgan onomastik materialni o'rganishni ham talab qiladi. Ularning qatoriga Xo'ja Ahmad Yassaviy ham kiradi. U Isfidjabda, hozirgi Sayramda, tug'ilgan. Xo'ja Ahmadning faol ijtimoiy va ijodiy faoliyati Yassi shahrida o'tgan. Shuning uchun u Xo'ja Ahmad Yassaviy bo'lib tanilgan. Turkiy onomastikasida shunday an'ana bor ediki, unda mashhur insonlarning ismiga ular tug'ilgan va uzoq vaqt yashagan joy nomlari qo'yilgan. Masalan: Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib Bolosog'uniy, Abu Nasr al-Forobiy, Tarxan va boshqalar. Ahmad bin Muhammad bin Ilyosning asl ismi o'zgartirilib, Xo'ja Ahmad Yassaviy shaklida butun dunyoga tanilgani, tabiiy. Shu sababli Xo'ja Ahmad Yassaviy o'zining ismini qadimiy Yassi shahrining nomida ham qayd etdi.

Shu munosabat bilan Samarqanddan Yassigacha bo'lgan Buyuk ipak yo'li qismida paydo bo'lgan Yassikechuv dromonim tarkibida Yassi nomining asl semantikasi va etimologiyasini ko'rib chiqamiz. Umuman olganda, antik davrda Samarqand – Yassi deb nomlangan, bizning fikrimizcha, uning tarkibida ko'rinadigan az // as etnik atamasiga yo'naltirilgan. Ushbu taxmin etnonimiyadagi tipologik universallikning muntazamligidan kelib chiqadi, uni dastlab N.Y.Marr belgiladi. Uning g'oyasiga ko'ra, qabila nomlari ham oddiy, ham murakkab, “odam” tushunchasini belgilovchi to'g'ri so'zlar bo'lib, dastlab “ushbu odam” (ushbu qabila odami) tomonidan eshitilgan. Olimning xulosasida uning “odam” ma'nosida keng tarqalgan etnik formantini kuzatishiga asoslangan¹⁹². Etnonimiyada tipologik universallikning rivojlanishi mashhur Sovet etnograflari D.Y.Yeremeyev¹⁹³, Sh.Sh.Stratanovich¹⁹⁴,

¹⁹² Мapp, Н.Я. Избранные работы. Этно- и глоттогония Восточной Европы / ответ.ред. Ф.В. Кипарисов. М.; Л.: Государственное социально-экономическое издательство (ГСЭИ), 1935, 188 с.

¹⁹³ Еремеев Д.Е. К семантике тюркской этнонимии // Этнонимы : сб. статей / отв. ред.1970, 133 с.

¹⁹⁴ Г. Г. Стратанович Г.Г. Проблема «скользящих этнонимов» // Этнонимы : сб. статей / отв. ред. В.А. Никонов. М. : Наука (Главная редакция восточной литературы), 1970, 54 с.

Y.V.Chesnov¹⁹⁵ qayd etgan. Ular turli tizimli tillarda etnik ismlar semantikasining universalligi hodisasini qayd etdilar. Keyinchalik M.V.Kryukov “etnik o‘zini anglash” bilan bog‘liq holda etnik o‘z nomlarining tarixiy tipologiyasi muammosini hal qilishni taklif qildi va muhim etnik materiallarni o‘rganish jarayonida u ushbu rivojlanishni qonun sifatida ta’riflashga erishdi. M.V.Kryukov xalqlarning o‘zini o‘zi belgilashidagi tipologik universallik haqida gapirganda, muhim xulosaga keladi: “shunga qaramasdan, u bunday turdagi etnik nomlar o‘zining kelib chiqishidan, umuman, turli bo‘lgan ko‘plab xalqlar uchun xos ekanligi so‘zsiz universal deb tan olinishi kerak. O‘zining leksik shakli bo‘yicha to‘g‘ri kelmay, bunday o‘z nomlari o‘zlarining asosida bitta sinfga semantikaga oid bo‘lgan so‘zlarga ega – “odamlar” yoki “haqiqiy odamlar”¹⁹⁶

Sanab o‘tilgan misollar o‘zga tillar qurshovidagi qozoq va o‘zbek topoyaratilishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi, ammo bu xususiyatlarni umumturkiy toponimik tizimi bilan quyidagicha qayd etish zarur.

O‘zbek va qozoq tillarining umumturkiy toponimik tizimining topoyaratuvchi etnik modeliga xos:

- 1) geografik obyektlarni ifodalash jarayonida til usullarining rang-barangligi;
- 2) ovul, qishloqlarni urug‘, qabila etnik nomi bilan atash (bu yerda qat’iyan ma’lum hududda yashaydigan, o‘tloqlarni yil fasliga va mavsumli holatiga qarab);
- 3) o‘zbek va qozoq tilining toponimik tizimlarida juda ko‘p etnotoponimlarning mavjudligi;
- 4) geografik obyektlarning nomlanishida rang ifodalovchi sifatlardan faol foydalanish;
- 5) geografik obyektlarning nomlanishida pozitivlikni rivojlantirishning ahamiyati;
- 6) geografik obyektlarni tekshirish paytida negativlikning namoyon bo‘lishi;
- 7) geografik obyektlarning belgilanishida kalkalash hodisasi mavjudligi;
- 8) geografik obyektlarni belgilashda til metaforaligi;

¹⁹⁵ Chesnov Я.В. О социальной мотивированности древних этнонимов // Этнонимы: сб. статей / отв. ред. В.А. Никонов. М. : Наука (Главная редакция восточной литературы), 1970, 48 с.

¹⁹⁶ Крюков М.В. “Люди”, “настоящие люди” (к проблеме исторической типологии этнических самоназваний) // Этническая ономастика / отв. ред. Р.Ш. Джарылгасинова

9) metafora sifatida anatomik atamalardan foydalanish;

10) aholi punktlarining nomlari sifatida antroponimlarning kech paydo bo'lishi jarayonida o'zga tilli va xalqaro ismlarning majburiy o'rnashishi asosida paydo bo'lishi;

11) O'rta Osiyoning mustamlaka qilinishi davrida mahalliy aholi ongiga chor hokimiyatining buyukligini kiritish, geografik va boshqa obyektlarni chor hokimiyatiga xizmat qilgan kishilarning oila a'zolari va ularning xizmatkorlari nomlariga atash orqali kuzatiladi, shuning uchun mustamlakachilarning shaxsini aks ettiruvchi antropotonimlar paydo bo'ladi;

12) chor hokimiyati o'rnida sho'ro tuzumining o'rnatilishi davrida toponimiyani mafkuralashtirish yanada katta miqyosni qamrab oladi, antropotonimlar (kommunistik harakat arboblarning nomlari) ommaviy ravishda paydo bo'lib, chor tuzumi faoliyatini chegaralaydi.

3.2.8. Qizilqum hududi toponimlari yaralishi jarayonida xalqona geografik atamalari qo'llanilishining o'ziga xos xususiyati

Tadqiqotda toponimlarning leksik va semantik guruhlarini, yuqori shakllanishning tarkibiy va grammatik xususiyatlari bilan bir qatorda, Qizilqum mintaqasi toponimlarining tuzilishidagi umumturkiy xalq geografik atamalari o'rganiladi. Ushbu cho'l mintaqasining keskin kontinental iqlimiga qaramay, bu hududda qadim zamonlardan beri turkiy chorvadorlar yashab kelgan. Arxeologik asarlar bilan bir qatorda, boy toponimik tizim ham bunga dalil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ulkan hududda umumturkiy xalq geografik atamalari ishtirokida shakllangan ko'plab toponimlar mavjud. Mintaqa toponimik tizimining boyligi va xilma-xilligi turkiy xalqlarning ijtimoiy va iqtisodiy turmush sharoiti bilan bevosita bog'liq. Chorvachilik turmush tarzi o'z yashash muhitining fizik-geografik tuzilishi, tabiiy-iqlim sharoiti va hayvonlarni boqishning butun hududi landshaft xususiyatlarini batafsil bilishni talab qildi, ya'ni cho'llar, tog'lar, daryolar, ko'llar, buloqlar va o'tish joylarini. Bular, o'z navbatida, nomni belgilashni talab qilgan. Shunday qilib, iqtisodiy faoliyat ko'chmanchi

qabilaning o'z hududini mayda obyektlargacha puxta bilishi va rivojlangan toponimik tizimni yaratishiga yordam beradi. Shu bilan birga, odamlar tabiatning ayrim obyektlarini rang-barang tasvirlash uchun boy lingvistik shakllardan mohirona foydalanadilar.

Shunday qilib, xo'jalik faoliyati ko'chmanchi qabila o'zining hududini kichik obyektlargacha mufassal bilishiga ko'maklashadi va rivojlangan toponimik tizimni yaratadi. Odamlar toza tabiatning ayrim obyektlarini chiroyli tasvirlash uchun boy lingvistik shakllardan mohirona foydalanadilar.

Tadqiq etilayotgan hududning toponimlari tarkibida xalq geografik atamalari mavjud: qo'm (qum), tog' (tau), buloq (bulaq), ko'l (kul), soy (say), ariq (ariq), quduq (qudiq), irmoq (suat), daryo (o'zen), kechuv (keshu) va boshqalar. O'rganilayotgan hududda Yassikechuv dromonimi muhim ahamiyatga ega. Yassikechuv dromonimi qadimgi karvon yo'lida belgilangan. Shu sababli o'rta asrning Yassi toponimi alohida o'ziga e'tibor qaratadi.

Hududning umumturkiy xalq geografik atamalarini o'rganish jarayonida mazkur hududda, joyning tekisligiga qaramasdan, tog' komponentli oronimlarning ko'pligi aniqlandi. Shu bilan birga, cho'lning tabiiy xosligiga qaramasdan, bu yerda gidronimlarning katta qismi topilgan. Hududda quyidagi tur bo'yicha paydo bo'lgan umumturkiy tuzilmali toponimlar ko'p uchraydi: son+atama. Toponimlar tarkibida ko'plikning shartli ma'nosini asoslaydigan xalq geografik atamalari bilan muqaddas raqamlardan foydalanilishi aniqlandi.

Muayyan hudud aholisining lingvistik ijodi bilan yaratilgan xalq geografik atamalari tabiiy landshaftning barcha xilma-xilligi va boyligini belgilaydi. Natijada, xalq geografik atamalari ma'lum bir xalqning lingvistik ijod davri sifatida o'z hayotini chiroyli tasvirlashga yordam beradi. Shu bilan xalq geografik atamalari turli toponimik tizimlarning topoyaratilish jarayoniga katta hissa qo'shadi, ya'ni ko'p holatlarda toponimik leksikaning ushbu turkumi toponimlarning tarkibiy qismi bo'lib qoladi. Dissertatsiyaning mazkur faslida Qizilqum hududi xalq geografik atamalarining ma'lum qatorlari o'rganilgan. Hudud toponimiyasining tadqiq etilishi boshqa hududlarda o'ziga

xos kam qo‘llaniladigan xalq geografik atamalarining ma’lum bir qatori aniqlandi. Yangi xalq geografik atamasi topildi va tavsiflandi.

Umumturkiy xalq geografik atamalari turli toponimik tizimlarning topoyaratish jarayonida muhim tarkibiy qismidir. A.V.Superanskaya, E.M.Murzayev, V.A.Kazakevich ushbu turk-mo‘g‘ul toponimiyasining xususiyatini qayd etganlar. Turkiy tillarda xalq geografik atamalarining boyligi asosiy xo‘jalik faoliyati, ya’ni chorvachilik bilan bog‘liq. Turon pastligining o‘rta qismida, Oltoy tog‘lari, Tyan-Shan, Alatau va Pomir-Oloy tog‘larining tog‘ etaklari va tog‘ yaylovlari qozoq xalqining yashash va tabiiy-iqlim sharoitlari, fizik-geografik relyefini batafsil bilishni va asl yashash joylarida barcha obyektlarning tilni belgilashini talab etgan. Bunga sabab ko‘chma chorvachilik, ya’ni qadimiy xo‘jalik tarzi saqlanganligi bo‘ldi. Mazkur holat turkiy xalqlarining tilida xalq geografik terminologiyasining doimiy boyitilishiga ko‘maklashdi. Tilda ko‘plab xalq geografik atamalarining paydo bo‘lishi stimullash omillari bo‘lib, bilimlar zaruriyati va yashash landshaftining xilma-xil atalishi edi, chunki buni ma’lum bir hududning aholi xo‘jalik sharoitlari talab etgan. Mazkur holatda XX asrning o‘rtalarigacha ko‘chma chorvachilikka rioya qilgan qozoq xalqi o‘tloq yerlarning fizik-geografik xususiyatlarini o‘rganishda alohida ehtiyoj sezgan.

Shu sababli A.V.Superanskayaning qayd etishicha: “Qabila nomlarining eng qadimiy turi – toponimikdir. Ko‘chmanchi turmush tarzi ostida har bir qabilaning yerlari aniq chegaralarga ega bo‘lmagan va bir-biridan, egallanmagan hudud bilan ajragan. Hayotning qulay sharoitlarida qabila doimiy o‘sha hudud bo‘ylab ko‘chib yuradi va uning harakatlari o‘simliklarning mavsumiy almashtirilishi bilan (chorva uchun yaylovlar, odamlarning oziqlanishi uchun iste’mol qilinadigan mevalar) va hayvonlarning mavsumiy joy almashuvi bilan (ov va baliq ovi obyektlari) belgilangan. Tirikchilik vositalarini olishning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘chmanchi qabila o‘z hududini kichik jarliklargacha batafsil bilishi va barcha tabiiy va jismoniy nomlar

ifodalangan rivojlangan toponimik tizimga ega bo'lishiga yordam beradi, ammo oykonimlar, deyarli, yo'q (aholi punktlari nomlari)"¹⁹⁷

Dastlabki davrda turk onomastikasida oykonimning etnonimga kontaktli uzatilishi kuzatilmagan. Ko'chmanchilarning hayotini qo'llab-quvvatlashning harakatchanligi etnik munosabatlarning o'z vaqtida joylashishiga qaraganda ko'proq ahamiyatga ega bo'lishini ta'minladi, toponimning etnonimga o'tishining birinchi davrida bu onomastikada ko'rsatilmagan¹⁹⁸. Majburiy joylashish tufayli iqtisodiy faoliyatni o'zgartirish jarayonida etnonimlar etnooykonimlar holatini aks ettiradi. Ko'rib turganingizdek, A.V.Superanskaya "qabila nomlarining eng qadimgi turi toponimikadir", – deb ta'kidlasa ham, ammo barcha tabiiy-fizik nomlarning orasida oykonimlar yo'qligini tan oladi.

Shunga o'xshash qonuniyatni boshqa hududlarning toponimiyasida E.M.Murzayev¹⁹⁹ va V.A.Kazakevich²⁰⁰ qayd etgan.

Qizilqum hududida toponimlar tarkibida umumturkiy xalq geografik atamalarining tez-tez qo'llanishi kuzatiladi, birinchi navbatda, qum atamasi. Bu atama Qizilqum geonim tarkibida uchraydi, asl ma'nosi "qizil qumlar". Ot ikki tarkibli: qizil (sifat) + qum (ot); xalq geografik atamasi. Fonetik variantlarda turkiy toponimlar tarkibida keng namoyon etilgan, qipchoq shevalarda qum, og'uz shevalarda – gum. Qizilqumdagi Mingbuloq chuqurligida Moyinqum va Yomonqum toponimlari ham uchraydi.

Qiyoslash uchun shuni aytish joizki, Qozog'iston janubidagi Chuy va Talas daryolari quyi oqimida qumli cho'l Moyinqum toponimi ham mavjud. Mazkur toponim "bo'yin" anatomik atama + "qum" xalq geografik atamasidan yaratilgan. Xalq geografik qum atamasining ishtiroki bilan yaratilgan tabiiy obyektlarning nomlari: Qizilqum, Qoraqum, Sariqqum, Oqqum.

¹⁹⁷ Суперанская А.В. Групповые обозначения людей в лексической системе языка // Имя нарицательное и собственное: сб. статей / отв. ред. А.В. Суперанская. М. : Наука, 1978, 74 с.

¹⁹⁸ Мингбаев Н.Ж. Этнос и этноним. Saarbrücken : Lap Lambert Academic Publishing, 2016.

¹⁹⁹ Мурзаев Э.М. Монгольская Народная Республика: Физико-географическое описание / отв. ред. А.А. Григорьев. 2-е изд., доп. М. : Географгиз, 1952, 12с.

²⁰⁰ Казакевич В.А. Современная монгольская топонимика. Л. : Изд-во Акад. наук, 1934. 30 с.

Hudud toponimlarining funksiyalanish xususiyatlarini o'rganish toponimlar tarkibidagi xalq geografik atamalari hududning fizik-geografik xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi. Agar "Geografik ensiklopedik lug'at"²⁰¹ hududning tekisligini bildirsa, mazkur cho'lda esa biz tog' xalq geografik atamasining tez-tez ishlatilishini kuzatamiz. Demak, Qizilqum hududida tog' atamasi tuzilishida bo'lgan oronimlar ko'p uchraydi: Bo'kantov, Quljiqtov, Auminzadatov, Murintov, Tomditov, Oqtov, Qorotov, Yetimtov, Sulton Uvays tog'i, Shoqitov, Dauqiztov, Keregetov. Bunday tartibdagi hodisa, bizning fikrimizcha, toponimiyada negativlikning qonuniyligi sifatida harakat qilishi bilan bog'liqdir.

Toponimiyada negativlikning qonuniyligi tufayli, bu hududda tepa atamali oronimlar ham uchraydi: Jusantepa, Qoratepa, Qong'irtepa, Ko'ktepa, Jolaytepa; jar atamasi bilan Oqjar; o'y "chuqurlik" atamasi bilan Qizilo'y; yol (jal) atamasi bilan Sarjal; bel atamasi bilan Saribel.

O'zlashtirilgan, lekin turkiy tillarida keng qo'llaniladigan daryo atamasi alohida o'rin egallaydi, u fors tilidan o'zlashtirilgan va turkiy tillarda keng ko'lamda ishlatilgan: Sirdaryo, Qizildaryo, Amudaryo, Oqdaryo, O'zgandaryo.

Bu yerda Qizilqum hududida quduq atamasining juda ham keng qo'llanilishiga alohida e'tiborni qaratish lozim. Xalq geografik atamasi butun Markaziy Osiyoda gidronimlar tarkibida keng tarqalgan. Ushbu gidronimik atama yordamida ulkan Yevroosiyo makonining muhim miqdordagi gidronimlari hosil bo'ladi. Uning tarqalish maydonini aniqlab, E.Murzayev shunday yozadi: "... atama Ukraina janubidan Sharqiy Sibirgacha bo'lgan kengliklarda ishlatiladi. Povolje, Qrim, Shimoliy Kavkazning rus lahjalarida ma'lum"²⁰². Quduq atamasining kelib chiqishi turkiy so'z hisoblanadi²⁰³.

Ammo shunga qaramay, bizning kuzatishlarimizga ko'ra, quduq atamasi Qizilqum hududi gidronimlar tarkibida juda keng tarqalgan bo'lib, hozirda biz sun'iy kelib chiqadigan 316 ta suv havzasini sanab chiqdik va ushbu obyektlarning 316 ta

²⁰¹ Географический энциклопедический словарь: географические названия / Гл. ред. А. Ф. Трёшников. 2-е изд., доп. М.: 1989.

²⁰² Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.: Наука, 1965. – С.39; Мурзаев Э.М. География в названиях.- М., 1979.-С.120.

²⁰³ Древнетюркский словарь / ред. В.М. Наделяев, Д.М. Насилов, Э.Р. Тенишев, А.М. Щербак. Л. : Наука, 1969,37 с.

lingvistik belgisini aniqladik. Ushbu gidronimlar orasida antroponimik kelib chiqadigan gidronimlar (antropogidronimlar) juda ko‘p uchraydi.

Qizilqum hududidagi gidronimlarning katta qismi antroponimik kelib chiqishiga ega. Bu tabiiy, chunki suvsiz bo‘sh yotgan yerlarning o‘zlashtirilishi inson faoliyati bilan bevosita bog‘liq edi.

Masalan, quduq nomlari gidronimlarning asosiy qismi antropogidronimlardir. Suvsiz cho‘lda quduqlar chorvadorlar uchun muhim hayotiy obyektlar edi. Obihayot suv manbai paydo bo‘lishi bilan uning atrofida aholi yashaydigan punktlar yaratilib, quduq nomi atrofida aholi punkti nomini almashtirardi. Shu tariqa gidronim-oykonim transonimizatsiyasi natijasida antropogidronimlar paydo bo‘ladi. Ammo kelib chiqishi turli omillar bilan bog‘liq gidronimlar ham mavjud. Ot quduq (Ot fermasi bo‘lgan), Besh quduq, Toldi quduq (Qizilquduq bilan O‘rajanning o‘rtasidagi quduq), Toldi quduq (Navoiy-Uchquduq yo‘lida), Toldi quduq, (Konimex tum. Uchtepa ovul Ispan qudug‘ining shimolida), Yangiqazg‘on quduq, Qoshquduq, Jusantepa qudug‘i (Og‘itma ko‘lining janubida), Koriz (odamlar o‘zlari qo‘lda qazigan yerosti suv yo‘li), O‘kiz quduq (O‘kiz tog‘ining nomiga qo‘yilgan), Qulanqoq (qulon suv ichadigan yer), Uzunqoq, Oqsoy, Oq murt quduq (Alim urug‘ining Izbasar degan oq mo‘ylovli odami qazdirgan), Oq quduq, Oydinbuloq (musaffo, toza buloq), Ayaqqquduq, Sigir quduq, Qulquduq, Qulquduq bulog‘i va boshqalar.

Umumturkiy xalq geografik atamaları ishtirokida yaralgan hudud toponimlarining ma‘lum bir guruhini dromonimlar tashkil qiladi, ya‘ni aloqa yo‘llari. Mazkur hududda ushbu onimlar guruhining mavjudligi, hududning uzoqligiga qaramasdan, bu yerda tarixning turli davrlarida hayot qizg‘in davom etganidan dalolat beradi. Buni dromonimlar tasdiqlaydi.

Dromonim hisoblangan “yo‘l” geografik atamasi xalq tomonidan yaratilgan. Bunda “Buyuk ipak yo‘li” ni tilga olish lozim. “Buyuk ipak yo‘li” yo‘nalishi: Samarqand – Nurota – Chordara – Ars daryosi – Forob (O‘tror) – Yassi (Turkiston). Buyuk ipak yo‘lidan tashqari yana ikkita yirik savdo yo‘llari hamda boshqa karvon yo‘llari bo‘lgan. Jumladan, Qari yo‘l, Sauranbay yo‘li, Arava qolgan yo‘l.

Bundan tashqari hududda boshqa dromonimlar ham kuzatiladi: Ko‘mir to‘kken – asl. “ko‘mir to‘kilgan”; Jau joli – asl. “dushman yo‘li”; Maya joli – asl. “moyya, tuya (urg‘ochi) yo‘li”; Qashqin joli – asl. “qochoqlar yo‘li”. Mazkur hududlarda uchraydigan, suv to‘siqlarining kesilgan joylarini belgilovchi obyektlar nomlari ham e‘tiborga loyiqdir. Bu kechuvlar, ko‘priklar, daryo joylarini belgilovchi atamalar ishtirokida paydo bo‘lgan dromonimlar. Masalan: kechuv – *Yassikeshuv* (Yassykechu), *qayiq* – qayiq – *Ayimqizning qayig‘i* (Ayimqiz ismli qizning qayig‘i, ko‘prik mahalliy aholining ma‘lumotlariga ko‘ra, bir vaqtlar ayol ariq ustidan ko‘prik quradi va u *Qatinko‘pir* – “ayol ko‘prigi” nomini oladi. Inqilobdan oldin Chimkentdan Turkistonga o‘tgan avtomobil yo‘lida Badam daryodan qizil bo‘yoq bilan bo‘yalgan temir ko‘prik qurilgan, shuning uchun xalq orasida u *Qizil ko‘pir* – “qizil ko‘prik” deb ataladi.

Atamalarning ushbu guruhiga suv ichish joyini bildiruvchi xalq geografik atamasi, ya‘ni suv obyektlari bilan bog‘liq atama: suat – asl. “sug‘orish joyi”. Bu *Tassuat*, *Kengsuat*, *Qizilsuat* va hokazo toponimlar.

O‘rta Osiyoning umumturkiy toponimiyasida biz anatomik atamalardan foydalanishni kuzatamiz, ammo bu holatlar lingvistik jihatdan turli xil toponimik tizimlarga ajratilgan va tarqalgan. Misol uchun, O‘rkachtom – Qirg‘izistondagi aholi punkti va dovon nomi, Tulkibosh – Janubiy Qozog‘istondagi tuman, Bo‘rijar, Jilanjar, Tuyamoyin – Qoraqalpog‘istonda, Tuyabo‘g‘iz – Toshkent viloyatida.

Shunday qilib, Qizilqum hududining umumturkiy toponimlar tarkibida geografik nomlar tarkibidagi anatomik atamalar bilan toponimlarning o‘ziga xos zichligi kuzatiladi. Mazkur jarayon ushbu hududni qadim zamonlardan mahalliy aholi o‘zlashtirganligini aytishimiz mumkin.

Qizilqum hududida xalq geografik atamalarining qo‘llanilish xususiyatlarini o‘rganish – Tomdi, Tomdibuloq, chegaradosh Uchtom hududida, Termiz shahridan 10 km sharqqa Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi Ayritom jarligi, qadimgi yashash joylarining qoldiqlarini o‘rganish asosida toponimlar tarkibida kam uchraydigan *tom* atamasini ajratish imkonini berdi. Shunday qilib, “*tom*”ni tadqiq qilinayotgan hududning noyob xalq geografik atamaları turkumiga kiritish mumkin.

Qizilqum hududidagi xalq geografik atamalarini o'rganish jarayonidagi muhim natijalardan biri – *achchiq* birligi. *Achchiq*, *sho'rxok*, *sho'r* xalq geografik atamalari asosida ham joy, narsa-predmet xususiyatini bildiruvchi toponimlar paydo bo'lgan. Mazkur atamaning ishtirokida Beshachchiq, Yomonachchiq toponimlarining yirik qatori paydo bo'ladi.

Demak, Qizilqum hududining o'ttiz to'rtta gidronimlar tarkibidagi maxsus adabiyotlarda ko'rib chiqilmagan *achchiq* xalq geografik atamasini (bu yerda ichishga yaramaydigan, sho'rxok, sho'r suv manbayi ma'nosida) aniqladik va birinchi bor tasvirlab berdik. Ushbu fakt hududning fizik-geografik sharoitlari murakkabligi to'g'risida dalolat beradi, ya'ni ayrim hududlarda chuchuk suv obyektlarining yetishmovchiligi mahalliy aholini, hattoki sho'r suv manbalaridan hayvonlar va odamlar uchun ichimlik suvi sifatida foydalanishga majbur qilgan. Bu to'g'risida "achchiq" (bu yerda ichishga yaramaydigan, sho'r, sho'rxok suv manbayi ma'nosida) komponentli gidronimlarning katta qismi (bu holda biz quduqlar nomini kuzatamiz) dalolat beradi: Achchiq quduq, Jilmanachchiq, Itachchiq, Achchiqbuzon (antonim juftlik Chuchukbuzon (chuchuk), Muytenbayachchiq, Qospanachchiq qudug'i, Sadirachchiq qudug'i, Sultonachchiq qudug'i, Baynazarachchiq qudug'i, Achchiq qamishli qudug'i, Pirmanachchiq qudug'i, Amantayachchiq qudug'i, Achchiqbuloq, Achchiqtepa, Nishanbayachchiq, Nurjauachchiq, Oltiachchiq, Nazarbekachchiq, Yelemesachchiq, Qulsho'raachchiq, O'rinachchiq, Nuriachchiq, O'zbekboyachchiq, Murodaliachchiq, Ayapachchiq, Atimbayachchiq, Ashirbekachchiq, Uchachchiq, Sharapachchiq, Bayimbetachchiq va boshqalar.

Tadqiq etilayotgan hududda biz yana bir mashhur xalq geografik nomini topdik, u ham ilmiy adabiyotlarda tavsiflanmagan *kesik* - asl. "kesilgan, o'tkir qirrali narsa" atamasi. Axborot beruvchilarning fikriga ko'ra, ushbu geografik atama tabiat hodisasini aynan qumli joylarda belgilash uchun paydo bo'lgan. Ma'lumki, qumli cho'lda ko'chma qumli hududlar mavjud. Bu hududda tez va kuchli esadigan shamollar qumlarni uchirib yuboradi, bu tabiat hodisasi natijasida, keskin belgilangan qirrali qumtepalar paydo bo'ladi. Qirralar xuddi o'tkir narsa bilan kesilganday ko'rinish hosil qiladi. Mana shu

o‘tkir qirrali qumtepalar Qizilqumning tub aholisi orasida *kesik* atamasi bilan belgilangan.

Boshqa taxminlarga ko‘ra, Qizilkesik aholi punkti atrofida jarli tepaliklar bo‘lgan, ular sun‘iy kesilganday o‘tkir qirralarga ega edi.

Qizilqum hududida xalq geografik atamalari bilan bir qatorda ibodat joylari nomlari, ekklezionimlar, agionimlar, nekronimlar mavjud bo‘lib, ularning tarkibida avliyo, ota, xo‘ja, payg‘ambar avlodi nomlari uchraydi.

Tadqiqotda Qizilqum va O‘rta Osiyoning tutashgan hududlarida umumturkiy toponimlar tarkibida xalq geografik atamalarining qo‘llanish xususiyatlari ko‘chmanchi xalqning xo‘jalik faoliyati bilan tarixiy bog‘liq.

Xalq geografik atamalaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular yangi toponimlar yaratilishining bitmas-tuganmas manbayi hisoblanadi. Yuqoridagi fikrning haqiqiyliigi, shuningdek, qum, tog‘ oronimlar tarkibida; buloq, ko‘l, soy, ariq, quduq gidronimlari mavjudligi bilan tasdiqlanadi. Aytib o‘tilgan xalq geografik atamalari bilan bir qatorda hududda o‘y, bo‘gat, achchiq, kesik atamalari ham uchraydi. Masalan: Botiro‘y, Qoralio‘y, Ajibo‘gat, Oqbo‘gat, Oydinbuloq, Mingbuloq va boshqalar.

Shunday qilib, etnonimlarning universal semantikasi aniqlangan, ammo “odam”, “odamlar” etnonimlarining tipologik jihatdan universal semantikasini moddiy lingvistik ifodalashning muhim muammosi yechilmagan edi. Mazkur ishda bir qator etnonimlar, toponimlar, etnotoponimlar etimologiyasining tahlili asosida universal semantikaning lingvistik ifodasi muammosini hal qilish taklif etiladi.

Yuqorida tilga olingan *Az//As* etnonimida qayd etilgan ushbu etnik atama, ko‘p marotaba qadimiy turkiy Kultegin va To‘nyuquq yodgorliklarida tilga olinadi.

Qadimgi yozma yodgorliklar milodning boshlanishida *Az//As* etnik birlashmasi, davlat va davlat hukmdorlarining mavjudligi to‘g‘risida ma‘lumot beradi. Bu *Az//As* etnik birlashma milloddan avval paydo bo‘lganligi va uzoq muddatli tarixiy davr davomida rivojlanganligini ta’kidlashimiz mumkin. Undan tashqari, mazkur joyda tog‘li va dashtli qabilalar mavjud bo‘lgan, bu esa *Az* xalqining ko‘pchilik ekanligini bildiradi.

Yodgorliklarda ham otlarning az turlari (Az tulporlari, aftidan, o‘zining chidamliligi bilan mashhur bo‘lgan, agar Kultegin qorli tog‘larda yurish vaqtida az otini tanlagan bo‘lsa...) haqida isbotlarni topamiz.

Demak, *Az//As* etnik atama sifatida qadimdan tilda ishlatilgan. Yevroosiyo qit‘asidagi rivojlanish, xalqlarning intensiv aloqalari ushbu etnik atamani Hind-Yevropa va boshqa tillar orqali olish imkonini berdi. Uning ko‘rib chiqilishi *Az//As* etnonimining transonimizatsiya jarayonida teonimlar, toponimlar (etnotoponimlar) sifatida harakat qilishini aniqlashga imkon berdi. Lingvistik rivojlanish jarayonida etnik atama *-az//as* etnomorfema sifatida ham qo‘llanila boshladi. Teonimlar, toponimlar, etnotoponimlar, shu jumladan, etnomorfema *-az//as* tahlili shuni ko‘rsatdiki, ular “odam”, “odamlar”, “buyuk odam”, “Xudo” tipologik jihatdan universal semantikaga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Bu borada qadimgi Hind-Yevropa so‘zlarini ramziy deb hisoblaydigan M.M.Makovskiyning xulosalari muhimdir: “Dastlab, muqaddas formulani ifodalagan qadimgi so‘z ramzining moddiy ruhi unli va undosh (vokal tugunlari) birikmalari edi. So‘zning shakli uning ma‘nosi uchun, ma‘nosi esa shakl uchun taqiqlangan”²⁰⁴. Ayniqsa, M.M.Makovskiy qadimgi leksemalarning “geteromorfik tugunini” aniqlaydi, ya‘ni unli undosh bilan birikmani *-as* “*az*” “semit *ass* “ma‘bud” ma‘nosida ko‘rsatadi²⁰⁵.

Shu tariqa, muqaddas formula ko‘rinishida bo‘lgan “ramziy so‘zlar” bir qator turli tizimli tillarda teonimlar sifatida ko‘rinish beradi. Bu tasodifiy jarayon emas, chunki qadimgi odamlarning tasavvurida Xudo – bu “yuksak odam”. Bunday ta’kidlashga asos bo‘lib, “Dunyo xalqlarining afsonalari” ensiklopediyasida ko‘rsatilgan teonimlar xizmat qilishi mumkin²⁰⁶. *Asi* skandinaviya mifologiyasida ham uchraydi – bu ma‘budlarning asosiy guruhi, ko‘plab ma‘budlarning otasi Odin (keng hurmatga sazovor german xudosi, nemis-skandinaviya mifologiyasidagi oliy xudo, *As* rahbari,

²⁰⁴ Маковский М.М. Метаморфозы слова (Табуирующие маркеры в индоевропейских языках) // Вопросы языкознания. 1998, № 4. С. 151.

²⁰⁵ Маковский М.М. Семиотика языческих культур (мифопоэтические этюды) // Вопросы языкознания. 2002. № 6. 56 с.

²⁰⁶ Мифы народов мира. Энциклопедия : в 2 т. 2-е изд. / гл. ред. С.А. Токарев. М. : 1987. Т. 1: А–К. 671 с.

Bor va Bestlaning o'g'li, Burining nabirasi) afsonasi bilan birlashtiradi. Turli nemis qabilalarida "asi" so'zi mavjudligi, ularning Jordan tarixchisi tomonidan tilga olinishi, nemislar tomonidan Nasroniylik qabul qilinishidan oldin aslar g'oyasining butun nemischa tarqalishidan dalolat beradi. Bir qator o'rta asr manbalarida "Kichik Edda" (bir necha qismdan iborat Skandinaviya mifologiyasi) va "Ynglinga saga" dostoni" Skandinaviya tarixining eng muhim manbalaridan biridir. Ushbu asarlarda Osiyodagi aslarning kelib chiqishi to'g'risida ma'lumotlar bor. Shved arxeologi va madaniyat tarixchisi B.Salin o'z vaqtida aslar to'g'risida hikoyalar tarixiy asosga ega ekanligini himoya qilgan²⁰⁷.

Skandinaviya mifologiyasida *Ask* va *Emblya* – ma'budlar tomonidan yog'och timsoli ko'rinishda, jonsiz va "taqdirdan mahrum bo'lgan", dengiz qirg'og'idan topilgan birinchi odamlardir. Skandinaviya mifologiyasida *Aslar* samoviy *Asgard* qishlog'ida yashaydi.

Teonim *Ass* "iloh" qadimgi semit tilida kuzatiladi; Skandinaviya mifologiyasida *As* "ma'bud" sifatida; momoqaldir va yashin ma'budi. *Ass*, *Aza* – ingush va chechenlar afsonalarida ma'buda, Quyosh qizi, barcha tirik mavjudotlarning homiysi. Quyosh nurlaridan tug'ilgan, quyosh nurlarining hayotbaxsh kuchidir. Ayrim variantlarida – Quyoshning onasi²⁰⁸.

Qadimgi qozoq patronimlari, genonimlari, etnonimlari tarkibida yadro komponenti sifatida *-az//as* qo'shimchalari ishlatilishiga e'tibor qaratamiz: *Totas*, *Shuash* (*Shuas*), *Qoralas*, *Buydas*, *Janis* (*Janas*), *Mirzataz*, *Andas*, *Quyas*, *Aybas*, *Qarjas*, *Aqtas*, *Qojas*, *Qo'das*, *Sabbas*, *Tiyes*, *Andas*, *Otiras*, *Qoramanas*, *Qoraqas*, *Toqas*, *Sabbas*, *Qoz*, *Qo'das*, *Bug'az*, *Jappas*, *Qoyas*, *Qo'ltas*, *Jaras*, *Qojas*, *Boras*, *Quyas*, *Aras*, *Sarbas*, *Boqas*, *Qojas*, *Tog'as*, *Taz*.

-az//as etnomorfemasi tarkibidagi so'zning boshida yoki o'rtasida namoyon bo'lgan etnik nomlar alohida guruhni tashkil etadi: *Azay // Asay*, *Aspan*, *Asan*, *Sasay*, *Sasboqa*. Etnomorfema *-az//as* fonetik variantlarda ko'p marotaba qadimiy turk yozma

²⁰⁷ Salin G.B. Die Altgermanische Thierornamentik (1904) Published by Kessinger Publishing, 2010

²⁰⁸ Мифы народов мира. Энциклопедия : в 2 т. 2-е изд. / гл. ред. С.А. Токарев. М. : 1987- 1988. Т. 1: А–К. 671 с.

yodgorliklarida tilga olingan qadimgi umumturkiy etnonimlar tarkibida ham ajralib turadi: *Qoralas, Ikiras, Chinaz // Shinas, Xorulas hamda Talos, Teles, Tardush*.

Qozoq tilida *Az//As* otining adyektivatsiya jarayoni qiziqish uygʻotadi. *Az//As* etnik ismi “oliy” maʼnoni oladi va vaqt oʻtgan bilan *äz* (fonetik varianti -az) sifatida qoʻllana boshladi. Islom dini taʼsirida qozoq tilida *äz* sifatining kelib chiqishi arab tilidan ekanligini bildiruvchi xato fikr oʻrnashib qolgan. Ammo “oliy olam” maʼnoda *az//äz* leksemasi Oʻrta Osiyo tarixida islom davridan ancha oldin mavjudligi kuzatiladi. Qozoq tilida *äz* “oliy” soʻzi epitet shaklida quyidagi maʼnoga ega boʻladi: “xizmat koʻrsatgan”, “buyuk”, “dono”, “bashoratchi”. Qozoq tilining izohli lugʻatida “*äz*” “hurmatli”, “hurmat koʻrsatgan odam” maʼnolarida keladi deb berilgan.

Az//As otining adyektivatsiya jarayonida ushbu epitet qozoq tilida – unvon, xizmat koʻrsatgan odamlarga, jamoat va davlat arboblari qoʻllanilishiga sabab boʻlgan. Bu toʻgʻrisida Sh.Valixanov yozgan: “Az – dono, bilimdon, buyuk; ayrim qozoq xonlarining epiteti (Az – Janibek// Äz Jänibek, Az – Tauke// Äz Täuke). Qozoqlarda Azbergen//Äzbergen (donolik berilgan) shaxsiy ism epiteti uchraydi, Az Tengri – (buyuk osmon) ifodasi ham uchraydi”²⁰⁹, Az Tengri//Az Tangri//Äz Täñgri birikmasi alohida eʼtiborni tortadi, u nafaqat, epitetning qadimiyligi bilan, balki Az Tengri //Az Tangri // Äz Täñgri “oliy odam”, keyinchalik “yuqori Tangri” maʼnosida ekanligi bilan ham ajralib turadi. Maʼlumki, tengriylik turkiy dunyosida islom dini kirib kelguniga qadar ancha oldin boʻlgan. Yuqorida aytib oʻtilgan, tadqiq etilgan atama kelib chiqishi asl turkiy ekanligidan dalolat beradi. Demak, turkiy *Az//As* atoqli va turdosh soʻzi sifatida kelib chiqishi turli tizimlar tillarida qadimdan kuzatiladi. Shu vaqtning oʻzida qozoq tilida *Äz* fonetik varianti adyektivatsiya jarayonida “haqiqiy”, asl maʼnosiga va boshqa sinonim variantlariga ega boʻladi.

²⁰⁹ Валиханов Ч.Ч. Киргизское родословие. Собрание сочинений: в 5 т. / сост. В.Я.Басин; науч. ред. А.Г. Поздеев. Алма-Ата : Глав. редакция Казахской советской энциклопедии, 1985. Т. 2. С. 148–166.

M.Fasmer *-az//as* Avesto, qadimgi hind, fors, afg'on va yunon tillari bilan bog'liqligini ta'kidlab o'tadi. Ayniqsa, muallif lug'atda Chig'atoy Asni osetinlarning etnik ismi sifatida qayd etadi²¹⁰.

Etnik atama xalqlarning nomlari tarkibida ham uchraydi. Masalan, Mari totorlari hali ham *suas* deb ataladi. Xalqning nomi sifatida *As* etnik atamasi Yevroosiyo makonining muhim hududida qayd etilgan. B.X.Karmisheva O'zbekiston hududida *Asning* keng tarqalishi faktini ta'kidlaydi²¹¹.

Sh.Sh.Kuzeyev: "*as* etnonimi O'zbekiston toponimiyasida, ayniqsa, Xorazmda hamda Oltoydan Uralgacha bo'lgan keng hududda bo'lgan" deb yozadi²¹². L.S.Tolstova *As* etnonimini *alan* etnonimiga o'xshash deb hisoblaydi: "Aslarning nomi, ya'ni o'sha alanlarning, *ass* (Xorazmdagi o'zbek urug'ining qipchoq qabilasi) urug'i, etnonim va o'sha yerda qayd etiladigan bir qator toponimlarga (*Ass-Xorezm, Shax-abad; Ishbay-as-Xorezm, Novo-Urgench; As, Xuseyn-as-Xorezm, Yangi-ariq*) borib taqaladi"²¹³

V.V.Bartold *Az* atamasining etnik ma'nosini alohida ta'kidlaydi va Sibirda *Azlar* mavjudligini qayd etadi: "Balki samoyedlar singari, "yeniseylik ostyaklar", bir vaqtlar hozirgidan ko'ra ancha katta hududni egallagan bo'lishi mumkin va bu qabilalarga O'rxun yozuvlaridagi *Azlar* tegishli edi"²¹⁴.

Az etnik komponenti Sibir xalqlarining nomlari tarkibida mavjud: *xakas, xasava* (neneslar o'zlarini shunday atagan), *Xasut* (uryanxaylar); *qaraqasi, qass* (Sarich), *Kachi, Sagay, Tay as*. Ushbu toifaga Kavkaz va Yevropaning boshqa xalqlarining bir qator etnik guruhlarining nomlari kiradi: osetinlarning ajdodlari *az – alanlar* o'zlarini *aslar* deb atashgan; Ispaniyadagi *basklar* (ayrim tadqiqotchilar ularni kavkaz xalqlari deb tasniflashadi); Kavkazdagi etnik guruh *laz* – (nafaqat, Qora dengiz janubidagi

²¹⁰ Фасмер М. Этимологический словарь русского языка: Том 1 1987 4. М., "Прогресс" 1986, 95 с.

²¹¹ Кармышева Б.Х. Следы средневековых этнонимов и антропонимов в узбекских генеалогиях (ас, кышлык, урус) // Ономастика Средней Азии / ответ. ред. В.А. Никонов, А.М. Решетов. М.: Наука (Главная редакция восточной литературы), 1978, 28-37 с.

²¹² Кузеев Р.Г. Происхождение башкирского народа. Этнический состав, история расселения / Ответ. ред. Т.А. Жданко. М.: Наука, 1974, 120 с.

²¹³ Толстова Л.С. Отголоски ранних этапов этногенеза народов Средней Азии в ее исторической ономастике // Ономастика Средней Азии / ответ. ред. В.А. Никонов, А.М.Решетов. М.: Наука (Главная редакция восточной литературы), 1978, 6 с.

²¹⁴ Бартольд В.В. Тюрки: Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии / ред. Р. Соболева. Алматы: Жалын, 1993, 26 с.

qadimgi aholi, balki shimolda ham, bu yerdan *lezgin* kelib chiqishi) *chan* deb ham ataladi.

A.I.Malein ham *Azlar* Kavkaz aboriginlari bo'lganligini, IV asrda *Alanlarni Aslar* deb atashganini aytadi. U shunday yozadi: "...va hozirga qadar ikki volost nomlarida As ismi bor: Biyuk As va Kuchuk As"²¹⁵

Shubhasiz, *Azov* qabila birlashmasi ko'plab hozirgi turkiy xalqlarining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Masalan, O'zbekiston hududida *Az* (yoki *-as* komponentli) o'nlab etnotoponimlari aniqlandi. Bu fakt *Azov* qabila birlashmasining o'zbek xalqi etnogenezida ishtirok etganidan va bu qabilaning turar-joy hududining kengligidan dalolat beradi. 1925-1926 yillarda *As-tepa*, *Asau*, *As-Bay*, *Aslanbay*, *Asbiya*, *As* va hokazo qishloq nomlari qayd etilgan.

Mazkur etnik atamaning unumdorligi uning Osiyo va Yevropaning geografik bo'shlig'ida keng tarqalganligi bilan tasdiqlanadi. Bu yerda *As Yassi* shaklida "*Yassi* – Ruminiyaning shimoliy-sharqiy qismidagi shahar. Baxiuy daryosi bo'yida. *Yassi* judetsining ma'muriy markazi" etnotoponimlar sifatida taqdim etilgan. V.A.Nikonov *yasi alan* nomlaridan kelib chiqqan deb hisoblagan²¹⁶. Boshqa fonetik formantlar ham kuzatiladi: *Azak*, *Azov* – Rossiyadagi dengiz va port; *Yaslo* – Polshaning janubiy-sharqidagi shahar.

Aniqlangan *Az* qadimiy turkiy etnonim lingvistik rivojlanish tufayli etnik nomlar tuzilishida etnomorfema shakliga ega bo'ladi. *Az* etnik atamasining semantikasi etnonimiyada tipologik universalga xos, ya'ni etnonim "odam", "odamlar" ma'nosiga ega. Etnomorfema sifatida *-az//as* universal semantikaning tarqatuvchisi va bir vaqtning o'zida "odam", "odamlar" g'oyasining moddiy lingvistik shaklidir. Shu bilan birga, *az*ning fonetik variantini sifatlash jarayonida "haqiqiy, asl" va boshqa sinonimik variantlar ma'nolariga ega bo'ladi: Shu tariqa *Az//As* etnik nomining kelib chiqishi turkiy qatlamga oid ekanligi aniqlandi, "oliy odam" asl ma'nosi tariflandi. *Az//As* etnik nomi Yevroosiyo mintaqasining toponimiyasida keng tarqalgan.

²¹⁵ Малеин А.И. Комментарии // Путешествия в восточные страны Плано Карпини и Рубрука / Ред. Н.П. Шастина. М.: Гос. изд-во геогр. лит-ры, 1957, 57 с.

²¹⁶ Никонов В.А. Краткий топонимический словарь. - Москва, Мысль, 1966, 494 с.

Yassikechuv dromonimining kelib chiqishi Yassi polisonimi etimologiyasining aniqlanishini talab etadi. Natijada etnonimning toponimga aylanishi ma'lum bo'ladi, ya'ni biz transonimizatsiya hodisasini kuzatamiz. Bu *Yassi* polisonimining ilmiy etimologiyasiga olib keladi.

Yuqorida aytib o'tilganlarning barchasi quyidagi xulosalarni qilishga imkon beradi: 1) etimologik etnik atama *Az* "odam" tipologik universal ma'nosi bilan kelib chiqishi turkiy, ya'ni *Yassi* polisonimining kelib chiqishi turkiy ekanligi aniqlandi; 2) mazkur etnik atama til rivojlanishi bilan *-az//as* ildizli etnomorfema sifatida harakat qilishi aniqlandi; 3) *-az//as* "odam" yadro semantikasining tashuvchisi sifatidadir; 4) etnomorfema *-az//as* intensiv til aloqalari tufayli etnonimlar va boshqa nomlarning bir qismi sifatida umumiy til maqomini oladi, bu "odam", "odamlar" tipologik jihatdan universal semantikaning moddiy lingvistik ifodasidir; 5) *Az//As* etnonimni toponimga aylantirish hodisasi tufayli Yevroosiyo makonining toponimiyasida keng namoyon bo'lganidek, *Yassi* polisonimining kelib chiqishi misol bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda, Qizilqum mintaqasi va O'rta Osiyoning qo'shni hududlarida xalq geografik atamalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlash lozim. Tadqiq etilgan hududning umumturkiy toponimlar tuzilishida xalq geografik atamalaridan keng foydalanish, ushbu hudud ko'chmanchi qabilalarining xo'jalik faoliyati bilan bog'liq.

Xalq geografik atamalaridan foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular yangi toponimlar shakllanishining behisob manbayi hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tilgan fikrning asosligi oronimlar tarkibida qum, tog'; gidronimlar – buloq, ko'l, soy, ariq (kichik kanal), quduq, daryo, anhor; xalq geografik atamali toponimlar tarkibida muqaddas raqamlar mavjudligi bilan ham tasdiqlanadi.

Shunday qilib, umumturkiy xalq geografik atamalaridan foydalangan holda modellar ishlab chiqarish Qizilqum maxsus toponimik tizimining o'ziga xos belgilaridan biriga aylandi. Bundan tashqari, xalq geografik atamalari Qizilqum hududining umumturkiy toponimlari tarkibida keng tarqalgan. Ushbu muammoni o'rganish o'zaro bog'liq ikkita vazifani – ayrim umumturkiy etnonimlar, toponimlar,

shuningdek, xalq geografik atamalarining ilmiy etimologiyasini aniqlash zarurligini keltirib chiqardi. Etnonimiyada tipologik universallik qonuni asosida toponimlarning ibtidoiy semantikasi ochib beriladi. Qizilqum hududi umumturkiy toponimlarining maxsus shakllanishini o‘rganish jarayonida ilmiy asoslangan etimologiya taklif etiladi va kelib chiqish tarixi yo‘qolgan va yashirin semantikaga ega bo‘lgan umumiy turkiy etnonim va toponimlarning ibtidoiy semantikasi ochib beriladi.

Dissertatsiyada Qizilqum hududi toponimlarining leksik-semantik guruhlari, yuqori shakllanishning tarkibiy va grammatik xususiyatlari, shuningdek, tadqiqotda Qizilqum hududi toponimlarining tuzilishidagi umumturkiy xalq geografik atamalari ko‘rib chiqilgan.

3.3.§. Qizilqum hududi arealida qozoq etnotoponimlari nomlanishi xususiyatlari

Mazkur bobning tavsiflanayotgan faslida hudud etnotoponimlar o‘zining til xususiyati, hozirgi kunga qadar shakllanish davri va ma’lum urug‘ yoki qabilaga mansubligiga ko‘ra tarqalishi, areal kartalar, areal tahliliy ma’lumotlar asosida yoritildi. Areal termini lotincha “arealis” – maydon, kenglik so‘zidan olingan bo‘lib, tilshunoslikning bir bo‘limi sifatida til hodisalarining muayyan kenglikda tarqalishini belgilab, tillararo (dialektlar) munosabatlarni lingvistik geografiya metodlari asosida tadqiq etadi. Qizilqum hududi mikrotoponimiyasi etnomuloqot hududi hisoblanib, bu hududda etnoslar orasidagi aloqalar birmuncha qizg‘in kechgan bo‘lib, etnik xilma-xillikni tashkil etadi, odatda, bunday muloqot maydoni “etnomuloqot maydoni” kabi iboralar bilan ifodalanadi. Mazkur masala yuzasidan jahon nomshunosligi (onomastikasi)da e’tiborli va teran ilmiy ildizli tadqiqotlar yaratilgan.

Hududdagi etnotoponimlar areal-xronologik va genetik shakllanish jihatlariga ko‘ra, jahon tilshunosligi tadqiqotlariga tayanilib, tahlil qilingan. Ma’lumki, o‘zbek va qozoq etnonimiyasi turkiy tilli xalqlar etnonimlarining ajralmas tarkibiy qismidir. O‘zbek va qozoq urug‘-qabilalari va ularning tarmoqlari bilan bog‘liq nomlar turkiy xalqlar etnik tarkibida ko‘p hollarda uchrashi tabiiy. Muayyan urug‘ va qabila

nomlarining tarqalishini areal-lingvistik jihatdan o'rganish o'zbek etnonim va etnotoponimlarini tadqiq qilishda ahamiyatli bo'lgan tarixiy, tadrijiy va subordinativ asoslanishi xususiyatiga ko'ra etnotoponimlar o'z tavsifiga ega. Tarixiy manbalarda o'sha davrlarga oid bo'lgan tarixiy nomlarning hozirgi holatida, ya'ni Qizilqum, Tomdibuloq, Zarafshon kabi toponimlari mazmun-mohiyati negizida qadim ming yilliklarda o'rganilgan mintaqa hududida yashab kelgan turkiy urug' qabilalarining hayot tarzi, urf-odatlar hamda etnik tarkibining yashirinib yotganligi ayrim tarixiy manbalar hamda keksa kishilar tomonidan taqdim etilgan afsona va rivoyatlar asosida to'liq aniqlangan. Mana shu davrda paydo bo'lgan nomlar etimon termini asosida talqin etiladi. Etimologik tahlil qilishda etimon tushunchasini A.Beletskiy so'zning birinchi shakli va ilk ma'nosi sifatida sharhlagan bo'lsa, N.Podolskaya nomning ilk shakli hamda ma'nosi deb talqin etgan. O'zbek toponimist olimi T.Enazarov esa hozirda tilimizda mavjud so'z yoki morfemaning kelib chiqishiga asos bo'lgan so'z yoki morfema deb ta'riflaydi.

Boshqa turkiy xalqlar singari o'zbek xalqi ham, qozoq xalqi ham muayyan urug', qabilalarning etnik qatlamlaridan tarkib topgan. O'tmish tariximiz guvohlik beradiki, ajdodlarimiz Qizilqum va unga tutash hududlarda juda qadim davrlardan buyon yashab kelgan bo'lib, turkiy tilli elatlarning asosini, ramziy ma'noda o'q ildizini tashkil qilgan. Yon ildizlarning o'q ildizga birikib borish jarayonida o'zbek elati vujudga kelgan. Yangi etnosning vujudga kelishi bir necha etnik guruhlarining yetakchi etnos atrofiga jipslashishidan boshlanadi. Qizilqum mintaqasi etnotoponimlari orasida qozoq va o'zbek urug'lari bilan bog'liq joy nomlari salmog'i va tarqalish chegarasining kengligi bilan boshqa etnotoponimlarga qaraganda yetakchilik qiladi. Masalan, Arg'in, Jaloyir, Qangli, Do'rmon, Qipchoq, Qatag'an, Mang'it, Kenagas, Saroy, Nayman, Ayranchi, Uyrot, Urgenji kabi etnotoponimlar uchrashi faqat Qizilqum hududida emas, balki bunday etnik turkiy urug'lari butun respublikamizning barcha hududlarida uchraydi.

Turkiy tillar onomastikasining tadqiqi manbalaridan biri bo'lgan turkiy so'zlarni arab leksikografiyasi talablari asosida arabcha izohlab bera olgan va shu o'rinda yigirmadan ortiq turkiy qabilalar yashagan hududlarning joy nomlarini yo'l-yo'lakay

o'rganib, ba'zi bir toponimlarning o'sha vaqtdagi ma'no nozikliklarini mavjud manbalar asosida talqin qilgan M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asariga borib taqaladi. Bu asar A.N.Kononovning fikricha, "XI asr turkiy xalqlarining hayoti, turmush tarzi, ... etnonimlar va toponimlar. ... qavm-qarindoshlik atamaları,... geografik nomlar va atamalar, ... turli tarixiy, mifologik qahramonlarning nomlari, diniy, etnik atamalar va boshqalar haqida ma'lumot beruvchi yagona manbadir"²¹⁷. Shuni qayd etib o'tish kerakki, bu asarda turkiy tillarning ulkan onomastik sathi o'z aksini topgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari XV asr oxiri – XVI asr boshlaridagi O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindistonning tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, o'simlik va hayvonot olami, xalqi, odamlarining kasb-kori, tili va boshqa xususiyatlari haqida bebaho ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan manbadir. Shuningdek, "Boburnoma" Farg'ona vodiysi toponimiyasini, jumladan, gidronimiyasini o'rganishda muhim tarixiy manba hisoblanadi. Asarda Farg'ona vodiysi hududiga xos Marg'inon, Axxi // Axxikat // Axxikent, Arxiyon, Karnon, Koson, Navkanal. Pop qo'rg'oni, Sayram, G'avo, Pishxorxon, G'aznayi Namangan kabi toponimlar keltirilgan. Jumladan, Aylamish daryosi, Andijon suvi, Xoqon arig'i, Xo'jan suyi, Sayhun // Sirdaryo // Ars suyi, Sang suyi, Koson suyi, Xoqon arig'i singari gidronimlar haqida ham ma'lumotlar kuzatiladi²¹⁸.

Ma'lumki, Qizilqum hududida yashovchi xalqning tarixi, yashash geografiyasi, madaniyati, xalq og'zaki ijodi, lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganish hamda bu boradagi bilimlarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Hudud toponimiyasini o'rganish, tilshunoslik, tarixiy o'lkashunoslik, geografiya doirasida ilm-fan tomonidan hali hal etilmagan muammolar yechimida muhim o'rinni egallaydi.

Geografik voqelikning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi nomlar bunday tabiiy obyektlar haqida eng ko'p ma'lumotga ega manba hisoblanadi va uning xususiyatlarini, tavsifini ochib bera oladi.

²¹⁷Наханова Л.А. Историко-семантическая интерпретация топонимов в Орхоно-Енисейских памятниках. Диссертация на соискание ученой степени (PhD) доктора философии. - Астана, 2014. – С.13; Кононов А.Н. Махмуд Кашгарский и его «Дивану лугат-ит турк» // Советская Тюркология. – 1972. №1. – С.3-17.

²¹⁸ Бобур, Захириддин Мухаммад, Бобурнома. –Тошкент: Шарк, 2002. – 336 б.+32 б.

Toponomist olim A. Superanskaya o'z asarlarida geografik obyektning ifodalovchi mezon va nomlanish yo'nalishini ajratib ko'rsatadi:

Mezon: 1) jismoniy xususiyatlariga ko'ra; 2) ularning inson hayotidagi o'rni.

Nomlanish: 1) nomlanadigan obyekt xususiyatlari; 2) mahalliy aholiga daxldor xususiyatlar²¹⁹.

Geografik nomlar hammaga tanish bo'lishi mumkin, ammo nomlar mahalliy aholi hayot yo'li tarixini, xususiyatlarini ko'rsatib turadi. Biz bunga oddiy ko'z bilan qarab kelamiz. Nomlar o'zining zamonaviy ko'rinishi zamirida tub mohiyatini, xalqning qadimiy tarixini, madaniyatini o'zida mujassam etadi.

Atoqli otlarga, ya'ni topnoimlarga bo'lgan qiziqish, asosan, toponim ifodalayotgan ma'no qirralariga bo'lgan qiziqish qadimgi antik davrdan boshlangan.

Qadimgi Sharq ham bu masalada o'zining ilmiy qarashlari bilan ajralib turadi. Qomusiy alloma Abu Rayhon Beruniyning ta'kidlashicha, "boshqa tilli qabilalar biror hududni egallab olganlarida, hudud nomlari tezda o'zgaradi, chunki ular nomni buzib talaffuz qiladilar va shu tarzda, yunonlarning odati bo'yicha o'z tillariga moslashtiradilar. Ular nomlarning birlamchi ma'nosini olishadi, natijada nom o'zgarishga duchor bo'ladi". Bundan kelib chiqadiki, boshqa tilli kishilarning talaffuzi joyning haqiqiy nomining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi.

Qizilqum hududi arealida qozoq tilida berilgan joy nomlarining xususiyatlari

Nomlanish xususiyatiga ko'ra	Qizilqum hududidagi qozoq tilida berilgan joy nomlari
Joyning relyef xususiyatini ifodalovchi tog', jar, qir, do'ng, to'qay, tog', tepa, cho'l so'zlari bilan ifodalovchi nomlar	Bo'kantov, Quljuqto'v, Aristantov, Beltov, Keregetov, Tulkitov, Qasqirtov, To'qitov, O'kiztov, Aytimtov, Auminzadotov, Muruntov, Tomditov, Oqtov, Qorotov, Yetimtov, Sulton Uvays tog'i, Shoqitov, Dauqiztov, Lau-lautov, Derbistov, Balpantov, Tobabergentov, Besapantov,

²¹⁹ Мурзаев Э.М. Словарь народных географических терминов. Т.1. М.: Мысль. 1999. – С. 340.

	Altintov, Pistelitov, Boztov, Qoratorov, Aytimtov, Baqalitorov, Boshog'itmatov, Jalpaqtov, Tumshiqtov, Alimtov, Sulton Uvays tog'i, Shoqitov, Dauqiztov, Tauabergen tog'i, Quldar tog'i, Qo'shpaqtov, Qo'rg'antov, Qayraqtov, Qazaqtov, Keriztov, Jetimtov, Erler tog'i, Gujimplitov, Burkittov, Beltov, Amantaytov
Suv obyektlari bilan, ya'ni soy, ariq, buloq, ko'l, suv, quduq, ko'prik, kechik so'zlari bilan aloqador nomlar	O'g'risoy, Tomdibuloq, To'rtquduq, Sariqiya, Sirdaryo, Qizonaning qayig'i, Ko'rikning qayig'i, Muytenning qayig'i, Yassikeshu, Shobanqazg'an qudug'i, Sho'rko'l, Qora to'qa qudug'i, Ko'nek quduq, Ushquduq, Qulquduq, Uzunquduq, To'rtko'l, Jusantepa qudug'i, Og'itma ko'li, Toldi quduq, Qizil quduq, Urazjon quduq, Qulanqoq, Ot quduq, Beshquduq, O'kizquduq, Yangiqazg'on quduq, Qo'sh quduq, To'rtquduq, Arnasoy, Oqsoy, Qayroqlisoy, Kampirsoy, Kengsoy, Toyloqqoq, Asauqoq, Mektepqoq, Beshqoq, Nurmuratqoq, Qoqota, Yulduzqoq, Boqayqoq, Qoqqush, O'risqoq, Borqoq, Buyanqoq, Ashchilisoy, Ashchio'zak, Achchiqqorasuv, Sho'rko'l
Ayrim o'simlik, daraxt nomlari (archa, yong'oq, olma, terak, tol, tut, uzum, o'rik, qamish, qayrag'och, arpa) bilan atalgan nomlar	Jing'ildi, Saksavul o'rmon, Qamishli, Madeli to'qay, Qaldibek to'qay, Qora tuqanin to'qayi, Shengeldi, Ajiriqli, Gujimditov, Toldi quduq, Paxtaker, Keskanterak ovuli, Pistelitov
Rang-tus bildiruvchi oq, qora, qizil, sariq, ko'k, ola, chipor so'zlariga aloqador nomlar	Qizilqum, Ko'kcha, Qizil quduq, Ko'kayaz qishlog, Qizil ko'pir, Oqbaytal, Oqbo'ta, Qora tuqanin to'qayi, Qizildaryo, Oq murt quduq, Oq quduq, Boshiqora qudug'i, Qora cho'qqi, Qora bo'get suv ombori, Qora tepa, Qorao'y, Oqsoy, Achchiqqorasuv, Oqjar,

	Ko'ktov, Ko'kbuloq bulog'i, Qizilbulog bulog'i
Qush va hayvonlar nomi bilan ataladigan nomlar	Qasqirtov, Tulkitov, Jilandi, Qo'lanqoq, Bo'kenay, Qora qarg'a dovoni, O'kiztov, To'qtitov, Ot quduq, Oqbaytal, Oqbo'ta, Tuya ovul, Baqalitov, Burkittov, Sugirquduq, Kuyiktov
Sonni, miqdorni ifodalovchi so'zlar yordamida hosil qilingan nomlar	Qo'shquduq, Ushtepa, Beshquduq, To'rtquduq, Jetisoy, Oqsoy, Beshqoq, Beshachchiq, Oltiachchi, Uchachchiq, Uchquduq tumani, Juzquduq ovuli, Tuqqiztepa, Mingshuqir.
Urug', qabila nomlari asosida yuzaga kelgan nomlar	Sarbas, Qorasaqal, Qoratoqa, Ko'nek, Ayuteren, Nayman, Jalayir, Uyrot, Do'rman, Arg'in, Muyten, Uyrot, Qorasiraq, Mang'it, Qoraxitoy, Balqi, Teleu, To'qmang'it.
Foydali qazilmalar mavjudligi to'g'risidagi nomlar	Altintov, Ko'mir to'kken joli, Zarafshon, Tuztepa, Temirshi
Maza-ta'm va hid bildiruvchi shirin, achchiq, sho'r, nordon, chuchuk, taxir, xushbo'y so'zlariga aloqador nomlar	Sho'rquduq, Sho'rsha, Sho'rtepa, Sho'rko'l, Sasiqko'l, Sasiqbuloq, Achchiq quduq, Jilmanachchiq, Itachchiq, Achchiqbuzon (antonim juftlik Tuchchibuzon (chuchuk), Muytenbayachchiq, Qospanachchiq qudug'i, Sadirachchiq qudug'i, Sultonachchiq qudug'i, Baynazarachchiq qudug'i, Achchiq qamishli qudug'i, Pirmanachchiq qudug'i, Qosoyachchiq qudug'i, Amantayachchiq qudug'i, Achchiqbuloq, Achchiqtepa, Nishanbayachchiq, Nurjauachchiq, Oltiachchiq, Nazarbekachchiq, Yelemesachchiq, Qulshoraachchiq, Yomonachchiq, Urinachchiq, Yaxudaachchiq, Nuriachchiq,

	O'zbekboyachchiq, Murodaliachchiq, Ayapachchiq, Atimbayachchiq, Ashirbekachchiq, Uchachchiq, Sharapachchiq, Bayimbetachchiq.
Inson a'zolari bilan ifodalanadigan nomlar	Muruntov, Kichiko'z, Ulkenko'z, Ayaqquduq, Oyoqog'itma, Mo'yinqum.
Kishi ismlari va laqablari bilan bog'liq nomlar	Qora botir, Qora bura, Baymurat ovuli, Utamurod ovuli, Qulynbet ovuli, Urazjan ovuli, Sugurali ovuli, Taspem ovuli, Shontibay ovuli, Eltoy ovuli, Fazilbek ovuli, Urazjon qudug'i, Qaroq ota, Azanur avliyo, Erler ota, Beder ota, Qanarbay ota, Mo'min ota, Qilish ota, Mix ota qabristoni, Mo'min ota ziyoratgohi, Qo'chqor ota ziyoratgohi
Qatnov yo'llari bilan bog'liq nomlar	Ko'mir to'kken joli, Jau joli, Maya joli, Qashqin joli

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, hudud xalqi aholisi joy nomlarini ko'chmanchi turmush tarzi bilan bog'lagan. Masalan, mahalliy xalq geografik nomlardan foydalangan holda, qaysi bir hudud chorvachilik yoki dehqonchilik qilish uchun, yashash qulay ekanligini va aksincha noqulay ob-havo sharoitlari, yashash tarzi qiyin ekanligini ifodalaganlar. Joy nomlari orqali aholi joyning qulayligi hamda noqulayligi haqida ma'lumot berishgan.

Hududdagi ba'zi nomlar joyiga nisbatan o'z ma'nosini yo'qotgan bo'lib, davr o'tishi sababli turli o'zgarishlarga uchrab o'zining asliy shaklini saqlab qolmagan. Qozoq xalqining va har qanday hududning toponimiyasi dinamik va chalkashliklarga ega hisoblanadi.

Shunday qilib, geografik o'lka toponimlari xususiyatlarini o'zida aks ettirgan Qizilqum hududida istiqomat qilayotgan mahalliy aholining, asosan, qozoq xalqining toponimlari xususiyatidan kelib chiqib, shuni xulosa qilish mumkinki, hudud joy nomlari xalqning ko'chmanchi hayot tarzi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Ular o'zlarini

o‘rab turgan muhitga juda e‘tiborli bo‘lganlar va natijada bu joylar, tog‘lar, daryolar, suv havzalari nomiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan. Shu nuqtayi nazardan, hudud toponimiyasi qozoq xalqining tili, urf-odatlar, an‘analari to‘g‘risidagi madaniy, ma‘naviy axborotni o‘zida mujassam etadi. Joyning har bir nomi xalqning maishiy hayotini, madaniyatini, yashash tarzining o‘ziga xosliklarini ichiga olgan ulkan bir tarixdir.

